

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

D.K. HOTAMOVA

UMUMIY PEDAGOGIKA

Barcha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2024**

UO'K 37.013(075.8)

74.00ya73

H 68

Hotamova, D.K.

Umumiy pedagogika [Matn] o'quv qo'llanma / D.K. Hotamova. – Buxoro: Sadridin salim buxoriy, 2024. – 152 b.

KBK 74.00ya73

O'quv qo'llanmada hozirgi zamon pedagogika va psixologiya fanlarining yutuqlari hamda uzoq yillar olib borilgan kuzatishlar va mazkur fanni o'qitishdagi tajribalarga tayanib, pedagogika nazariyasining ta'lim nazariyasi bo'limini hamda uning ilmiy – nazariy va amaliy – metodik asoslari xususida fikr yuritilgan. O'quv qo'llanmada umumiy pedagogika fani va uning ta'lim va tarbiya nazariyasi mazmunining nazariy – metodologik asoslari, mohiyati, funksiyasi, pedagogika fanining shakllanishi va rivojlanishi, maqsad va vazifalari, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari, shaxs rivojlanishi va unga ta'sir etuvchi omillar, didaktika (ta'lim nazariyasi), ta'lim jarayoni qonuniyatlari va tamoyillari, ta'lim mazmuni, ta'lim metodlari va vositalari, ta'limni tashkil etish shakllari, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish, tarbiya nazariyasi mazmuni dalillar orqali yoritilgan. O'quv qo'llanma barcha kunduzgi bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalarilari uchun mo'ljallangan bo'lib, umumiy pedagogikaning tarbiya bo'limini teran o'rganish orqali kasbiy tarbiyaviy faoliyat va uni egallash hamda takomillashtirish haqida ma'lumot beradi.

Taqrizchilar:

T.H.Olimov, BuxDPI pedagogika kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

A.T.Gulboyev, Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasida p.f.n. dotsent

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan. Ro'yxatga olish raqami 538403.

ISBN 978-9910-04-356-7

KIRISH

Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida mamlakatimizning ijtimoiy- siyosiy, ma'naviy- iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy hayotida ro'y berayotgan voqealar, avvalo, mamlakatni jahon hamjamiyatiga munosib o'rinni egallash, hamda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyatni qurishga yo'naltirilgandir. Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kadrlar kasb nuqtai nazardan mahoratli, yuksak malakali va ma'naviy – axloqiy salohiyat egasi bo'lishi talab etiladi. Bundan oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan barcha kasb egalari singari bo'lajak o'qituvchilar ham mustasno emas. Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilar o'z kasbining mohir ustasi, tadbirkor, har tamonlama tarbiyalangan va tashabbuskor bo'lib, faoliyatga tayyorlanishlari lozim. Shu nuqtai nazardan ularni mahoratli pedagog va mohir tarbiyachi sifatida tayyorlashda “Umumiy pedagogika” fani muayyan mavqega ega. Ushbu o‘quv qo‘llanmani tayyorlash davomida mamlakatimizda pedagogika fani taraqqiyotida uning rivojlanishiga munosib hissa qo‘shgan va bugungi kunda hissa qo‘shib kelayotgan pedagog olimlar M.Ochilov, O.Roziqov, K.Zaripov, D.Shodiyev, K.Hoshimov, O.Hasanboyeva, A.Munavvarov, O.Musurmonova, R.Mavlonova, N.Azixadjayeva, N.Egamberdiyeva, N.Erkaboyeva, N.Sayidahmedov, X.Ibragimov, R.Jo‘rayev, R.Safarova, J.Yo‘ldoshev, O‘.Tolipov, Sh.Mardonov, M.Quronov, B.Adizovlarning ilmiy pedagogik tadqiqot natijalari muhim o‘rin tutganligi ma’lum bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”, “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5712-son farmonlarida ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida Oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish, jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy

faolligini oshirish, yoshlarni ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni bajarishda ta‘lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida zamonaviy axborot texnologiyalari, zamonaviy adabiyotlar va darslik hamda o‘quv qo‘llanmalarining yangi avlodini yaratish muhim o‘rin tutadi.

O‘quv qo‘llanmada sifatida tavsiya etilayotgan ushbu kitobda umumiy pedagogikaning ta‘lim va tarbiya nazariyasi bo‘limidan o‘rin olgan; “Umumiy pedagogika ” fani uning tarkibiy qismlari, pedagogika fanining shakllanishi va rivojlanishi, maqsad va vazifalari, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari, shaxs rivojlanishi va unga ta‘sir etuvchi omillar, didaktika (ta‘lim nazariyasi), ta‘lim jarayoni qonuniyatlari va tamoyillari, ta‘lim mazmuni, ta‘lim metodlari va vositalari, ta‘limni tashkil etish shakllari, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tashxis etish, tarbiya nazariyasiga doir masalalar yoritilib berilgan, hamda ularni amaliyotaga tadbiiq etish yo‘nalishida ma‘lumot berishga mo‘ljallangan.

I MAVZU. PEDAGOGIKA NAZARIYASI FANINING MAZMUNI, MOHIYATI VA PREDMETI.

1.1. Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Pedagogikaning asosiy kategoriya va tushunchalari.

√ **Tayanch soʻzlar:** pedagogika, maqsad, vazifa, obyekt, predmet, kategoriya, pedagogikaning sohalari, pedagogika fani metodologiyasi, ilmiy-tadqiqot metodlari, Shaxs, rivojlanish, omil, muxit, irsiyat, taʼlim tarbiya.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ilmiy bilish nazariyasida «fan» tushunchasiga turlicha taʼriflar berilgan. P.V. Kopninning taʼkidlashicha, Fan – bu dunyoning ilmiy koʻrinishida yotuvchi, tekshirilgan va asoslangan bilimlar tizimi, alohida ilmiy bilimlar sohasi hisoblanadi. V.P. Koxanovskiy fan deganda biz – bilimlar ishlab chiqaruvchi faoliyat (olimlar bilimi, tajribasi, qobiliyati, ilmiy darajasi; ilmiy muassasalar, ularni vositalari) ni ilmiy tadqiqot ishlari metodlarini; ilmiy axborotlar tizimini, shu bilan birga bilimlarni tushunamiz - deb taʼkidlaydi. Yuqoridagi fikrlarga tayanib fanni koʻrinishlarini quyidagicha ifodalashimiz mumkin: Fanning xususiyatlari:

– ijtimoiyligi, jamiyat talab va ehtiyojlari fanni rivojlanishini taʼminlaydi;

– tizimlilik, fan oʻzaro aloqador elementlar tizimini ifodalaydi: obyekt va predmeti, oʻziga tegishli kategoriya va tushunchalarga egaligi va farazi, metodlari hamda faktlari mavjudligi;

– rivojlanuvchanligi, oʻzgaruvchanligi, yaʼni dinamik xarakteri, fan uzluksiz amaliy tekshirilgan va ilmiy asoslangan bilimlar bilan toʻldiriladi. Har qanday fan – bu nafaqat bilimlar, biroq bilimlarni ishlab chiqaruvchi jarayon hisoblanadi; insonni amaliy faoliyatlaridan biri boʻlib, predmeti maʼlum bilimlar sohasi hisoblanadi. Pedagogika fan sifatida yuqoridagi koʻrinishlarga va xususiyatlarga ega boʻlganligi uchun, hech ikkilanmay mustaqil fanlar qatoriga qoʻshishimiz mumkin.

Fanlar tizimidagi har qanday fanni oʻrganish uning tadqiqot predmetini hamda uni rivojlanish tarixini oʻrganishdan boshlanadi. Pedagogikaning paydo boʻlishi va rivojlanishi jamiyatning yosh avlodni tarbiyalash ehtiyoji bilan bogʻliq.

Pedagogika soʻzining lugʻaviy maʼnosi qadimgi yunon tilidan «paydagogos» bola yetaklamoq maʼnosini anglatadi. Qadimda aristokratlarni bolalariga qarovchi, ularni maktabga olib borib keluvchi, ular bilan birga oʻynovchi qullar paydogogoslar deb atalgan. Keyinchalik bolalarni tarbiyalovchi va ularga taʼlim beruvchilar pedagoglar deb yuritila boshlandi. Ushbu soʻzdan tarbiya toʻgʻrisidagi fan pedagogika kelib chiqqan. Mustaqil fan sifatida pedagogika dastavval falsafiy bilimlar tizimidan ajralib chiqqan. Kishilik jamiyatida hayotga qadam qoʻyayotgan har bir yangi avlod oʻzidan oldingi avlodning ijtimoiy tajribasini oʻzlashtirib, boyitib, rivojlangan koʻrinishda oʻzidan keyingi avlodga oʻtkazishi jamiyatni rivojlanishini boyitadi.

Pedagogika — bu ijtimoiy tajribani katta avlod tomonidan oʻtkazish, yosh avlod tomonidan oʻzlashtirish qonuniyatlarini oʻrganuvchi fan. Pedagogika taʼlim-tarbiyaga oid ilmiy asoslangan bilimlar tizimi shakllangunga qadar taʼlim-tarbiya qonuniyatlarini ochish, izlash borasida murakkab va uzoq yoʻlni bosib oʻtdi.

Pedagogika yunoncha «paydos» — bola va «ago» — yetaklamoq soʻzlaridan olingan boʻlib, tarjima qilinganda «bola yetaklamoq» maʼnosini bildiradi. Qadimgi Gretsiyada xoʻjayinni bolasini maktabga olib boruvchi unga maktabdagi mashgʻulotda va undan tashqarida qarovchi qulni pedagog deb ataganlar. Kishilik jamiyatining rivojlanishi bilan pedagogni roli oʻzgardi. Pedagogika soʻzining maʼnosi oʻzgarib keng maʼnoda bolani hayot davomida oʻqitish, tarbiyalash, maʼnaviy va jismoniy rivojlantirish sanʼati maʼnosida qoʻllanila boshlandi. Pedagogikaning elementlari jamiyat rivojlanishining boshlangʻich bosqichida tarbiyaning paydo boʻlishi bilan bogʻliq. Dastlabki pedagogik fikrlar, qarashlar va gʻoyalar xalq ogʻzaki ijodida paydo boʻldi. Bizgacha ular topishmoq, maqol, aforizm, koʻrinishida yetib kelgan. Yozuvning paydo boʻlishi bilan xalq tomonidan yaratilgan qarashlar maslahat, qoida, tavsiya koʻrinishida boʻlgan. Shunday qilib, xalq pedagogikasi paydo boʻldi. Quyida pedagogika tarixi yoʻnalishining yirik namoyondasi A.I.Piskunov nazariyasiga asoslanib, butun dunyoda pedagogikaning fan sifatida rivojlanishining asosiy bosqichlarini koʻrib chiqamiz.

Birinchi bosqich insonlar tomonidan empirik yoʻl bilan toʻplangan pedagogik tajribalarni umumlashtirish bilan bogʻliq. Ushbu tajribalar oʻsha davrdan qolgan qoʻlyozma manbalarda aks etgan. Dastlabki

maxsus ta'lim tizimlari eramizdan avvalgi 3 ming yillikda paydo bo'lgan. Ushbu ta'lim tizimlarida o'qitishning murakkab bo'lmagan shakl va usullaridan foydalanilgan: kattalarning namunasi – kichiklarning taqlidi;

ko'rsatish — o'quvchilarni takrorlashi;

buyruq – bajarish;

talab – bo'ysunish.

Kattalarni yoshlarga munosabati shu tarzda bo'lgan. Bu tajribalar nazariy jihatdan umumlashtirilmagan. Dastlabki yozuv paydo bo'lgandan so'ng yozishga, o'qishga jadval yordamida o'rgatilgan. Alifbe harflarni o'rgatish orqali o'rgatilgan. Bolalar matnni mexanik ravishda yodlab, keyin aytib berganlar. Ikkinchi bosqich tarbiya jarayonini tendensiya va qonuniyatlarini, mohiyatini ifodalovchi ko'rsatma va qoidalarni tizimlashtirilganligi bilan xarakterlanadi. Ushbu bosqichda pedagogik bilimlar falsafiy va siyosiy bilimlarni bir qismi sifatida shakllangan. Qadimgi yunon mutafakkirlari Pifagor (e. a. VI a.), Geraklit (e. a. 520–460-y.), Demokrit (e. a. 460–370-y.), Platon (e. a. 427–347-y.), Aristotel (e. a. 384–322-y.) lar o'zlarining falsafiy farazlari bilan birga o'qitish usullari va ta'lim mazmuniga oid pedagogik qarashlarini bayon etganlar. Qadimgi sharq sivilizatsiyasi (e. a. 5-4 ming yillik — V a.)da — Ikki daryo oralig'i, Misr, Hindiston, Xitoy — ta'lim shakli bo'yicha bebaho tajriba qoldirgan. Masalan, qadimgi Mesopotamiya (e. a. 3m. y.) maktablarida suhbat, tushuntirish, ko'chirib yozish, mashq metodlari qo'llanilgan. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikda qadimgi Hindiston maktablarida o'qitishning faol usullari qo'llanilgan: o'qituvchi o'quvchilar oldiga turli maqsadlar qo'yib, o'quvchilarni savollarga mustaqil javob berishga qiziqtirgan. Qadimgi Xitoyda Konfutsiy maktabi mashhur bo'lib (Kun-zi, 551–479-y.) unda o'qitishning turli usullaridan obrazlarga taqlid, dialog, taqqoslash, predmet va hodisalarni klassifikatsiyalash kabilardan foydalanilgan. Pedagogika tarixi bo'yicha tadqiqotchilar ta'lim nazariyasini paydo bo'lishini qadimgi Rim oratori va oratorlik san'ati nazariyachisi Mark Fabii Kvintilian (ya. a. 35–96-y.) nomi bilan bog'laydilar.

Uchinchi bosqich – bu Yevropada o'rta asrlar maktablarini paydo bo'lishi. To'rtinchi bosqich Uyg'onish davriga to'g'ri keladi. Uyg'onish davrining buyuk vakillaridan ispan filosofi, psixologi, pedagogi X.L.Vives (1492–1540)ning ta'lim jarayoni muammolari,

nemis pedagogi, klassik gimnaziya asoschisi I.Shturm (1507–1587) ning jamoada o‘qitish to‘g‘risidagi fikrlari, italyan faylasufi va siyosiy arbobi T. Kampanella (1568–1639)ning tarbiya to‘g‘risidagi, ta’limda ko‘rgazmalilikni qo‘llashga doir tavsiyalari, fransuz mutafakkiri M. Monten (1533–1592) ning tajribani ta’lim vositasi sifatidagi tashviqotlariga doir g‘oyalari, golland gumanisti E. Rotterdamskiy (1466–1536)ning mehnatga munosabat axloqiylikning mezoni sifatidagi qarashlarini misol sifatida keltirish mumkin. Beshinchi bosqich – bu pedagogikani mustaqil ilmiy nazariya sifatida shakllanishi, chex pedagogi Ya.A. Komenskiyning nomi bilan bog‘liq. Ya.A.Komenskiy o‘zining «Buyuk didaktika» (1628-y.) asarida pedagogik bilimlarni ilmiy fundamentini yaratishga harakat qildi va pedagogikani fan sifatida tizimlashtirdi.

Oltinchi bosqich buyuk pedagoglar I. F. Gerbart (1776–1841), I.G. Pestalotsi (1746–1827), A. Disterveg (1790–1816) lar nomi bilan bog‘liq, ular pedagogika fanining tarkibiy qismi sifatida didaktikani rivojlanishiga munosib hissa qo‘shganlar. Shvetsariyalik pedagog I.G. Pestalotsi – boshlang‘ich ta’lim metodikasining asoschisi hisoblanadi; nemis pedagogi va psixologi I.F. Gerbart – ta’lim nazariyasining nazariy asoslarini ishlab chiqdi; nemis o‘qituvchilarining o‘qituvchisi A. Disterveg — o‘qitish qoidalarini ishlab chiqdi; ingliz olimlari E.Bell, D. Lankasterlar hamkorlikda o‘qitish amaliyotchilari va tashkilotchilari hisoblanadilar.

Yettinchi bosqich – pedagogika fanini mustaqil fan sifatida rivojlanishi D.Ushinskiy (1824–1870) faoliyati bilan bog‘liq. U birinchilardan bo‘lib, fiziologik, psixologik bilimlarga asoslangan yangi pedagogik tizimni yaratdi, ta’limni mantiqiy asoslarini ishlab chiqdi, ta’lim va tarbiyaning prinsiplarini asosladi.

Sakkizinchi bosqich – sobiq sho‘ro tuzumi davrida pedagogikani fan sifatida rivojlanish davri. 1917–1991-yillarda ta’lim tizimida tub qayta qurish yillari bo‘lib o‘tdi. Sh. I. Ganelin (1894–1974), D. Lordkipanidze (1905), B. P. Yesipov (1894–1967), M. A. Danilov (1899–1973), M. N. Skatkin (1900–1991), I. Ya. Lerner (1917–1996), Yu. K. Babanskiy (1927–1987) lar sho‘ro davrining buyuk didaktlari hisoblanadi. Bu didaktlar pedagogikani fan sifatida rivojlanishiga, ta’lim nazariyasini rivojlanishiga munosib hissa qo‘shganlar. Ta’lim amaliyoti va nazariyasida chet el pedagog olimlaridan amerikalik pedagog Djon Dyui (1859–1952) munosib iz qoldirib, o‘quvchilarning

intellektual qobiliyatlari va amaliy faoliyat malakalarini rivojlantirish g'oyasini ilgari surgan. Chet el pedagoglaridan ta'lim nazariyasi sohasida pedagogik maqsadlar taksanomiyasini ishlab chiqqan amerikalik pedagog olim B. Blum (1913y.) nomi mashhur. Polshalik didaktshunos V. Okon (1914y.) — muammoli ta'lim, umumiy didaktika; amerikalik pedagog D. Bruner (1915y.) – ta'lim nazariyasi sohasidagi ishlari;

Ingliz pedagogi N. Bennet (1920y.) – o'qitish stillariga xarakteristika; Polyak didaktshunosi Ch. Kupisevich (1924y.) – muammoli ta'lim, dasturlashtirilgan ta'lim, ta'lim texnologiyasi, ta'lim nazariyasini ilmiy va amaliy jihatdan boyitganlar. To'qqizinchi bosqich – 1990-yildan hozirgi davrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr shaxsga yo'naltirilgan ta'limni qo'llashga qiziqishni oshganligi, ta'limda pedagogik texnologiyalarni va axborot kommunikatsiyalarni qo'llash masalasiga qiziqishni oshganligi bilan xarakterlanadi. Pedagogik innovatsiya, monitoring va pedagogik menejmentning nazariy asoslari tadqiq qilindi. Respublikamiz pedagogika tarixi sohasidagi olimlarning tadqiqotlariga tayanib, O'zbekistonda pedagogika fanining rivojlanish tarixini 5 bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq bo'lib, dastlabki pedagogik fikrlar o'zbek xalq ertaklarda, topishmoqlarda, afsonalarda, o'zbek xalqining an'ana va urf-odatlarida o'z ifodasini topgan.

Ikkinchi bosqich sharq madaniyatini shakllanishi davriga to'g'ri kelib, sharq Renessans davri nomini olgan. Bu davrda arab musulmon dunyosining olimlari antik dunyoning ma'naviy dunyosini o'rganib, o'zlarining gumanistik dunyoqarashlarini shakllantirganlar. O'zbek xalqining pedagogik g'oyalarining shakllanishiga Abu Nasr Forobiyning (870–950), Abu Ali ibn Sinoning (980–1037), Abu Rayhon Beruniy (970–1048) larning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi asarlari ta'sir qildi. Biroq O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik g'oyalari yagona bir tizimga keltirilmagan.

Uchinchi bosqich – o'zbek pedagogikasining shakllanishi Turkistondagi jadidchilik harakatining namoyondalari S.Aziziy, M.Behbudiy, A.Avloniy, Munavvar qori Abdurashidov nomi bilan bog'liq.

To'rtinchi bosqich – 1924-yildan 1991-yilgacha O'zbekistonda pedagogika fani sobiq sho'ro pedagogikasi tizimida rivojlandi. Bu davrda quyidagi muammolar o'rganildi: o'quvchilar jamoasining

shakllanishi, mehnat tarbiyasi, oila va maktab aloqadorligi, dasturlashtirilgan va muammoli ta'lim, o'quvchilarni bilish faoliyatlarini faollashtirish va b. Ushbu bosqichda mamlakatimizda pedagogika fanini rivojiga S.Rajabov, Z.Mirtursunov, N.Takanayev, X.Tillashev, O.Muhammadjonov, A.Munavvarovlar munosib hissa qo'shganlar.

Beshinchi bosqich – 1991-yildan hozirgi davrgacha, Mustaqillik yillarida pedagogika fanining rivojlanish davri. Bu davrda maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonlarida pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ta'limni axborotlashtirish va kompyuterlashtirish masalalari bilan bog'liq masalalar ishlab chiqildi. Mustaqillik yillarida pedagogika fanining rivojlanishiga M.Ochilov, O.Roziqov, K.Hoshimov, B.Qodirov, O.Musurmonova, S.Mamajonova, B.Adizov, R.Safarova, R.Jo'rayev, N.Sayidahmedov, M.Quronov, F.Yuzlikayev, J.Yo'ldoshyev, O'.Tolipov, N.Egamberdiyeva, N.Erkafoyevlar hissa qo'shib kelmoqdalar.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, pedagogika fan sifatida rivojlanishning uzoq yo'lini bosib o'tib, mustaqil o'quv predmeti sifatida shakllandi.

1.2. Pedagogik fanlarning tuzilishi. Pedagogik fanlar tizimi. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlariga tavsif.

Har qanday ilmiy bilimlar sohasining shakllanishi ushbu fan predmeti doirasidagi tushunchalarni rivojlanishi bilan bog'liq. Ilmiy umumlashmalarni ifodalovchi asosiy pedagogik tushunchalar pedagogik kategoriyalar deb yuritiladi.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalarini ta'lim, tarbiya, rivojlanish, ma'lumot, pedagogik jarayon kabilar tashkil qiladi. Pedagogik jarayon – bu ta'lim-tarbiya vazifalarini hal etish maqsadida kerakli vositalarni qo'llagan holda pedagoglar va tarbiyalanuvchilarning o'zaro hamkorligi asosida maxsus tashkil etilgan jarayondir.

Pedagogik jarayon maxsus tashkil etilgan mazmun va vositalar bilan bog'liq amalga oshiriladi. Pedagogik jarayondagi tarbiya mazmuni va vositasi hamda pedagoglar va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalar ushbu tizimni dinamik xarakterga ega ekanligini ifodalaydi. Ta'lim – bu o'qituvchilar va o'quvchilar

hamkorligida bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, o‘quvchilarni aqliy imkoniyatlarini rivojlantirish maqsadida maxsus tashkil etilgan jarayondir. Demak, ta’limni asosini inson kasb-kori uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar tashkil qiladi. Tarbiya bolani butun hayoti davomida kechadigan, olingan bilim va tajribalari asosida xulq-atvor normalarini shakllanishi jarayonidir. Ma’lumot esa, ta’lim-tarbiya natijasida o‘zlashtirilgan va umumlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar hamda tarkib topgan ilmiy dunyoqarashlar majmuidir. Rivojlanish insondagi sifat va miqdor o‘zgarishi bo‘lib, uning ma’naviy, ijtimoiy, ruhiy, jismoniy, aqliy turlari mavjud.

Pedagogik fanlar tizimi

Pedagogika fanining obyektlari xilma-xil bo‘lganligi sababli, ushbu obyektlarni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi pedagogika fani sohalari pedagogik fanlar tizimini tashkil etadi. Pedagogika fanining rivojlanishi natijasida pedagogik fanlar tizimi shakllandi. Ularga quyidagilar kiradi: umumiy pedagogika, maxsus pedagogika, qiyosiy pedagogika, ijtimoiy pedagogika, yosh pedagogikasi, oila pedagogikasi, xalq pedagogikasi va boshqalar. Umumiy pedagogika – pedagogik borliqdagi pedagogik tizim ichida kechadigan ta’lim, tarbiya, rivojlanish jarayonlarini maqsadini, mazmunini, metod va vositalarini hamda shaklini o‘rganuvchi fandır. Umumiy pedagogika pedagogikaning umumiy asoslari, ta’lim nazariyasi, tarbiya nazariyasi, pedagogik menejment bo‘limlaridan iborat.

Ushbu bo‘limlarni pedagogikaning mustaqil sohasi nuqtayi nazaridan qarajak, unda pedagogikaning umumiy asoslari – umumpedagogik jarayondagi ta’lim, tarbiya, rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini;

Ta’lim nazariyasi – umumpedagogik jarayondagi ta’lim jarayonini mohiyatini, didaktik qonuniyatlarini, prinsiplarini, maqsadini, mazmunini, metod va vositalarini hamda tashkil etish shakllarini;

Tarbiya nazariyasi – umumpedagogik borliqdagi tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini, qonuniyat va prinsiplarini, metod va vositalarini; Pedagogik menejment esa pedagogik tizimni boshqarish qonuniyatlarini va prinsiplarini hamda boshqarish shakl va metodlarini o‘rganadi.

Maxsus pedagogika – aqliy, ruhiy, jismoniy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni o‘qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini,

prinsiplarini, maqsadini, mazmunini, metod va vositalarini hamda shaklini o'rganuvchi fandır.

Ijtimoiy pedagogika – jamiyatning tarbiyaga, tarbiyaning jamiyatga ta'siri natijasida shaxsni ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini, mexanizmlarini, prinsiplarini, mazmunini, metod va shakllarini o'rganuvchi fandır.

Qiyosiy pedagogika – turli mamlakatlarning ta'lim-tarbiya tizimini, maorif taraqqiyotini taqqoslashni o'rganuvchi pedagogikaning mustaqil sohasidir.

Xalq pedagogikasi – turli xalq, millat va elatlarning xalq og'zaki ijodidagi ta'lim-tarbiya to'g'risidagi pedagogik g'oyalarning mohiyatini, mazmunini o'rganuvchi pedagogikaning mustaqil sohasidir.

Pedagogika tarixi – turli tarixiy davrlardagi pedagogik g'oyalarni, ta'lim va tarbiya tizimi taraqqiyoti masalalarini pedagogika tarixi tadqiq qiladi. Oliy o'quv yurtlaridagi o'quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlarini oliy maktab pedagogikasi tadqiq qiladi.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodlari tavsifi.

Pedagogika fani rivojining hozirgi bosqichida alohida dolzarb metodologik masalalarni hal etish bilan chegaralanmasdan xususiy bilimlar tizimi sifatida pedagogika fani metodologiyasini aniq belgilab olish zarur. Bu birinchidan, pedagogik nazariyalarning ishonchliligini ta'minlasa, boshqa tomondan metodologik bilimlarsiz pedagogik tadqiqotlarni samarli tashkil etish va o'tkazish mumkin emasligini uqtiradi.

Ijodiy jarayonda bugungi kunda pedagogika fani metodologiyasiga, uning predmetiga nisbatan turlicha yondashuvlar vujudga kelmoqdaki, ularning mohiyatini qisqacha tushuntirishga harakat qilamiz.

Metodologiya alohida fan sifatida ikkita funksiyani bajaradi: deskriptiv (ifodalovchi) va perskriptiv (me'yorlovchi). Birinchisi – obyektning nazariy jihatdan ifodalashni ko'zlasa, keyingisi – tadqiqotchi uchun aniq mo'ljallanishga shart-sharoit yaratadi. Bu ikki vazifaning mavjudligi pedagogika metodologiyasini ham ikki guruhga ajratishni taqozo etadi – nazariy va me'yoriy.

Pedagogikaning nazariy metodologiyasiga quyidagilarni kiritish mumkin: «metodologiya» tushunchasi ta'rifi; fan metodologiyasining umumiy tavsifi, uning darajalari; metodologik bilimlar va faoliyat

tizim sifatida; pedagogika sohasidagi tadqiqiy faoliyatni metodologik ta'minlash manbalari; pedagogik tadqiqot obyekti va predmetining metodologik tahlili.

Me'yoriy asos quyidagi savollar doirasini qamrab oladi:

pedagogikani obyektiv borliqni ma'naviy jihatdan o'zgartirishning boshqa shaklidan farqli tomonlarini ilmiy asoslash;

pedagogika sohasidagi ishlarni fanning fundamental asoslariga muvofiqligini aniqlash;

maqsadning aniqligi; maxsus tadqiqot obyektini ajratish; maxsus bilish metodlari va vositalarini qo'llash; atamalarning bir xil qo'llanilishi;

pedagogik tadqiqotlarni tizimlashtirish;

tadqiqot asosnomasi: muammo, mavzu, uning dolzarbligi, tadqiqot obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari, farazi, himoya qilinadigan holatlar, ilmiy yangiligi, ilmiy-amaliy ahamiyati;

pedagogik tadqiqotning tarkibi va mantiqiy ketma-ketligi;

pedagogik fanlar tizimi, ularning o'zaro aloqasi.

Tadqiqot muammosi bo'yicha qabul qilingan direktiv va me'yoriy hujjatlar ham bevosita metodologiyaning me'yoriy asosini tashkil etadi.

Falsafiy nuqtai nazardan metodologiya nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish prinsiplari va usullari tizimi, shuningdek, bu tizim haqidagi ta'lim ot (nazariya) sifatida qabul qilinadi. Aniqrog'i, metodologiya predmeti – faoliyatni tashkil etish haqidagi nazariya demakdir.

Pedagogika metodologiyasi o'zida pedagogikaning nazariy asoslari va tuzilmasi haqidagi bilimlar tizimini, pedagogik hodisa va jarayonlarni tadqiq qilishga doir yondashuvlarini, pedagogik voqelikni haqqoniy ifoda etadigan axborotlarni olish usullarini, shuningdek, mazkur bilimlar tizimini qo'lga kiritishga doir faoliyat tizimini o'zida mujassamlashtiradi.

Ko'rinib turibdiki, bu ta'rifda ilmiy bilishning ikki jihati – bilimlar tizimi va ilmiy-tadqiqiy faoliyat qamrab olingan. Yoki ikki faoliyat turi – metodologik tadqiqot va metodologik ta'minot hisobga olinyapti. Agar birinchisining vazifasi pedagogika fanlari rivojining qonuniyatlari va yo'nalishlari, pedagogik tadqiqotlarning sifat va samaradorligini oshirish prinsiplari, ularning tushunchalari tarkibini aniqlashtirsa, ikkinchisi – metodologik bilimlardan tadqiqot dasturlarini asoslashda va sifatini baholashda foydalanishni anglatadi.

Shu bilan birgalikda pedagogik muammolarning umumnazariy muammolar bilan almashtirishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Chunki, birinchisi «qanday qilib metodologiyani pedagogikaga qo‘llash mumkin» degan savolni aniqlashtirsa, ikkinchisi – umumnazariy savollar esa pedagogikaning predmeti, uning boshqa fanlar bilan aloqasi, ta‘lim va tarbiya mohiyati kabi umumiy savollar yechimiga qaratiladi.

Pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish masalasi respublikamiz va jahon miqyosida tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Mazkur muammo ta‘lim mazmunini modernizatsiyalash, ta‘lim jarayonini tashkil qilish texnologiyalari va usullarini optimallashtirish bilan chambarchas bog‘langan. Ularning to‘laqonli hal etilishiga esa pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirishda yanada moslashuvchan va taraqqiyparvar yondashuvlarni keng joriy etish orqaligina erishish mumkin. O‘z navbatida pedagogika fani boshqa fanlar kabi yangi-yangi faktlar, yuqori natijalarga erishish imkonini beruvchi texnologiyalar asosida rivojlanib boradi. Buning uchun esa ilmiy asoslangan tadqiqot metodlariga tayanish talab etiladi. Ilmiy tadqiqot metodlari esa o‘z navbatida metodologiya tushunchasi bilan ataluvchi nazariy prinsiplar majmuasiga bog‘liq bo‘ladi.

Pedagogik metodologiya sohasida amalga oshirilgan ilmiy ishlar tahlili «metodologiya», shuningdek, «pedagogik metodologiya» tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko‘rsatadi. Pedagogika fanida metodologiya tushunchasining gnoseologik talqini ko‘proq ustuvorlik kasb etadi. Mazkur yondashuvga ko‘ra «metodologiya» tushunchasi, mazmunan «gnoseologiya» (bilish to‘g‘risidagi fan), «nazariy bilish» kabi tushunchalarga yaqin turadi. Ushbu yo‘nalish tarafdorlari masalaga bir tomonlama yondashib, metodologiyani faqat «bilish metodlari to‘g‘risidagi ta‘lim ot» yoki hodisalarni bilish jarayoni sifatida talqin qiladilar. Shu o‘rinda, ushbu tushunchaning «borliqni o‘zgartirish metodlari to‘g‘risidagi ta‘lim ot» ekanligini e‘tibordan chetda qoldiradilar va metodologiyani gnoseologik qolip bilan cheklab qo‘yadilar.

Pedagogika fani metodologiyasi – jamiyatning rivojlanishi sharoitida uzluksiz taraqqiy etib boruvchi pedagogik muhit holatini haqqoniy aks ettiruvchi, pedagogika nazariyasi hamda amaliyoti, ta‘lim olish hamda unga yondashuv mezonlari haqidagi bilimlar tizimi.

Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g'oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta'minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma'naviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o'rganish, mavjud ko'rsatkichlar vositasida ularning sodir bo'lish sabablarini o'rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul, ayni vaqtda samarali bo'lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, obykti va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasida pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarilarni aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomilashtirib borishini ta'minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchilik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir: muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi; ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi; vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi; tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan obyektiv yondashuv; tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga

olinganligi; tadqiqot natijalarini oldindan tashhislash va uning natijalarini aytib o‘tish; tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo‘nalishda, tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta’lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o‘rganish metodi.
9. Pedagogik tajriba metodi.
10. Matematik-statistik metod.

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo‘llash jarayonida, ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq to‘g‘risidagi ma’lumotga ega bo‘linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo‘lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta’lim -tarbiya sifatini oshirish, o‘quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo‘l qo‘ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- 1)kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- 2)kuzatishni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish;
- 3)kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- 4)har bir holatning mohiyatini sinchiklab o‘rganish;
- 5)xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo‘lingan ma’lumotlarni boyitish, mavjud holatga to‘g‘ri baho berish, muammoning echimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo echimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda indiviudal, guruhli hamda ommaviy shaklda o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to‘la-to‘kis

namoyon bilishga erishish muhimdir. Uning samarali bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmuni aniqlash hamda savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta'minlash;

2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;

3) suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma'lum to'xtamga kelish;

4) suhbatdosh to'g'risida avvaldan muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish;

5) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo'lish;

6) suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;

7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;

8) olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish.

Anketa metodi (fransuzcha – tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko'p hollarda, yozma ravishda olinadi. O'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo'ladi:

1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniqarli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

Anketa metodini qo'llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

1) anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;

2) anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo'lmasligi kerak;

3) anketa savollari o'quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;

4) anketa savollari respondentlar tomonidan to'la javoblar berilishini ta'minlovchi vaqtni kafolatlay olishi zarur;

5) anketa o'quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylantirib yuborilmasligi zarur;

6) anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta'minlaydi. Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta'lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarining ta'lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'rganish, bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi.

Ta'lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: O'quv mashg'ulotlarining jadvali, o'quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig'ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, ta'lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta'lim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar.

Mazkur metod muayyan yo'nalishlarda o'quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi, ilg'or pedagogik tajribalar mazmunini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o'z mohiyatiga ko'ra quyidagi savollardan iborat:

2) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo‘q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniqarli», «salbiy» va hokazo turdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

3) to‘g‘ri javob variantlari qayd etilgan savollar (respondentlar o‘z yondashuvlariga ko‘ra to‘g‘ri deb topgan javob variantini belgilaydilar).

Test metodini qo‘llashda aniqlanishi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e‘tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo‘yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejalishi bilan tavsiflanadi. Biroq, metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlardan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o‘z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyatiga ega emas.

Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo‘llashdan ko‘zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo‘nalishlarda o‘rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo‘lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g‘oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Bolalar ijodini o‘rganish metodi. Mazkur metod o‘quvchilarning muayyan yo‘nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma‘lum fan sohalari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi. Uni qo‘llashda o‘quvchilarning ijodiy ishlari – kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma‘lum o‘quvchiga xos bo‘lgan individual imkoniyatni ko‘ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bolalar ijodini o‘rganishning quyidagi shakllari mavjud:

- 1) bilimlar bellashuvi;
- 2) fan olimpiadalari;
- 3) turli mavzulardagi tanlovlar;
- 4) maktab ko‘rgazmalari;
- 5) festivallar;
- 6) musobaqalar.

Pedagogik tajriba (eksperiment – lotincha «sinab ko‘rish», «tajriba qilib ko‘rish») metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo echimini topish imkoniyatlarini o‘rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning

maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo echimini topishga yo'naltirilgan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho bera olishi zarur.

1.3. Shaxs kamoloti ijtimoiy-biologik hodisa, pedagogik jarayon obyekti va subyekti sifatida.

Shaxs tarbiyasi va rivojlanishi pedagogika fanining muhim muammosi hisoblanadi. O'sib va rivojlanib boruvchi inson tarbiya ob'yekti hisoblanadi. Insonning rivojlanishi butun hayoti davomida davom etadi. Bunda u turli o'zgarishlarni jismoniy, ruhiy, miqdor va sifat o'zgarishlarni o'z boshidan kechiradi. Insonda bo'ladigan jismoniy o'zgarishlarga – bo'yinning o'sishi, vaznining og'irlashib borishi, suyak va mushak tizimlarining ichki a'zolari va asab tizimining o'zgarib borishi kiradi. Ruhiy o'zgarishlari esa uning aqliy rivojiga aloqador bo'ladi va insonda ruhiy sifatlarning shakllanib borishi, unda hayot uchun zarur bo'lgan sotsial sifatlarni tarkib topishi hisoblanadi.

Odam bolasining rivojlanishi – bu muhim jarayon hisoblanadi. Shaxsning kamol topishida va uning xulqiga ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi hamisha bir xil bo'lavermaydi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri aniqlash va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar doirasida, turli vaziyatlarda kuzatib ko'rish lozim.

Pedagogikada "shaxs" tushunchasi "inson" tushunchasidan farqli o'laroq, u insonning ijtimoiy xususiyatlarini anglatadi. Yangi jamiyat boshqa odamlar bilan muomalada bo'lishi, munosabat o'rnatish natijasida shakllanib boradigan sifatlarni bildiradi. Inson ruhiy xususiyatlarini rivojlanishi (aql, iroda, diqqat, harakat va hokazo), hayotda o'z o'rnini topa olishi, uning Vatan, xalqningt ravnaqi yo'lida og'ishmay, e'tiqod bilan xizmat qilish, imonli bo'lishi, insonni shaxs darajasiga ko'taradi. Bunday sifatlarning ro'yobga chiqishi tarbiyaga bog'liq bo'ladi.

Bolaning kamolotiga, ruhiyatiga, fe'l-atvori va shakllanishiga qanday omillar ta'sir etadi? Bola tarbiyasiga, uning shakllanishiga,

biologik omil, ijtimoiy omil va tarbiya ta'sir etadi. Bu muammo pedagogikada azaldan munozaraga sabab bo'lib kelayotgan masala hisoblanadi. Bu masalani talqin qilishda bir-biriga qarama-qarshi ikkita nuqtai nazar vujudga keldi. Birinchi yo'nalish biologik yo'nalish hisoblanib, uning vakillari Aristotel, Platonlarning fikricha, taqdir-tole har kimning hayotdagi o'rnini, mavqeini avvaldan belgilab bergan degan fikrni himoya qiladi.

XVI asr falsafasida preformizm oqimi vujudga kelib, ularning fikricha, odam bolasi ona pushtidaligidayoq bo'lajak shaxsiga xos barcha xususiyatlarga ega bo'ladi, deyдилar. Preformistlar naslning shaxs rivojiga katta e'tibor qaratib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini mutlaqo inkor etadilar. Bioerfizizm oqimi XX asrda keng tarqalib, unda ong va aqliy qobiliyat nasliy ekanligi ta'kidlanadi. Bu g'oyani amerikalik olim E. Torandayk asos soladi, uni amerikalik pedagoglar D.D'yui va A. Komboslar yoqlab chiqadilar. Ammo psixologiya va pedagogika keyingi yillardagi inson tarbiyasiga, kamolotiga oid ilmiy ma'lumotlari insonning shaxs sifatida rivojlanishi, taraqqiy etishi, kamolga yetishi murakkab jarayon ekanligini ta'kidlab, uning shaxs bo'lib kamolga yetishishida nasl (biologik omil) bilan birgalikda ijtimoiy muhitning o'rnini alohida ekanligini ta'kidlaydilar. Shunga ko'ra, insonni shaxs sifatida shakllanishi uchun tabiiy kuch va imkoniyatlar mavjud. Biroq, bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak deb ta'kidlaydilar.

O'rta Osiyo mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab, "munosib inson" bo'lish uchun odamda ikki imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi. Tarbiya esa, kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni amaliy faoliyatini yaratishga olib boradigan yo'ldir. Shunday ekan, inson kamolotiga ta'sir etadigan omillarning birortasini ham inkor etmagan holda ularni alohida-alohida ko'rib chiqaylik.

2. Bola shaxsining rivojlanishiga irsiyat, muhit va tarbiya kabi omillar ta'sir etadi. Bola shaxsining rivojlanishiga naslning ta'siri deganda, ota-onalarga o'xshashlikni ifodalovchi biologik belgilarning takrorlanishini tushunmoq kerak. Har bir bola ota-onasidan meros shaklida ba'zi biologik sifatlarga (tananing tuzilishi, sochining, ko'zining, terisining rangi, bo'yi-basti va boshqalar) ega bo'lgan holda

dunyoga keladi. Bular jismoniy xususiyatlardir. Oliy nerv faoliyatining xususiyatlari ham tug'ma o'tadi. Bu fiziologik xususiyatdir.

Bola nutqini egallash uchun nutq sharoitida mehnat qilish uchun mehnat sharoitida, aqliy taraqqiy etmoq uchun aqliy faoliyat sharoitida yashamog'i kerak. Ana o'shanda bolaning nimaga, qanday sohaga layoqati borligi namoyon bo'ladi. Fiziologiya va psixologiya fanining kusatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror xil qobiliyatning ro'yobga chiqishi va rivojlanishiga ta'sir etadigan potensial imkoniyatlar, ya'ni shaxs xususiyatini ifodalaydigan layoqat bilan tug'iladi.

Tug'ma layoqat o'z holicha rivojlana olmaydi, go'yo u "mudroq" holatda bo'lib, uning uyg'onishi – rivojlanishi qulay muhit kerak. Agar bola o'z layoqatiga mos sharoitda o'sib, zarur faoliyat bilan shug'ullansa, layoqat erta ko'rinib rivojlanishi, aks holda yo'q bo'lib ketishi mumkin. Shuning uchun pedagogik layoqatning namoyon bo'lishi va qobiliyat sifatida rivojlanishi to'la-to'kis hayot sharoitiga va tarbiyaga bog'liq.

3. Inson kamolotiga ta'sir etadigan omillardan biri tashqi muhitdir. Muhit deganda kishiga tabiiy ta'sir etadigan tashqi voqealar majmui tushuniladi. Bunga tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti kiradi.

Tabiiy muhit bu insonni hayot tarziga va mehnat faoliyatiga ta'sir etadi (masalan, tropik muhit - uzoq shimol).

Oila muhiti. Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bekorga aytilmagan. Oilaning hayot tarzi undagi bola tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadigan tarbiyaviy muhit uning kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bola kamolotida **ijtimoiy muhit** ham muhimdir. Chunki ishlab chiqarish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun-qoidalar kishiga alohida ta'sir qiladi... Inson kamolotiga ijtimoiy muhitning ta'siri turli tarixiy davrda turlicha bo'ladi, turli sotsial guruhlarga turlicha ta'sir etadi. Shuning uchun muhit inson taqdirini belgilab beradigan omil deb hisoblanmaydi. Ammo uning ta'siri ham rad etilmaydi.

4. Inson kamolotiga ta'sir etuvchi omillardan biri tarbiyadir. Tarbiyaning xususiyati shundaki, u aniq maqsadni ko'zlab, insonda ijobiy fazilatlarni tarkib toptirish yo'lida tarbiyachi raxhbarligida muntazam amalga oshiriladi. Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va uning

natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi. Bola layoqatini rivojlantirish va

qobiliyatga aylantirish va hayotga mos holda o'stirish uchun mehnatsevarlik va ishchanlik kerak. Mehnatsevarlik va ishchanlik esa maxsus uyushtirilgan tarbiya orqali amalga oshiriladi. Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiiklarni o'zgartirib, shaxsni kamolga yetkazish mumkin (ko'rlar, karlar, gunglar). Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'siri ham yo'qotiladi. To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Shu tufayli u shaxsning kamolga yetishini tezlashtiruvchi rol o'ynaydi.

Xulosa, inson faqat faoliyatda rivojlanadi. Bola yoshligidan boshlab kattalar yordamida tashqi muhit bilan turli xil aloqada bo'ladi va bu aloqada faoliyat amalga oshiriladi. Bularning barchasi rivojlanish uchun manba hisoblanadi.

Umuman, pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy va irodaviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, inson taraqqiyotining ilmiy konsepsiyasi inson kamolotiga ta'sir etadigan omillarni tahlil etib, inson kamoloti va uning shaxsini shakllantirish yagona va bir butun jarayon ekanligini ta'kidlaydi. Bu jarayonda insonning faolligiga katta o'rin beriladi. U faolligi bilan o'z shaxsini shakllantiradi. Tarbiyachi tomonidan qo'yilgan maqsad aniq bo'lsa va bu maqsadga erishish uchun astoydil harakat qilinsa, kutilgan natijaga erishiladi.

1.4. Yaxlit pedagogik jarayonning mohiyati. Pedagogik jarayon yaxlit hodisa sifatida.

Pedagogik jarayon – bu shaxsni o'z-o'zini namoyon qilishi va to'liq rivojlanishini, subyektlarning ijodkorligi va hamkorligini hamda birgalikdagi faoliyatlarini, ta'lim va tarbiyani birligi va aloqadorligini xarakterlovchi yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayon. Demak, pedagogik jarayon pedagogik tizim sharoitida ta'lim va tarbiya maqsadlarini o'zaro aloqadorlikda amalga oshirishga qaratilgan yaxlit jarayon hisoblanib, uning mohiyati jarayon ishtirokchilarini rivojlanishiga ta'sir etuvchi tashqi omillarni tanlash va tarbiyaviy munosabatlarni tashkil etish bilan xarakterlanadi.

An'anaviy pedagogik ta'limotda ta'lim-tarbiya birligi, ya'ni yaxlit pedagogik jarayon g'oyasi XIX asr boshlarida paydo bo'ldi. Nemis olimi I.F.Gerbart pedagogika nazariyasini tarbiyalovchi ta'lim tushunchasi bilan boyitdi. Rus pedagoglari K.D. Ushinskiy, P.F. Kapterev, A.P. Pinkevich, P.P. Blonskiylar tomonidan yaxlit pedagogik jarayon nazariyasi ishlab chiqildi. Biroq sobiq ittifoq davrida yosh avlod tarbiyasi davlat siyosati mafkurasi ruhida tarbiyalash, ta'lim va tarbiya masalalari nazariya va amaliyotda ajralib qoldi. XX asrning o'rtalarida sobiq sho'ro pedagogikasida yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiya aloqadorligi, pedagogik tajribalarda ta'lim va tarbiya birligi ikki aloqador jarayon sifatida namoyon bo'ldi.

Pedagogik jarayon yaxlitligi deganda, biz pedagogik jarayonni tashqi muhit hodisalari bilan aloqadorligini, pedagogik jarayonning barcha o'zaro aloqador subyektlari o'rtasidagi hosil bo'ladigan yaxlit jarayonni tushunamiz. Sobiq ittifoq davrida yaxlit pedagogik jarayon nazariyasining rivojlanishi V.A.Slasyonin ilmiy maktabi bilan bog'liq. Yaxlit pedagogik jarayon- pedagogik jarayon rivojlanishining oliy darajasi bo'lib, uning barcha komponentlarining aloqadorligini va birligini ifodalaydi. Yaxlitlik pedagogik jarayonning sintetik xarakteristikasi hisoblanib, ta'lim va tarbiyaning ajralmasligida namoyon bo'ldi.

Yaxlit pedagogik jarayonning tuzilmaviy komponentlariga: maqsad, mazmun, shakllar, pedagog faoliyati, metod va vositalar hamda o'quvchilar faoliyati, birgalikdagi faoliyat natijasi kiradi. Pedagog faoliyati – mutaxassisning maxsus tayyorlangan faoliyati bo'lib, tarbiyachining kasbiy onggi va ijtimoiy buyurtmadan kelib chiqadigan maqsad va vazifalardan aniqlanadi. Shuning uchun o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metod va vositalar maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Tarbiyalanuvchilar yoki bolalar jamoasi faoliyati ham anglangan va anglanmagan maqsad va motivga ko'ra aniqlanadi. Bu yerda jamoaning har bir a'zosining shaxsiy maqsadi jamoa yoki o'qituvchining maqsadi bilan har doim ham mos kelavermaydi.

Yaxlit pedagogik jarayon quyidagi funksiyalarni bajaradi: Yaxlit pedagogik jarayonning tarbiyaviy funksiyasi o'quv tarbiyaviy jarayonda qo'llaniladigan o'quv reja va dasturlarda, metod va vositalarda, tarbiyachilar shaxsi va kasbiy mahoratida umuman tarbiya makonida namoyon bo'ladi. Yaxlit pedagogik jarayonining ta'limiy

funksiyasi asosan ta'lim jarayonida, barcha sinfdan tashqari ishlardagi ijodiy faoliyat va munosabat tajribasi, bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi sifatida umuminsoniy madaniyat elementlarini o'zlashtirilishi bilan xarakterlanadi.

Yaxlit pedagogik jarayonining rivojlantiruvchi funksiyasi har qanday o'quv tarbiyaviy jarayonni tashkil etilishida amalga oshiriladi, ammo rivojlanish tezligi bilim, ko'nikma, malakalarga yoki o'quvchilarni bilish yoki motivni shakllantirish sohalariga e'tibor qaratilganligiga bog'liq. Pedagogik jarayonning ijtimoiylashtirish funksiyasi barcha ta'lim muassasalarida namoyon bo'ladi. Har qanday ta'lim muassasasida tarbiyalanuvchi o'zi uchun yangi munosabatlarga kirishadi.

Pedagogik jarayonning umumiy qonuniyatlariga quyidagilar kiradi. 1. Pedagogik jarayonni dinamikligi qonuniyati. Pedagogik jarayon o'zgaruvchan xarakterda bo'lib, jarayonning boshlanishidan yakuniy bosqichgacha pedagog va tarbiyalanuvchilarning o'zaro hamkorliklarida ham bu hol sezilib turadi.

2. Pedagogik jarayonda shaxsni rivojlanishi qonuniyati. Shaxs rivojlanishi tempi va erishilganlik darajasi irsiyatga, tarbiyaviy va o'quv muhitiga, o'quvtarbiyaviy faoliyatga kirishuviga, pedagogik ta'sir ko'rsatishning metod va vositalariga bog'liq.

3. O'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish qonuniyati. Pedagogik ta'sir samaradorligi pedagog va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi teskari aloqalarning tezligiga hamda tarbiyalanuvchilarga ta'sir etishning asoslanganligiga va xarakteriga bog'liq.

4. Pedagogik jarayonda stimullashtirish qonuniyati. Pedagogik jarayon mahsuldorligi o'quv-tarbiyaviy faoliyatning ichki stimullar va motivlariga hamda tashqi (ijtimoiy, pedagogik, axloqiy, moddiy) stimullarning tezligi va xarakteriga bog'liq.

5. Pedagogik jarayonda amaliyot, mantiq va hissiyot birligi qonuniyati. Pedagogik jarayon samaradorligi hissiy bilish tezligi va sifatiga, mantiqiy fikrlar va o'zlashtirilgan materialni amaliyotda qo'llanilishiga bog'liq.

6. Tashqi (pedagogik) va ichki(bilish) faoliyat birligi qonuniyati. Pedagogik jarayon samaradorligi pedagogik faoliyat va tarbiyalanuvchilarning shaxsiy o'quvtarbiyaviy faoliyati sifatiga bog'liq.

7. Pedagogik jarayonning bog‘liqligi qonuniyati. Pedagogik jarayonni borishi va natijasi jamiyat va shaxs ehtiyojlariga, jamiyatning (moddiy-texnik, iqtisodiy) imkoniyatlariga, jarayonning (axloqiy-psixologik, sanitar-gigiyenik, estetik) shart sharoitlariga bog‘liq.



Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Pedagogika fani nimani o‘rganadi?
2. Pedagogika fanining obyekti va predmetini izohlang.
3. Pedagogika fanining asosiy vazifalariga izoh bering.
4. Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi?
5. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligini asoslang.
6. Pedagogik fanlar tizimini shartli ravishda asosiy, yordamchi va mustaqil fan sohasi yo‘nalishlariga turkumlang.
7. Pedagogika fani metodologiyasi tushunchasiga izoh bering.
8. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari haqida gapirib bering.
9. Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasiga izoh bering?
10. Yaxlit pedagogik jarayon tuzilishini asoslang?
11. Pedagogik jarayon qonuniyatlari va prinsiplari mazmun mohiyatini yoriting?

II MAVZU. DIDAKTIKA TA'LIM NAZARIYASI SIFATIDA

√ **Tayanch tushunchalar:** didaktika, o'qitish, o'qitish jarayoni, didaktikaning asosiy kategoriyalari, ta'lim paradigmalari, ta'lim qonuniyatlari, ta'lim mazmuni, kompetentsiya, Davlat ta'lim standarti, o'quv reja, o'quv dasturi.

2.1. Ta'lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Didaktikaning maqsad va vazifalari.

Didaktika pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida pedagogika nazariyasining nisbatan mustaqil qismi bo'lib, unda o'qitish jarayonining umumiy qonuniyatlari ochib beriladi. Didaktikaning so'zma-so'z tarjimai «ta'lim nazariyasi» ma'nosini anglatadi. Didaktika «yunoncha» so'zdan olingan bo'lib, «didacticos» – o'rgatish, o'qitish ma'nosini bildiradi.

Didaktika – ta'lim jarayoni, mazmuni, qonuniyat va tamoyillari, shakl, metod va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi ta'lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasi.

Bu atamani nemis pedagogi V.Ratke (1571-1635) fanga kiritgan, deb hisoblanadi. Didaktika nomi ostida fanni nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiladigan ilmiy fanni tushundi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Ya.A.Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. 1657-yilda u chex tilida «Buyuk didaktika» asarini yozdi. Didaktikani Komenskiy «hammani hamma narsaga o'rgatish san'ati» deb tushuntirdi.

«**Didaktika**» atamasi ilk bor nemis pedagogi Wolfgang Ratkening «Didaktika yoki ta'lim san'ati» (1613-yil) deb nomlangan ma'ruzasida qo'llanilgan.

Didaktika ilmiy bilimlar tizimi sifatida birinchi marta chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning «Buyuk didaktika» (1657-yil) asarida ochib berilgan.

Didaktikada ta'limnitashkil etishning umumiy masalalari, o'qitish jarayonining mohiyati, ta'limning mazmuni, o'qitish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari, uning tashkiliy shakllari yoritiladi.

Didaktika “nimaga o'qitish?”, “nimani o'qitish?” “qanday o'qitish?” “qayerda o'qitish” kabi savollarga javob izlaydi.

Didaktikaning obyekti – o‘sib kelayotgan avlodga ijtimoiy tajribalarni, milliy va umuminsoniy madaniyatni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyatning asosiy turi hisoblangan ta‘lim berishdir.

Didaktikaning predmeti sifatida o‘rgatish (o‘qituvchi faoliyati) va o‘rganish (o‘quvchilarning bilish faoliyati), ularning o‘zaro harakati aks etadi.

O‘qitish jarayoni pedagogning o‘rgatuvchilik faoliyatini va o‘quvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o‘z ichiga oladi. Shu o‘rinda bu jarayonlarning tahliliga e‘tibor qarataylik. Ta‘limda o‘qituvchining boshqaruvchilik roli o‘z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo‘lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo‘yadi.

Bularning barchasi o‘qituvchining ta‘limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishida o‘z aksini topmog‘i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta‘lim jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilariga qo‘lga kiritilgan bilimlarni o‘rgatadi. O‘quv faoliyatida ularni ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u o‘quvchilarda dunyoqarash va axloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O‘qituvchining faoliyati o‘quvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aytsak, butun o‘quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda o‘quvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. O‘quvchilarga qiyinchiliklarni yengib o‘tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta‘lim jarayonini tashxis qiladi. O‘z navbatida o‘quvchilarning faoliyati o‘quv jarayonida o‘rganishga, bilim, ko‘nikma hamda malakalarni egallashga, o‘zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo‘naltiradi. Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning faoliyati ko‘p qirrali yo‘nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Didaktika va metodika mustahkam aloqa va o‘zaro bog‘liqlikda joylashadi. Didaktika o‘qitishning umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Aniq bir predmetni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari. Muayyan fanga xos bo'lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to'plangan bilimlar aks etadi.

Didaktikaning **asosiy kategoriyalari** quyidagilardan iborat: *o'rgatish, o'rganish, o'qitish, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, maqsad, mazmun, tashkil etish, shakl, metod, vosita, natija.*

O'rgatish – o'qitish maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyati.

O'rganish – anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o'zgaradi.

O'qitish – qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilarning tartiblangan o'zaro harakati.

Ta'lim – o'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, kompetensiya va fikrlash usullari tizimi.

Bilim – ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi;

Ko'nikma – egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallash.

Malaka – avtomatlashgan, biror bir usul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi.

Kompetensiya – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish layoqati.

Maqsad – o'qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi.

Mazmun – o'qitish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi.

Tashkil etish – qo'yilgan maqsadni samarali amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon.

Shakl – o'quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig'i, mazmuni uchun qobiq.

Metod – o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li.

Vosita – o'quv jarayonining predmetli qo'llab-quvvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan obyekt.

Natija – o‘quv jarayonining so‘nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

Zamonaviy ta‘lim paradigmalari. Paradigma (grekcha, paradeigma) so‘zining o‘zi keng ma‘noda turmush va fikrlashning biror sohasining fundamental asoslarini aniqlab beruvchi o‘ziga xos tuzilishga ega nazariya deb izohlanadi.

Paradigma – aniq vaqt doirasida ilmiy jamoatchilikka muammolarni aniqlash va ularni hal etish modeli sifatida taqdim etiladigan barcha ilmiy yutuqlarga tegishli tadqiqot vazifalarini hal etish namunasi sifatida qabul qilingan nazariya.

Ta‘limning yangi paradigmasining paydo bo‘lishi faqat ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lmasdan, u butun madaniy rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan. Uning shakllanishida insonparvarlik falsafasi va psixologiyasi asosiy o‘rin egallaydi. Mazkur konsepsiyaning asosiy nuqtai nazari – har bir alohida inson hayotining o‘ziga xosligi, har bir shaxs noyob, individual, shartsiz qadriyat ekanligini e‘tirof etish. Insonparvar falsafa va psixologiya o‘z-o‘zini realizatsiyalash, o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojini insonning yuksak ehtiyoji deya e‘tirof etib, insonning o‘z noyobligini asrash va rivojlantirish, insonning erkinlikka erishish mexanizmi sifatida individual shaxsiy tanlovni amalga oshirishni o‘zida namoyon etish, qilingan tanlov uchun javobgarlikni bo‘yniga olishda ularni amalga oshirishning muhim shartini ko‘radi. Shuning uchun shaxsning rivojlanishi va insonning shakllanishi boshqalar bilan hamjihatlikda, ishonch, oshkoralik, sevgiga asoslangan insonparvar munosabatlarni o‘rnatish jarayonida sodir bo‘ladi.

Asosida ta‘limga yangicha yondashuv yotadigan g‘oyalarning rivojlanishida psixologlar ham muhim hissa qo‘shishgan: yaqin zonadan rivojlanish va inson rivojlanishida birgalikdagi faoliyatni roli haqidagi ta‘lim ot, shaxsning hayotiy faoliyatdagi vazifalari, fikriy soha, insonning reflektiv imkoniyatlarining rivojlanishi, o‘quv faoliyati jarayonida uning psixik rivojlanish qonuniyatlari haqidagi tadqiqotlar, shular jumlasidandir.

Zamonaviy pedagogik fanlardagi maqsadiga (ta‘limiy, tarbiyaviy), ta‘limning bosh maqsadi – madaniyatga yondashuvga, o‘quv-tarbiya jarayoni doirasida hal etiladigan vazifalariga, pedagog va talabalar orasidagi o‘zarota‘ siretish tavsifiga ko‘ra paradigmalar farqlanadi.

Ta'limning keng tarqalgan **beshta paradigmasi** mavjud: an'anaviy (bilimga yo'naltirilgan paradigma); fenomenologik (insonparvarlik paradigmasi); ratsionalistik (bixevioristik, xulq-atvorga doir); texnokratik; ezoterik.

An'anaviy (bilimga yo'naltirilgan) paradigma. Bilimga yo'naltirilgan paradigmadagi ta'limning bosh maqsadi: «Istalgan qiymatdagi bilim, bilim va yana bilimdir». Shuning uchun ta'lim muassasasining roli insoniyat sivilizatsiyasi madaniy merosining ko'proq mavjud unsurlari – ham individual, xuddi shunday ijtimoiy tartibni saqlab qoluvchi, individual rivojlanishga imkon beradigan zaruriy, xilma-xil, muhim bilim, ko'nikma va malakalar, bundan tashqari ideal va qadriyatlarni uzatish va saqlashda namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'quv dasturlari mazmuni tayanch, asosiy, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash vaqtida sinovdan o'tuvchi, shaxsning funksional savodxonligi va ijtimoiyligini ta'minlashga asoslanadi.

Bixevioristik (ratsionalistik) paradigma. Ratsionalistik paradigma an'anaviy paradigмага qarama-qarshi o'laroq, o'zining diqqat markazida mazmuni emas, o'quvchilarning turli turdagi bilimlarni o'zlashtirishining samarali usullarini qo'yadi. Ratsionalistik ta'lim paradigmasi asosida ijtimoiy injeneriya bixevioristik konsepsiyasi turadi. Ta'lim muassasasining maqsadi – ta'lim oluvchilarda ijtimoiy me'yorlar, milliy madaniyat talablari va natijalariga muvofiq, moslashuvli «xulq-atvor majmui»ni shakllantiradi. Suning uchun «xulq-atvor» atamasi “barcha turdagi reaksiyalar, insoniy xususiyatlar – uning fikrlashi, his-tuyg'usi va harakati»ni bildiradi.

Mazkur paradigma ta'lim muassasasiga ta'lim oluvchilarning maqbul xulq-atvorini shakllantirish maqsadida bilimlarni o'zlashtirish yo'li sifatida qaraydi, ya'ni har qanday ta'lim muassasasi – bu yashash muhitiga moslashtirishning ta'limiy mexanizmi. Bunday o'qitishning asosiy metodlariga o'rgatish, trening, test nazorati, individual o'qitish, korrektsiyalash kiradi.

Insonparvarlik (fenomenologik) paradigmasining diqqat markazida o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojiga ega bo'lgan, hayot sub'ekti, shaxs erkinligi va ma'naviyati sifatidagi ta'lim oluvchi turadi. U bolaning ichki dunyosini rivojlantirish, shaxslararo muloqot, ijod, dialog, shaxs o'sishi uchun yordamga yo'naltirilgan. Insonparvarlik paradigmasi vakillari yagona qarash bilan ajralib turmaydi. Uning

doirasida ta'limning xilma-xil modeli amalga oshadi. Ularni bola va inson hayotining tengsiz davri sifatida bolalikka qadriyatli munosabat, ya'ni ta'lim muassasasining bosh vazifasi bolani rivojlantirish (aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik) ekanligini e'tirof etish yagona yo'nalishda birlashtiriladi. Insonparvarlik paradigmasi doirasida harakatlanuvchi har bir ta'lim tizimi ijodiy izlanishga asoslanib, ta'lim va tarbiyaning sof mazmuni, metod va vositalaridan joy oladi. Insonparvarlik paradigmasi ham o'qituvchi, ham o'quvchilarning erkinligi va ijodkorligini talab etadi.

Pedagogik faoliyatning insonparvarlik tamoyiliga asoslanuvchi paradigmasi quyidagi mezonlarga tayanadi:

- ta'limning ijtimoiylashuvi – o'qituvchilarn tayyorlash jarayoniga nisbatan texnokratik yondashuvdan voz kechish, ular tomonidan nisbatan o'zlashtiriladigan bilimlar majmuasining pedagogik hamda psixologik xususiyat kasb etishini ta'minlash, o'qituvchilarda umuminsoniy, umummadaniy qadriyatlar mazmunida ilgari surilgan g'oyalarga asoslangan ijtimoiy tafakkurni shakllantirish;

- milliy hamda jahon madaniyati asoslari va ularning mohiyatidan xabardor bo'lish;

- ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda milliy istiqlol g'oyalariga asoslanish;

- shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish hamda mustaqil ta'lim olishga bo'lgan layoqatiga tayanish va uni takomillashtirish;

- o'qituvchilarning kasbiy jihatdan shakllantirish jarayonida o'qituvchi hamda talabalarning o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlariga erishish;

- ta'lim (xususan, kasbiy ta'lim i) jarayonida o'quv dasturlarining talabalar qobiliyati hamda qiziqishlariga ko'ra tanlab olinishi borasidagi imkoniyatning mavjudligi;

- pedagogik ta'limning fundamental xususiyat kasb etishi, ya'ni, talabalar tomonidan o'zgaruvchan sharoitlarda shaxs ijodiy rivoji asosini ta'minlovchi invariant bilimlarning o'zlashtirilishiga erishish;

- mehnat bozori hamda ijtimoiy jarayonlarda yuzaga keluvchi hamda doimiy ravishda o'zgarib turuvchi ehtiyojlarga to'laqonli javob bera oladigan ta'limni shakllantirish shu asosda kasbiy moslashuvchan mutaxassislarni tarbiyalash;

- ta'limning uzluksizligi, ta'limning har bir jarayon bosqichining natijalanishini ta'minlovchi kasbiy ta'lim (kadrlar malakasini oshirish

hamda ularni qayta tayyorlash) dasturlarining tizimining yaratish va rivojlantirish, muayyan dasturni ta'limning u yoki bu bosqichida o'qitilishi yoki o'qishni boshqa tipdagi o'quv muassasida davom ettira olish imkoniyatini bera olishi;

– ta'limning ekvivalentligi, ya'ni uning davlat ta'lim standarti, milliy madaniyati va mentalitet, shuningdek, xalqaro me'yorlarga muvofiq darajasi.

Ilmiy-texnik, texnokratik paradigmaning bosh maqsadi amaliy takomillashtirish uchun zarur «aniq» ilmiy bilimlarni uzatish va o'zlashtirishdan kelib chiqadi. «Bilim – kuch», shuning uchun inson qadr-qimmatini uning bilish imkoniyatlari aniqlab beradi. Inson o'zini o'zicha emas, faqat aniq belgilangan etalon (o'rtacha namuna, standartlashgan)dagi bilish yoki xulq-atvor sohibi sifatidagina baholaydi. Texnokratik paradigma sharoitida o'quv-tarbiya jarayonining istalgan natijasi «ha – yo'q», «biladi – bilmaydi», «tarbiyali – tarbiyasiz», «egallagan – egallamagan» tizimida baholanishi mumkin. Bu yerda tayyorgarlik, ma'lumotlilik, tarbiyalanganlik darajasi tekshirib aniqlanadigan qandaydir etalon, ideal mavjud bo'ladi.

Ezoterik paradigma. Bu bizning sayyoramizdagi eng qadimiy ta'limiy paradigmalardan biri. Mazkur so'zning yunonchadan so'zma-so'z tarjimasi «sirli», «yashirin» ma'nolarini bildiradi. Uning mohiyatini abadiy va o'zgarmas Haqiqatga munosabat tashkil etadi. Ushbu paradigma tarafdorlarining fikricha, haqiqatni shunchaki bilish mumkin emas, unga vijdon pokligi orqali erishish mumkin. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi o'quvchining tabiiy kuch va imkoniyatlarini yuqori darajadagi ongga ega bo'lish, Kosmos bilan muloqot uchun sarf etish va rivojlantirishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchining muhim muhofaza qiluvchi funksiyasi ta'lim oluvchilarning axloqiy, jismoniy, psixik tayyorgarligini amalga oshirish va mavjud kuchlarini rivojlantirishdir.

O'qitish jarayoni mohiyati va uning vazifalari. O'qitish – o'qituvchi va o'quvchilarning maqsadga qaratilgan birgalikdagi faoliyati jarayoni bo'lib, bu jarayonda o'quvchilarni rivojlantirishni amalga oshiradigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar yuzaga chiqadi.

O'qitish (didaktik) jarayonining mohiyatini quyidagi formula yordamida to'liq anglash mumkin: $DJ = M + A_{o'f} + A_{o'fb}$

Bu yerda:

DJ – didaktik jarayon.

M – motivatsiya.

A_{o'f} – o'quvchilarning o'zlashtirish faoliyati algoritmi.

A_{o'fb} – o'quvchilarning billish faoliyatini boshqarish.

O'qitish jarayoni uchta vazifani bajaradi: ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi.

O'qitish jarayonining **ta'limiy vazifasi** o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni shakllantirishdan iborat. O'qitish natijasi sifatida bilimlarining to'liqligi, chuqurligi, tizimliliigi, anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyat kasb etishi muhimdir. Bu kabi holatlar ta'lim jarayonining metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilganligini ifodalaydi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarda ular tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko'nikma va malakalar hamda kompetensiyaning shakllanishi ham alohida ahamiyatga ega.

O'qitishning **tarbiyaviy vazifasi** ta'lim jarayonida shaxsning ma'naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantirilishida o'z ifodasini topadi. Ta'limning tarbiyaviy xususiyati, eng avvalo, ta'lim mazmunida aks etadi. O'qitish jarayonida tarbiyaning ikkinchi omili o'qituvchi va o'quvchilarning munosabatlari, sinfdagi psixologik muhit, o'qitish jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari, o'quvchilarning idrok etish faoliyatlariga o'qituvchining rahbarligi hisoblanadi.

O'qitishning **rivojlantiruvchi vazifasi** o'quvchi nutqining, fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emotsional-irodaviy, intellectual sohasini rivojlantirishda o'z aksini topadi. O'qitish jarayonida o'quvchini aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, tasniflash, kuzatish, xulosa chiqarish, obyektlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni bilishga o'rgatish, uning natijalarini tekshirishni malakasini rivojlantirishga erishiladi.

O'qitish jarayonining bosqichlari. O'qitish o'qituvchi rahbarligida o'quvchining o'quv materiallarini rejali ravishda bilib olish jarayonidir. Bu jarayonni bilish bosqichidan iborat bo'lgan tarkibiy qismlarga (yoki komponentarga) ajratish mumkin. O'quvchi bilmaslikdan bilish, uddasidan chiqa olmaslikdan uddulay olish, malakalar hosil qilish yo'lidan borib, ushbu bosqichlardan o'tishi kerak.

O'qitish jarayoni 4 ta asosiy bosqichdan iborat:

- 1) o'zlashtirilishi lozim bo'lgan materialni idrok etish;
- 2) uni fahmlab olish, tushunchalarning hosil bo'lishi;
- 3) bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi;
- 4) hosil qilingan ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash (kompetentsiyalarni tarkib toptirish).

Har bir bosqich uchun o'quvchilarning muayyan xarakterdagi bilish faoliyati xarakterlidir. Bu faoliyat o'qituvchi tomonidan alohida rahbarlikni talab etadi.

O'rganilayotgan materialni idrok qilish. O'quvchilarning o'rganilayotgan (yoki o'rganilishi lozim bo'lgan) materialni idrok qilishini tashkil etar ekan, o'qituvchi ularning hayotiy tajribasi va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda material to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilib, oldindan uni butunligicha tushuntiradi va ko'rsatadi.

O'rganilayotgan materialni fahmlab olish. O'rganilayotgan obyekt haqidagi umumiy tasavvur asosida uni tushunishni ta'minlovchi, asta-sekin chuqurlashib boruvchi anglash jarayoni davom etadi. O'qitishning bu zvenosining maqsadi ilmiy tushunchalarni tarkib toptirishdir.

Bilimlarni mustahkamlanishi, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi. O'quv materialini idrok etish va faqqlab olish jarayonida o'zlashtirish keyinchalik uni mustahkamlash va takomillashtirishni talab etadi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llay olish (kompetentsiyalarni shakllantirish). Bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash jarayoni ta'limning yakuniy mustaqilligini asta-sekin va izchillik bilan oshirib borish.

O'qitish va o'qish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi. Inson faoliyatining hamma asosiy turlari (mehnat, fan, san'at, o'yin, sport) uning tevarak-atrof olamni va o'z-o'zini bilish bilan bog'langan. O'qish tevarak-atrofdagi olamni bilishning maxsus tashkil etilgan va o'qituvchi rahbarlik qiladigan alohida turidir. Bu jarayonning mohiyati – bilim, ko'nikma malaka va kompetentsiyalarni hosil qilish, o'quv fanlari mazmunini o'zlashtirib olish va bilish kuchlarini rivojlantirishdir.

O'rgatuvchilik faoliyati yoki o'qitish, o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarishdan iborat bo'ladi va ularni mashg'ulotlar uchun uyushtirishda, ularning diqqati, tafakkuri, hatti-harakati va hokozolariga rahbarlik qilishda, ular oldiga ularning faoliyatini tobora murakkablashtirilgan vazifalarni izchillik bilan qo'yib borishda, ularni tekshirib borish kabilarda o'z ifodasini topadi.

O'quv faoliyati yoki o'qish bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishning murakkab jarayoni bo'lib, o'quvchilarning intellektual, irodaviy va jismoniy kuch-g'ayratini talab etadi hamda ularning rivojlanishini rag'batlantiradi. O'qituvchining oqilona biror maqsadga qaratilgan rahbarligi va o'quvchilarning esa faol ongli ishtirokisiz, ta'lim jarayonida ijobiy natijalar bo'lishi mumkin emas. Ta'lim jarayonining bu ikki tomoni (o'qitish va o'qish) bir maqsad: ta'limning xilma-xil vositalari va metodlaridan foydalangan holda o'quv materialni egallab olish maqsadi bilan birlashgandir.

O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi. Ma'lumki, bilish faoliyatining sub'yekti o'quvchi sanaladi. Shu bois ijtimoiy-pedagogik asoslarga ega ta'lim markazida uning shaxsi, ongi, ham o'rganilayotgan olamga, ham bilish faoliyatidagi hamkorlariga: o'quvchilar va uning ta'lim olishini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi o'qituvchilar munosabati yotadi. Bu masala barcha davrlarda birdek ahamiyat kasb etib kelgan.

Ta'lim da o'quvchilarning faoliyati haqida gap borganda o'quvchining bilish faolligi tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchining bilish faolligi uning bilish jarayonidagi intellektual mulohazasida, umumiy va alohida topshiriqlarni bajarishida namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar o'quvchilarning faqatgina yuqori darajadagi bilim olishini kafolatlab qolmay, balki uning hayotiy faoliyati, ya'ni o'quvchi shaxsining shakllanishi, uning amaliyotga, hayotga bo'lgan faol munosabati uchun harakterlidir. Shu sababli bilish faolligini oshirish insonning faol hayotiy qarashlarini shakllantirish deb bema'lol aytish mumkin.

O'quvchining bilish faoliyatining yana bir farqli xususiyati uning kechish xarakteridir. O'quvchining bilish faoliyati maqsadi ham, mazmuni ham, usullari ham dasturga kiritilganligi bois, o'quvchi jalb etilayotgan ta'lim jarayoni turlicha kechishi; sub'yekt (o'quvchi) kuchi faolligi, mustaqilligi, turlicha sarf etilishi bilan borishi mumkin. Ayrim hollarda uning jarayoni taqlidiy reproduktiv, boshqalarda izlanishli,

uchinchisida ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Aynan faoliyat jarayonining kechish xarakteri – uning oxirgi natijasi egallangan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalari xarakterigata'siretadi.

O'quvchining bilishi xuddi etuk ilmiy bilish yo'li kabi haqiqat o'qituvchi tomonidan fandagi faktlar, ilmiy kashfiyotlarni o'rganish ularning tarixiy yo'lini o'zlashtirish yordamida kechadi.

Insonning asl ijtimoiy mulki sifatida faoliyatining muhim belgisi faoliyat sub'yektining atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri va muhim boyliklar yaratuvchi faoliyatining qayta yaratuvchi xarakteridir. O'quvchilarning ta'lim muassasasidagi bilish faoliyatining xarakteri shundaki, uning natijasi hamma vaqt ham moddiylashgan mahsulga ega emas va o'quvchining o'zi hamma vaqt ham his etmaydi – javobi uchun yomon baho olgan o'quvchining xafa bo'lib, «men o'qidim, o'rgandim! Adolatdan emas» degan fikrni qat'iy takrorlashi bejiz emas.

Bilishga qiziqish o'qishning eng muhim va eng qimmatli motivi sifatida bolani maktabga, darslarga, o'z bilish faoliyatiga nisbatan ijodiy munosabatiga ko'maklashadi.

O'quvchilarning bilishga qiziqishi motiv sifatida rivojlanishi o'ziga xos uzoq yo'liga ega bo'lishi mumkin. Ayrim o'quv-harakatlari ta'sirchisidan to butun faoliyatning ustuvor motivigacha. Hatto o'qishning etakchi motivlaridan biriga aylanib, qiziqish shaxsning ma'naviy boyishiga ko'maklashuvchi umumiy yo'nalganligining ahamiyatli qismiga aylanishi mumkin. Har qanday motiv singari bilishga qiziqish ajralgan holda rivojlanmaydi, uning tiklanishi boshqa motivlar (axloqiy, ijtimoiy, o'quv va h.k.) bilan birga kechadiki, qiziqish ular bilan boyiydi va ularga ijobiyta'siretadi.

Ma'lumki, o'quv jarayoni modeli o'zida uch tarkibiy qismni aks ettiradi: o'qituvchi faoliyati, o'quvchi faoliyati hamda o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning jadal o'zaro faoliyati. O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro harakatini konstruktiv pedagogika nuqtai nazaridan qator belgilariga ko'ra tasnif etish mumkin: yo'nalganligiga ko'ra (qayta aloqalar bilan yoki qayta aloqalarsiz); axborot jarayonining turiga ko'ra (o'zaro harakatni tashkil etishda axborot jarayonining yo'nalganlik darajasi); boshqarish va axborotlarni uzatish vositalari turiga ko'ra.

O'quvchilar bilimlarni o'zlashtirish jarayonida turli darajadagi faollikni namoyon etishadi. Ana shu sababli, o'quvchilarga bilimlarni sust ravishda qabul qiladi kabi nuqtai nazardan qarash to'g'ri bo'lmaydi. Shu sababli bilish faoliyatiga quyidagicha yondashish zarur:

o'quv faoliyatining inkor etilmagan tavsifi asosida unga munosabat o'zgaradigan bilishning quyi darajasi; quyidan mo'tadillashgan bosqichga o'tish sifatidagi vaziyatli faoliyat; o'quv jarayonida ijro etuvchilik faoliyati; o'quvchining sub'yektiv nuqtai nazarini maksimal darajada ochishga imkon beruvchi ijodiylik.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, bilish faolligi ko'rsatkichi sifatida mo'tadillik, ishtiyoq, o'rganishning anglanganligi, ijodiy namoyon bo'lishi, nostandart o'quv vaziyatlaridagi xulq-atvor, o'quv vazifasini hal etishdagi mustaqillik va boshqalarni aytib o'tish mumkin (4-rasm).

O'quvchilarning o'quv jarayonidagi ishtiroki va faolligining namoyon bo'lishi – bu rivojlanib boruvchi, o'zgaruvchan jarayon. O'qituvchi yordamida o'quvchilarning bilish faolligi quyi darajadan vaziyatli-faollikka, undan faol ijrochilikka o'tib boradi. Ko'p jihatdan o'quvchining bilish faolligi ijodiylik darajasiga ko'tarilishi yoki ko'tarilmasdan qolishi o'qituvchiga bog'liq. **O'quvchilarning bilish faoliyati ko'rsatkichlari:** Mo'tadillik; Ijodiy namoyon bo'lishi; Ishtiyoq; Nostandart o'quv vaziyatlaridagi xulq-atvor; O'rganishning anglanganligi; O'quv vazifasini hal etishdagi mustaqillik

Didaktlarning ishlarida shu narsa yaqqol ko'rinadiki, o'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi munosabat sub'yekt-sub'yekt tavsifiga ega bo'lishi zarur. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim – bu keng tarzda sotsiumning bo'lajak a'zosini umumiy mehnat, hamkorlikka o'rgatish uchun zarur bo'lgan birgalikdagi faoliyat.

Hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash nuqtai nazaridan zamonaviy ta'lim jarayonini ko'rib chiqish asosida o'quvchilarning rollar orqali namoyon bo'lishi quyidagicha ko'rinish kasb etadi:

- o'quv jarayoni bilan dastlab tanishishda tomoshabin, kuzatuvchi;
- guruhli faoliyatning ishtirokchisi;
- namuna bo'yicha uy vazifasini mustaqil bajargandan so'ng faoliyat egasi;
- faoliyatning shaxsiy namunasini yaratishda faoliyat egasi + fikr egasi;
- o'z faoliyati natijasida yuzaga keladigan o'z-o'zining faoliyati egasi.

Ta'lim jarayoni qonuniyatlari. Pedagogikada qonuniyatlar – bu qonunlarning aniq sharoitlardagi harakat ifodasi. Ularning asosiy xususiyati qonuniyatlar pedagogikada ehtimoliy-statistik xarakter berishida aks etadi, qonunlarni esa ta'lim jarayonida amalga oshirishni hamma holatlarda ham aniq ko'rib bo'lmaydi.

Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari orasidagi obyektiv, mavjud, barqaror, takrorlanuvchi aloqadorlik **ta'lim qonuniyati** deb ataladi.

Ta'limning umumiy qonuniyatlariga quyidagilar kiradi:

ta'limning maqsadi jamiyatning rivojlanish sur'ati va darajasi; jamiyatning talablari va imkoniyatlari; pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari bilan bog'liqlikda aniqlashtiriladi;

ta'lim mazmunini belgilashda ta'limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari; ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur'ati; o'quvchilarning yoshi imkoniyatlari; ta'lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasiga asoslaniladi;

ta'limning sifati avvalgi bosqich mahsuldorligi va hozirgi bosqichda erishilgan natijalar; o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi; o'quvchilarga tashkiliy-pedagogik ta'sir ko'rsatish; o'quvchilarning bilim olishga qobiliyatlari va ta'lim vaqtiga bog'liq;

ta'lim metodlari samaradorligi ta'lim maqsadiga; o'quvchilarning yoshi, ta'lim olish imkoniyatlariga; ta'lim muassasasining moddiy-texnik ta'minotiga bog'liq;

ta'limni boshqarish samaradorligi ta'lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va korrektsiyaga, ta'sir ko'rsatishning asoslanganligiga bog'liq;

ta'limda rag'batlantirish samaradorligi ichki va tashqi stimullarning o'zaro uyg'unligiga bog'liq.

Shuningdek, pedagogikada ta'limning xususiy qonuniyatlari ham mavjud:

gnoseologik: ta'lim natijalari o'quvchilarning o'zlashtirish ko'nikmalariga; ta'lim samaradorligi o'quvchilarning o'quv faoliyati hajmiga; bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish samaradorligi ularning amalda qo'llanilishiga; o'quvchilarning aqliy rivojlanishi o'zaro aloqador bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish hajmiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq;

psixologik: ta'lim samaradorligi o'quvchilarning o'quv faoliyatiga qiziqishiga; fikrlash darajasi, kuchi, jadalligi va o'ziga xosligiga;

xotiraning rivojlanganlik darajasiga; bilish faolligi darajasiga bevosita bog‘liq;

kibernetik: ta’lim samaradorligi qayta aloqalarning tezligi va hajmiga; bilimlarning sifati nazoratning to‘g‘ri olib borilishiga; ta’lim sifati o‘quv jarayonini boshqarish sifatiga; boshqaruvning samaradorligi boshqaruvga doir axborotlarning soni va sifatiga bevosita bog‘liq;

sotsiologik: individning rivojlanishi u bevosita va bilvosita muloqotda bo‘ladigan individlarning rivojlanishiga; ta’lim samaradorligi “intellektual muhit”ning mavjud holatiga, o‘zaro bir-biriga o‘rgatishning jadalligiga; o‘qituvchi va o‘quvchilar muloqotining sifatiga bevosita bog‘liq;

tashkiliy: ta’lim natijasi o‘quvchining o‘quv mehnatiga, o‘zining o‘quv majburiyatlariga munosabatiga; o‘quvchining ishchanlik qobiliyatiga; o‘quvchilarning aqliy faolligini oshirish o‘quv mashg‘uloti jadvalining tuzilishi, unda jismoniy tarbiya va mehnat mashg‘ulotlarining joylashtirilishiga bevosita bog‘liq.

Ta’limning xususiy qonuniyatlariga gnoseologik, psixologik, kibernetik, sotsiologik, tashkiliy qonuniyatlar kiradi.

Ta’lim tamoyillari. Ta’lim qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan muhim talablar kelib chiqadi.

Ta’lim tamoyillari o‘quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilab beruvchi boshlang‘ich qoidalardir.

Ta’lim tamoyillarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: ta’limning mazmunga aloqador va tashkiliy-metodik tamoyillari.

Ta’lim mazmuniga aloqador tamoyillarga quyidagilar kiradi: insonparvarlashtirish; tabiat bilan uyg‘unlik; madaniyat bilan uyg‘unlik; ilmiylik; ta’limning fundamentalligi va amaliy yo‘nalganligi; ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi.

Ta’limni insonparvarlashtirish – uning mazmuni, tamoyillari, shakl va metodlarini yangilash, ularning o‘zaro aloqasi va birligini ta’minlash orqali shaxsni har tomonlama shakllantirish va rivojlantirishga yunaltirishdir.

Shaxsning rivojlanishi va o‘quvchilarning ijtimoiy ahamiyatga ega sifat va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ta’limning insonparvarlik mazmuniga yaqinlashish, ularni hayotda faol ishtirok etishga jalb etish, uning bilish bilan qo‘shiluvi va madaniyatni

o'zlashtirishi hamma-hammasi so'nggi yillarda sezilarli shakllandi. Mazkur yo'nalishda so'nggi yillarda tarbiyalanuvchilar ongidagi aldam-qaldamlik, ularning xulq-atvorini haddan tashqari qat'iy belgilash, ularga qattiqta'siretish, tanqidiy fikrlash tarziga ega bo'lmagan qarashlardan voz kechish yordamida ko'plab innovatsiyalar yo'naltirildi. Bunday aqidaparastlikka qarama-qarshi o'laroq, milliy va chet el pedagogikasida tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilishga yo'naltirilgan, unda mustaqillikni shakllantiruvchi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar orasida insonparvar, ishonchga asoslangan munosabatlarni tarkib toptirish qoidalaridan foydalanish, «ta'limni insonparvarlashtirish», ya'ni insonparvarlik tamoyili yuzaga chiqadi. Bunday asosga qurilgan ta'lim esa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi.

Ta'limning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili. Ya.A.Komenskiy tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, tabiatda hayot bahordan boshlangani kabi ta'lim olish jarayoni uchun eng qulay davr bolalik ekanligi g'oyasiga asoslanadi. O'quvchilarga ularning yosh davrlarini inobatga olgan holda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Umuman olganda, ta'lim jarayoni bolaning rivojlanishi, ya'ni tabiati bilan uyg'un bo'lishi lozim.

Ta'limning madaniyat bilan uyg'unlik tamoyili. Ta'limni azaldan mazmuni inson ongida nafaqat olam manzarasini, balki insondagi rivojlanish, yuksaklikka harakat va o'sish holatida bo'lgan o'zining shaxs sifatidagi qiyofasini shakllantirishdan iborat. Ta'lim butun umr davom etadi va ta'lim olish chegaralanmaydi. U insonga o'z dunyosi va boshqa madaniyatlarni anglash, mazkur madaniyat vakillari fikrini eshita olish, ularni qadrlash, ularning dunyosini tushunish, o'zining shaxsiy fikriga tayanish, o'zining bu yorug' olamdagi mavjudligini anglash va o'zining hayotdagi, madaniyatdagi o'rnini aniqlash imkonini beradi. Ta'limning bugungi kundagi ma'no-mantig'i ham ana shundadir.

Ta'lim o'zini madaniyatlar dunyosida faraz qilish orqali insonda olam manzarasini yaratish, insonning tabiat, boshqa odamlarga, jamiyat, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlar tizimini shakllantirish sifatida qaraladi. Inson o'zining ongi, irodasi, his-tuyg'usi, bilish imkoniyatlari orqali madaniy qadriyatlarni o'zlashtiradi, buning natijasida individual ijodiylik shakllanadi. Bunday individuallikning namoyon bo'lishining o'ziyoq nafaqat madaniyatning merosiyligi,

iste'mol qilinishi, balki rivojlanishini ham anglatadi. Bunday tushunish pedagogikadagi yangi paradigma – shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosini tashkil etuvchi jamiyatdagi yangicha qadriyatlar – shaxsning o'zini-o'zini rivojlantirishi, o'ziga-o'ziga ta'lim berish va o'zini-o'zi loyihalashning namoyon bo'lishini aks ettiruvchi madaniyat bilan uyg'unlik tamoyilini shakllanishiga olib keladi.

Ta'limning ilmiylik tamoyili – o'quvchining o'quv materialidagi qonuniyatlarni aks ettirishi, tushunishi va o'zlashtirishi uchun to'g'ri shart-sharoit yaratish maqsadi uchun zarur ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyil ta'lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizatsiyasi to'plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Bu tamoyil ta'lim vaqtida va o'qishdan tashqari vaqtda amalga oshiriladigan ta'lim mazmuni o'quvchilarni obyektiv ilmiy dalillar, hodisalar, qonunlar, zamonaviy yutuqlar va rivojlanish istiqbollari ochib berishga yaqinlashtirib, u yoki bu sohaning asosiy nazariya yoki konsepsiyalari bilan tanishtirishga yo'naltirilgan bo'lishini talab etadi.

Ta'limning fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi tamoyilining ahamiyati shundaki, umuiy o'rta ta'lim maktablaridayoq o'quvchilar chuqur nazariy va amaliy tayyorlikdan o'tadilar. Mazkur holat an'anaviy didaktikada ta'limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi tamoyili sifatida ifoda etiladi. O'qishda fundamentallik bilimlarning ilmiyligi, to'liq va chuqur bo'lishini ko'zda tutadi. U yuksak intellektual salohiyat, fikrlash layoqatining tadqiqotchilik ko'rinishda bo'lishi, bilimlarini doimiy ravishda to'ldirib borish istagi va malakalarini talab etuvchi zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotga asoslanganlik bilan tavsifalanadi. Fundamental bilimlar aniq bilimlariga qaraganda sekin eskiradi, shuningdek, inson va xotirasiga emas, ko'proq uning fikrlash layoqatiga bog'liq bo'ladi. Ta'limning fundamentalligi bilimlar mazmunining muntazamligi, nazariy va amaliy jihatdan o'zaro nisbatda bo'lishni talab etadi.

Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi tamoyili yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta'lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Ta'lim jarayonida tarbiyalashning samarali kechishi shaxsning intellektual rivojlanishi, birinchi navbatda, o'quvchilarning qiziqishlari, idrok etish hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan bog'liq.

Ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillariga quyidagilar kiradi: ta'limning tizimliliigi va izchilligi; ta'limda onglilik, faollik va mustaqillik; ko'rsatmalilik; ta'limning o'quvchilarga mos bo'lishi; ta'limda bilim ko'nikma va malakalarni puxta va mustahkam o'zlashtirish tamoyili; tushunarliklik.

Ta'limning tizimliliigi va izchillik tamoyili bayon qilinayotgan o'quv materialini mustahkamlash va ilgari o'tilgan materiallarni to'ldirishga xizmat qilishini, o'quvchilarning uzluksiz va tizimli suratda mustaqil ish olib borishlarini, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim va hosil bo'lgan ko'nikma, malakalarini hisobga olib borishni ham o'z ichiga oladi.

Izchillik ta'lim mazmuni, uning shakli va usullari, o'quv jarayoni ishtirokchilari bo'lgan subyektlarning o'zaro munosabatlariga taalluqli. U alohida parsial (yunoncha partialis – qisman) va xususiy o'quv vaziyatlari, predmet va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik, aloqadorlik qonuniyatlarini asta-sekin o'zlashtirish asosida ularni yagona yaxlit o'quv jarayoniga birlashtirishga imkon beradi.

Izchillik ta'lim jarayonining ma'lum tizim va ketma-ketlik asosida bo'lishini nazarda tutadi, zero, murakkab masalalarni oddiy masalalarni o'rganmay turib hal etib bo'lmaydi.

Tizimlilik va ketma-ketlik u yoki bu o'quv materialini o'zlashtirish sur'ati, uning elementlari o'rtasidagi o'zaro mosligini tahlil qilishga imkon beradi. Ta'limning tizimliliigi va ketma-ketligi ma'lum fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, borliqni yaxlit idrok etish o'rtasidagi qaramaqarshilikni hal etishga imkon beradi. Ushbu holatlar birinchi navbatda dastur va darsliklarni muayyan tizimda yaratish, fanlararo hamda fanlar ichidagi bog'liqlikni ta'minlash evaziga namoyon bo'ladi.

Ta'lim da onglilik, faollik va mustaqillik tamoyili o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda o'quvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash usullarini ongli va faol egallab olishlari lozim. Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish quyidagi omil va shartlarga bog'liq: o'quv motivlari, o'quvchilarning faollik darajasi, o'quv-tarbiyaviy jarayonning samarali tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan qo'llanuvchi ta'lim metodlari va vositalarining samaradorligi va boshqalar. O'quvchilarning faolliklari reproduktiv va ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Mazkur tamoyil

o'quvchilarning tashabbuskorliklari va mustaqil faoliyatlarini nazarda tutadi.

Ta'lim da ko'rsatmalilik tamoyili o'qitish jarayonini sifatini oshiradi, o'quvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. Ya.A.Komenskiy uni didaktikaning "oltin qoidasi" deb atagan. Unga binoan ta'limda inson sezgi orgalaridan foydalanish kerak. «Agarda biz o'quvchilarda haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko'rish bilan ta'limga intilishimiz kerak – deb ta'kidlaydi u – agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo'lsa, mayli ular baravariga bir necha sezgilari bilan o'rganilsin».

Tajribalar asosida o'rganilayotgan narsani namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o'zlashtirish darajasini birmuncha oshiradi. Xususan, axborotlarni eshitib qabul qilish samarasi 15%, ko'rib qabul qilish esa – 25%ni tashkil etadi. Ta'lim jarayonida, ularni bir vaqtda ishtirok etishi natijasida ma'lumotlarni qabul qilish samaradorligi 65 % gacha ortadi.

Ko'rgazmalilikdan o'quv jarayoni barcha bosqichlarida foydalanish mumkin: yangi materialni o'zlashtirish, uni mustahkamlash, mashqlarni tashkil qilish hamda o'quvchilarning dastur materiallarini o'zlashtirishlarini tekshirish va baholashda.

Ta'limning o'quvchilarga mos bo'lish tamoyili deganda o'quv materiallarining mazmuni uning hajmi, xarakteri, u yoki bu sinf o'quvchilarining jismoniy rivojiga, umumiy tayyorgarligiga – saviyasi va imkoniyatlariga loyiq bo'lishi tushuniladi.

Yoshiga muvofiq yondashish o'quvchilarning psixik xususiyatlari, shaxsiy rivojlanganlik darajasi, ma'naviy-axloqiy sifatleri, ijtimoiy etukligini baholay olishni nazarda tutadi. Agarda qo'yilayotgan talablar yoki ta'limning tashkiliy tuzilishi o'quvchilarning yoshi imkoniyatlaridan ortda qolsa yoki ilgarilab ketsa, o'quv faoliyatining samarasi pasayadi. Individual yondashish o'quvchilarning murakkab ichki dunyosini o'rganish, yuzaga kelgan munosabatlar tizimini tahlil qilish va shaxs shakllanishi sodir bo'ladigan ko'p turdagi sharoitlarni aniqlashni talab etadi.

Ta'limda bilim ko'nikma va malakalarni puxta va mustahkam o'zlashtirish tamoyili muhim didaktik talab va qoidalarni, ya'ni o'quvchilar tomonidan tizimli va ongli o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni

mustahkam, esda saqlab qolish hamda o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni o'z turmush faoliyatlarida qullay olish malakalari bilan qurollantirishni nazarda tutadi.

Ta'limning chuqurligi va mustahkamligi talabi didaktikada an'anaviy hisoblanadi va u yuzakilikka qarama-qarshi qo'yiladi. Chuqur, mustahkam bilimning asosiy belgisi eng fundamental g'oyalari, qoidalar, tushuncha, kategoriyalarni tushunish, chuqur o'zlashtirish, o'rganilayotgan materiallar mazmunini puxta anglashdan iborat.

Ta'limning tushunarligi tamoyili o'quvchilarning mavjud imkoniyatlarini hisobga olish, jismoniy va psixik sog'lig'iga yomonta'siretuvchi intellektual va emotsional qiyinchiliklardan voz kechishni talab etadi. Ta'limning tushunarli bo'lishi o'quvchilarning yoshi, bilish imkoniyatlarini hisobga olib o'qishning mazmunini to'g'ri aniqlash demakdir, ya'ni, har bir o'quv fani bo'yicha o'quvchilar egallab olishi zarur bo'lgan bilim, amaliy ko'nikma va malakalari hajmini to'g'ri aniqlashdir. Bu tamoyil o'quv jarayonini o'quvchilarda qiyinchiliklarni engish istagini hosil qiluvchi va shaxsiy muvaffaqiyatlarining natijalaridan quvonish tuyg'usini yuzaga keltirishga yo'naltirilganligini ifodalaydi. Bu bolalarda ko'zga tashlanuvchi qattiq hayajonlanish, shuningdek, o'quv masalalarini echishdagi ishonchsizlikni yo'qotishga yordam beradi.

Ta'lim mazmuni tushunchasi. Ta'lim mazmuni deganda o'quvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning aniq belgilangan hajmi va ko'lami tushiniladi.

Ta'lim mazmuni tarkibida quyidagilar aks etadi: olam va inson haqidagi bilimlar; faoliyatni amalga oshirish usullari; ijodiy faoliyat tajribasi; atrof-muhitga emotsional-faoliyat tajribasi.

Ta'lim mazmuni takomillashib borish tavsifiga ega bo'lib, uni aniqlovchi asosiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) jamiyatda fan, texnika va madaniyatning rivojlanganlik darajasi;
- 2) jamiyat tomonidan qo'yiladigan ijtimoiy buyurtma;
- 3) ta'limning maqsad va vazifalari;
- 4) innovatsion rivojlanish darajasi;
- 5) axborotlarning hajmi va ko'lami;
- 6) o'quvchilarning yosh xususiyatlari.

Zamonaviy sharoitda fan va texnika rivoji ta'lim va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirishni talab etmoqda

va ana shu asosdan kelib chiqqan holda ta'lim mazmunini modernizatsiyalashni davrning o'zi pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo'yimoqda. Hozirgi vaqtgacha ta'lim mazmunini loyihalash tizimli-faoliyatli yondashuvga asoslangan bo'lsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarining maqsadini o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tarzidan o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyalarni kompetentli-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda. Chunki umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilayotgan o'quv-tarbiya jarayonining mohiyati o'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki o'quv fanlari bo'yicha asosan bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Bunday reproduktiv tarzda o'zlashtirilgan ma'lumotlar o'quvchining amaliy faoliyat tajribasini rivojlantirishga yetarlicha imkon bermaydi. Oqibatda o'quvchilarda juda ko'p axborotlarning behuda jamg'arilayotganligi, ta'limning samarasi past bo'lishi va uning real voqelikka mos kelmasligi kabi tafovutlar ko'zga tashlanmoqda. Aniqrog'i, o'quvchi real hayotdan uzoqlashib qolgandek, uning oldiga faqat ilgaridan to'plangan axborotlarinigina o'zlashtirish maqsadi qo'yilgandek tuyuladi. Ta'limning maqsadini bunday tarzda belgilash o'quvchining faolligini cheklab qo'yadi, oqibatda uning ham shaxsiy, ham ijtimoiy jihatdan anglangan ma'nosi yo'qoladi.

Bunday muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo'li umumiy o'rta ta'lim da yangicha, ya'ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Albatta, umumiy o'rta ta'lim tizimiga kompetent yondashuvni joriy etish, eng avvalo, uni ilmiy jihatdan har tomonlama chuqur o'rganishni taqozo etadi. Garchi umumiy o'rta ta'lim uchun kompetent yondashuvni fenomen sifatida talqin etish mumkin bo'lsada, u pedagogika fanida chuqur anglab yetilganligi va o'z o'rniga ega ekanligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Ayniqsa, so'nggi vaqtlarda ta'lim ga doir muammolarni tahlil etishda «kompetensiya», «kompetentlik», «tayanch kompetensiyalar» kabi atamalardan keng foydani moqda. Pedagogik hamjamiyatda kompetensiya va kompetentlik, ulardan qaysi biri tanyach (universal) hisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullarini aniqlash jarayoni jadallik bilan bormoqda, mazkur tushunchalarni aniqlashtirish bo'yicha qizg'in munozaralar davom etmoqda.

Kompetent yondashuv o'quvchidan alohida-alohida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda o'z navbatida o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash o'z navbatida ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kompetent yondashuv umumiy o'rta ta'limni modernizatsiyalash nuqtai nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) – «Bilim – Ko'nikma – Malaka»ni oltita birlik (sikstet) – «Bilim – Ko'nikma – Malaka – Amaliy faoliyat tajribasi – Kompetensiya – Kompetentlik» tarzida tahlil etilishi talab etiladi.

Kompetentsiyaviy yondashuvda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) – «Bilim – Ko'nikma – Malaka»ni oltita birlik (sikstet) – «Bilim – Ko'nikma – Malaka – Amaliy faoliyat tajribasi – Kompetensiya – Kompetentlik» tarzida tahlil etish talab etiladi.

Umumiy o'rta ta'limda kompetent yondashuvni tatbiq etish haqida gap ketganda, kasbiy ta'lim dan farqli ravishda «umumta'limiy kompetensiya» tushunchasini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir. Chunki umumta'lim maktabi o'quvchisi hali ma'lum bir kompetensiyani o'zida to'liq aks ettira olmasa ham, uning ayrim komponentlarini amalga oshirishga qodirdir.

Umumta'limiy kompetensiya shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatli produktiv faoliyatni amalga oshirish zarur bo'lgan real voqelikning aniq belgilangan obyektlariga munosabatini taqozo etuvchi o'quvchining semantik (ma'no-mazmun) yo'nalganligi, bilim, ko'nikma va malakalari hamda faoliyat tajribalari majmuida aks etuvchi ta'limiy tayyorgarlikka qo'yiladigan talabdir.

O'quvchi uchun kompetensiya – bu uning kelajak obrazi, o'zlashtirish uchun aniq mo'ljal (orientir). Biroq maktab ta'limi davrida o'quvchida «yuksak» kompetensiyalarning ayrim elementlari shakllanadi, nafaqat u kelgusi faoliyatga tayyorgarlik, balki hozirgi bosqichda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv uchun mazkur kompetensiyalarni umumta'limiy nuqtai nazardan o'zlashtiradi.

Umumta'lim iy kompetensiyalar maktabda o'qitiladigan fanlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyatning tarkibiy qismi sifatida qaralishi hamda uning maqsadini to'liq ro'yobga chiqarishni ta'minlay olishini e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, maktab ta'lim i davrida o'quvchi eng asosiy – fuqarolik kompetensiyasini o'zlashtiradi va ta'limning keyingi bosqichlarida ham mazkur kompetensiyaning yetakchilik roli saqlanib qolishi zarur.

Ta'lim mazmunini loyihalash tamoyillari va mezonlari. Ta'lim mazmunini loyihalash quyidagi **umumiy tamoyillarga** muvofiq amalga oshiriladi:

Ta'lim mazmunining barcha elementlarining jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo'lishi tamoyili. Bu tamoyil ta'lim mazmuniga an'anaviy bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga jamiyatning rivojlanganligi, ilmiy bilim, madaniy hayot darajasi va shaxsning rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiruvchi fanlarni kiritishni talab etadi.

Ta'lim mazmunining tashkiliy-jarayon bilan aloqadorlik tamoyili. Bu tamoyil ta'lim mazmunini tanlashda bir tomonlama yondashishni rad etadi. U aniq bir o'quv jarayonini amalga oshirish bilan bog'liq tashkiliy shart-sharoitni hisobga olishni ko'zda tutadi. Bu umumiy o'rta ta'lim mazmunini loyihalashtirish jarayonida taqdim etish va o'zlashtirish tamoyillari, texnologiyasi, darajasi va u bilan bog'liq xatti-harakatlarni hisobga olish kerakligini anglatadi.

Ta'lim mazmunining yaxlit strukturaga aloqadorlik tamoyili. Bu tamoyil ta'lim tizimining turli bosqichlarida nazariy bilimlarning berilishi, o'quv fani, o'quv material, pedagogik faoliyat, o'quvchi shaxsi kabi komponentlarining o'zaro mosligini ko'zda tutadi.

Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili. Bu tamoyil birinchi navbatda o'quvchilarning umuminsoniy va milliy madaniyatni faol ijodiy va amaliy o'zlashtirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish bilan bog'liqdir. Buning uchun insonparvar g'oyalar umumiy ta'lim mazmuniga singdirilishi kerak. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro munosabatlari tamoyilining o'zgartirilishini talab etadi, uning asosini shaxsga yo'nalganlik tashkil etishi zarur.

Ta'lim mazmunini fundamentallashtirish tamoyili ta'limni insonparvarlashtirishdagi to'siqlarni yo'qotishga imkon beradi.

U ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy bilimlarni birlashtirish, ketma-ketlikni oʻrnatish va fanlararo aloqalarni oʻquvchilarning idrok etishi va amaliy faoliyat metodologiyasining mohiyatini anglab yetishlariga tayanishni talab etadi.

Taʼlim mazmunining ketma-ketligi tamoyili. Mazkur tamoyil taʼlim mazmunini oʻsib boruvchi yoʻnalishda rejalashtirishdan iborat boʻlishini anglatadi, bunda birinchi navbatda har bir yangi bilim avvalgisiga tayanadi va undan kelib chiqadi.

Taʼlimning mazmuni muntazamligi tamoyili. Ushbu tamoyil oʻrganilayotgan bilimlar va shakllantirilayotgan malakalar va kompetentsiyalarni yagona tizimdagi oʻrni, umumiy oʻrta taʼlim, barcha oʻquv kurslari va yaxlit mazmunning bir-biriga hamda umuminsoniy, milliy madaniyat tizimi aloqadorlikda koʻrib chiqishni koʻzda tutadi.

Taʼlim mazmunining oʻquvchilar yosh xususiyatlariga mosligi tamoyili. Mazkur tamoyil taʼlim mazmunini loyihalashda oʻquvchilarning yosh xususiyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olishni koʻzda tutadi. Maʼlum bir yosh davriga mos bilim, koʻnikma, malaka va kompetentsiyalar tizimi taʼlim mazmunida aks ettiriladi.

Taʼlim mazmunini loyihalashtirishda quyidagi **mezonlarga** asoslaniladi:

taʼlim mazmunini mustaqil fikr yuritish va axborot isteʼmoli madaniyatini shakllantirish ehtiyojiga muvofiq loyihalashtirish;

taʼlim mazmunining aniq ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etishi;

taʼlim mazmunining murakkablik darajasini hisobga olish, oʻquvchilar imkoniyatlarining mavjud oʻquv dasturlariga mosligi;

taʼlim hajmining uni oʻrganishga ajratiladigan vaqtga mosligi;

taʼlim muassasalari moddiy-texnik bazasining zamonaviy talablarga javob berishi;

taʼlim mazmunini loyihalashda ilgʻor xorijiy tajribalarni hisobga olish.

Taʼlim mazmunini belgilovchi meʼyoriy hujjatlar. Taʼlim mazmunini belgilab beruvchi eng asosiy meʼyoriy hujjat Davlat taʼlim standartidir. Oʻquv reja, oʻquv dasturi, malaka talablari umimg tarkibiy qismiga kiradi.

«Standart» ingliz tilidan tarjima qilinganda «meʼyor», «namuna», «andoza», «model» maʼnolarini anglatadi. Standart yordamida, respublika miqyosidagi turli taʼlim muassasalarida taʼlimning

barqarorlik darajasini ta'minlashga erishiladi, o'quv ishlari normativlari moslashtiriladi, o'quvchilarning bilimlarini baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

Davlat ta'lim standartining maqsadi – umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Davlat ta'lim standartining **vazifalari** quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

ta'lim va uning pirovard natijalari, o'quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta'lim -tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Davlat ta'lim standarti quyidagi **asosiy prinsiplarga** asoslanadi:

o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;

umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi;

davlat ta'lim standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;

umumiy o'rta ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

umumiy oʻrta taʼlimning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;

oʻquvchilarda fanlarni oʻrganish va taʼlim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning taʼminlanganligi;

rivojlangan xorijiy mamlakatlarning taʼlim sohasida meʼyorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

Davlat taʼlim standarti quyidagi **tarkibiy qismlardan** iborat:

umumiy oʻrta taʼlimning tayanch oʻquv rejasi;

umumiy oʻrta taʼlimning oʻquv dasturi;

umumiy oʻrta taʼlimning malaka talablari;

baholash tizimi.

Umumiy oʻrta taʼlimning **tayanch oʻquv rejasi** umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida oʻqitiladigan oʻquv fanlari nomi, oʻquv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar boʻyicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

Tayanch oʻquv reja umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining dars jadvalini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Tayanch oʻquv reja umumtaʼlim fanlari boʻyicha belgilangan taʼlim mazmunini oʻquvchiga yetkazish uchun ajratilgan oʻquv soatlari (davlat ixtiyoridagi va maktab ixtiyoridagi soatlar)ning minimal hajmini belgilaydi.

Pedagog kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnika bazasi etarli boʻlgan umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida Qoraqalpogʻiston Respublikasi Xalq taʼlim i vazirligi, Toshkent shahar xalq taʼlim i bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq taʼlim i boshqarmalarining ruxsati bilan umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining pedagogik kengashlariga dars jadvalini tuzishda tayanch oʻquv rejadagi umumiy soatlar hajmidan oshmagan holda, maʼlum bir fanlarni chuqurlashtirib oʻqitish maqsadida 15%gacha oʻzgartirish kiritish huquqi beriladi.

Umumiy oʻrta taʼlimning **oʻquv dasturi** tayanch oʻquv rejaga muvofiq oʻquv fanlarining sinflar va mavzular boʻyicha hajmi, mazmuni, oʻrganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari belgilangan hujjat hisoblanadi.

O‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘lim i vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Umumiy o‘rta ta‘limning malaka talablari umumta‘lim fanlari bo‘yicha ta‘lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o‘quv yuklamalari hajmiga hamda ta‘lim sifatiga qo‘yiladigan talablardan iborat.

Umumiy o‘rta ta‘limning **malaka talablari** quyidagilardan tashkil topadi: bilim – o‘rganilgan ma‘lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish; ko‘nikma – o‘rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo‘llay olish; malaka – o‘rganilgan bilim va shakllangan ko‘nikmalarni notanish vaziyatlarda qo‘llay olish va yangi bilimlar hosil qilish; kompetensiya — mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati.

Baholash tizimi – davlat ta‘lim standarti bo‘yicha umumiy o‘rta ta‘limning malaka talablarini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi darajasini hamda umumiy o‘rta ta‘lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat.

Ta‘lim mazmuni va o‘quv dasturlari asosida o‘quv materiallari o‘quv-metodik majmuada o‘z ifodasini topadi.

O‘quv-metodik majmua – darslik, mashq daftari, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma, darsliklarning multimediali ilovasidan iborat majmua.

Darslik – davlat ta‘lim standartlariga muvofiq o‘quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigienik talablarga javob beradigan, o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o‘zlashtirilishiga qaratilgan, o‘quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta‘lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma‘lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o‘quv nashri.

Darslik o‘quvchilarning ta‘lim jarayonida, ongli ravishda va faol ishtirok etishlari, o‘quv materialini to‘la o‘zlashtirishlarini ta‘minlashi kerak. Ana shu masalalarni hal etish yo‘lida darsliklar quyidagi vazifalarni bajaradi:

motivatsion vazifa - bu vazifa o‘quvchilarni ushbu fanni o‘rganishga yo‘naltiradigan, ularda ishga pozitiv munosabati va qiziqishini shakllantiruvchi rag‘bat (sabab)larni hosil qilishdan iborat;

axborot vazifasi o‘quvchilarga axborotlarni etkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari hajmini kengaytirishga imkon beradi;

nazorat-tuzatish (mashq qilish) vazifasi – ta’lim jarayoni, uning natijalarini tekshirish, o‘quvchilarda o‘zini baholash va tuzatish layoqati hamda zarur bo‘lgan ko‘nikma, malakalarni shakllantirish uchun o‘rganish mashqlarini tavsiya etishni nazarda tutadi.

muvofiglashtirish vazifasi material ustida ishlash jarayonida ta’limning boshqa vositalari (xaritalar, ko‘rgazmali materiallar, diapozitiv va boshqalar)ni jalb etishni ifodalaydi;

rivojlantiruvchi-tarbiyalovchi vazifasi darslik mazmunining o‘quvchilarga ma’naviy-axloqiy ta’sir ko‘rsatishi, kitoblar bilan ishlash jarayonida ulardan mehnatsevarlik, faol fikrlash, ijodiy qobiliyat kabi sifatlarni shakllantirishdan iborat;

o‘qitish vazifasi darslik bilan ishlashda mustaqil bilim olish uchun zarur bo‘lgan konpekt yozish, umumlashtirish, asosiysini ajratib ko‘rsatish, mantiqiy eslab qolish kabi malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam berishida ko‘zga tashlanadi.

Mashq daftari – darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash hamda o‘quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo‘lgan didaktik vosita.

O‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma – darslikdagi har bir mavzuni samarali o‘qitish metodikasi, qo‘shimcha sinov topshiriqlari va o‘qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko‘rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg‘ulotlar, qo‘shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko‘rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o‘quv nashri.

Darsliklarning multimediali ilovalari – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o‘quv faniga oid materiallarni davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturiga mos ravishda yoritiladigan, o‘quv fanini samarali o‘zlashtirishga, o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishiga ko‘maklashuvchi hamda video, ovoz,

animatsiya, jadval, matn va lugʻatlarni oʻz ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan oʻtkazish va mustahkamlashga yoʻnaltirilgan, oʻquv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qoʻshimcha materialga ega boʻlgan yoki shu kamanbalarga murojaatlarni oʻz ichiga olgan interaktiv elektron axborot-taʼlim resursi.

2.2. Taʼlim qonuniyatlari va tamoyillari. Taʼlim jarayoni mohiyati.

Taʼlim jarayonining qonuniyatlari va harakatlantiruvchi kuchlari Taʼlim jarayonining metodologik asosi bilish nazariyasi, harakatlantiruvchi kuchi esa ziddiyatdir. Ziddiyatlar taʼlim jarayonining rivojlantirish va takomillashtirish manbaidir. Jamiyatning uzluksiz taʼlim tizimiga qoʻygan talabi bilan muayyan sharoitda taʼlim jarayonining imkoniyatlari oʻrtasidagi ziddiyat taʼlim jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Bu ziddiyat umuman taʼlim jarayonini, oʻquv dasturlarini, taʼlimning shakl va metodlarini takomillashtirishning muhim manbaidir. Taʼlim jarayonida oʻquvchilar oldiga qoʻyiladigan vazifa bilan oʻquvchilarning bilimlari va aqliy rivojlanishi darajalari oʻrtasidagi ziddiyat katta ahamiyatga ega.

Taʼlim jarayonidagi ziddiyatlarni hal etish eng maqbul taʼlim metodlari, vositalarini tanlashni taqozo etadi. Oʻqituvchilarning oʻquv-biluv jarayonidagi turli ziddiyatlarni, bu ziddiyatlarni namoyon boʻlish sharoitlarini oʻrganishi va darslarni tashkil etishda ularni hisobga olishi, taʼlimni bolalar uchun yoqimli mashgʻulotga aylantirish imkonini beradi. Oʻquv jarayonini tashkil etishning umumiy meʼyorlari taʼlim qonuniyatlari va prinsiplari bilan bogʻliq. Qonuniyat butun ichidagi qismlar oʻrtasidagi obyektiv, takrorlanib turuvchi ichki bogʻlanishlarni ifodalaydi. Pedagogikada taʼlim qonuniyatlari taʼlim jarayoni komponentlari maqsad, mazmun, metod, shakl, natija orasidagi aloqalarni ifodalaydi. Taʼlim jarayoni qonuniyatlarining mohiyatini ochish, tartibga solish ustida rus taʼlim nazariyachilari N.A. Sorokin, I.Ya. Lerner, Yu.K. Babanskiy, M.N.Skatkin, I.V. Zagviyazinskiylar tadqiqot ishlarini olib borganlar. Pedagogikada umumiy va xususiy, ichki va tashqi, didaktik hamda oʻquv-biluv, psixologik va tashkiliy qonuniyatlar farqlanadi. Ushbu qonuniyatlarga misollar keltiramiz.

Pedagogikada taʼlim maqsadi va mazmuni jamiyatni shaxsni maʼlumot darajasiga qoʻygan talabiga bogʻliq – bu umumiy qonuniyat. Pedagogikada taʼlimni natijaviyligi oʻquvchilarni ongli faoliyatiga

bog‘liqligi – bu xususiy qonuniyat. Pedagogikada ta’lim samaradorligi ta’lim muassasasining moddiy- texnik bazasiga bog‘liqligi – bu tashqi qonuniyat. Pedagogika bo‘yicha o‘quv materialini chuqur va izchil o‘zlashtirilishi o‘quvchilarni faolligi va mustaqilligiga bog‘liqligi – bu ichki qonuniyat. Pedagogikada ta’lim natijasi o‘quvchilarni ta’lim maqsadini anglaganligiga va qabul qilganligiga bog‘liqligi

– bu didaktik qonuniyat. O‘quv materialini o‘zlashtirishni mahsuldorligi ta’limni muammoliligi darajasiga bog‘liqligi

– bu o‘quv-biluv qonuniyati. O‘quvchilarni rivojlanishi darajasi ular munosabatda bo‘ladigan odamlarning rivojlanganlik darajasiga bog‘liqligi

– bu ijtimoiy-psixologik qonuniyat. Ta’lim jarayoni samaradorligi jarayonni o‘qituvchi tomonidan oqilona boshqarishi va tashkil etishiga bog‘liqligi – bu tashkiliy qonuniyat.

Bundan tashqari, an’anaviy tarzda ta’lim jarayonining asosiy qonuniyatlariga quyidagilar kiradi. Ta’limni jamiyat ehtiyojiga bog‘liqligi qonuniyati. Ta’lim jarayonida ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi funksiyalarni aloqadorligi qonuniyati. Ta’lim jarayonida o‘qitish va o‘qish jarayonlarining birligi qonuniyati. Ta’lim jarayonida mazmuni maqsadga bog‘liqligi qonuniyati. Ta’lim jarayonida metod va shaklni mazmun bilan aloqadorligi qonuniyati. Ta’lim samaradorligi o‘qituvchi tomonidan qo‘llanilgan metodlarga bog‘liqligi qonuniyati. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni yosh va individual xususiyatlarini inobatga olinishi qonuniyati. Ta’lim samaradorligini ta’lim sharoitlariga bog‘liqligi qonuniyati. O‘qituvchi ta’lim jarayonining qonuniyatlarini yaxshi bilsagina, ta’lim jarayonini ongli, samarali boshqara oladi. O‘qituvchi unutmasligi kerak, ta’lim jarayonida didaktik qonuniyatlar bilan birga psixologik, fiziologik, gnoseologik qonuniyatlar ham mavjud. Ta’lim jarayonining qonun va qonuniyatlari ta’lim jarayonining prinsiplari va qoidalari uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Demak, pedagogika fani o‘qituvchisi o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi hamkorlik faoliyati natijasi turli qonuniyatlarni hisobga olishga bog‘liqliligini tushunishi kerak.

Pedagogikada qonuniyatlar ta’lim prinsiplarini aniqlaydi. Ta’lim prinsiplari o‘quv jarayoni qonuniyatlari va maqsadi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi. Prinsiplar –bu ta’lim jarayonini o‘tkazish va tashkil etishga qo‘yilgan me‘yoriy talablar va boshlang‘ich g‘oya

hisoblanadi. Ta'limning barcha prinsiplari o'zaro aloqadorlikda bo'lib, tizim ko'inishida umumdidaktik, tashkiliy uslubiy prinsiplardan tashkil topgan. Ta'limning didaktik prinsiplari bevosita pedagogik ta'lim prinsiplariga ham taalluqlidir. Umumdidaktik prinsiplar – ta'lim mazmunini umumiy qonuniyat va maqsadga mos holda aniqlovchi, pedagogik nazariya, konsepsiyaning asosiy holatlarini ifodalaydi. Bu quyidagi prinsiplar: – ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi funksiyalarning birligi prinsipi pedagogik bilim, ko'nikmalar tizimini shakllanishini, shaxsiy sifatlarni, individual sifat va fazilatlarni rivojlanishini, kasbiy ahamiyatli qadriyatlarni tarbiyalashni o'z ichiga oladi;

– ta'lim metodlari va mazmunining ilmiyligi prinsipi pedagogik amaliyot va zamonaviy ilmiy pedagogik bilimlar orasidagi aloqadorlikni ifodalaydi. Bu aloqadorliklar pedagogikada ta'lim metodlarini tanlashni aniqlaydi;

– ta'limni amaliyot bilan aloqadorligi prinsipi pedagogikani o'qitish jarayonida pedagogik bilimlarni real pedagogik jarayonda qo'llashni nazarda tutadi;

– tizimlilik va ketma-ketlik prinsipi o'qitish va o'qishni aniq tartibda amalga oshirishni taqozo etadi.

– ko'rgazmalilik prinsipi talabalarga pedagogika bo'yicha o'quv materialini chuqur va ongli anglagan holda qayta ishlash uchun, o'rganilayotgan pedagogik hodisa va obyektlarni obrazlarini ko'rsatishni taqozo etadi.

– onglilik va faollik prinsipi o'qish maqsadini mustaqil shakllantirishni, o'z ishini rejalashtirish va tashkillashtirishni, o'quv vazifalarini hal etish yo'llarini mustaqil topishni, o'zlashtirilgan bilimlarni ahamiyatini anglashni taqozo etadi.

Ta'limdagi faollilik –bu pedagogika bo'yicha ongli o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni natijasi sifatida namoyon bo'ladigan o'qishning aqliy va amaliy tomoni hisoblanadi:

– izchillik prinsipi bilimlarni talabalar xotirasida izchil mustahkamlanishini talab etadi;

– pedagogika mazmuni bo'lg'usi pedagogni shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilishi zarur;

– pedagogik ta'lim mazmuni pedagogika fanining zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga mos bo'lishi kerak;

– pedagoglarni tayyorlash natijalari kasbiy-pedagogik faoliyat talablariga mos bo‘lishi talab etiladi.

Tashkiliy-uslubiy prinsiplar

– pedagogikani o‘qitish jarayoni metodlari va tashkiliy shakllarini aniqlovchi holatlar. Bularni ko‘rib chiqamiz:

– pedagogikada ta‘lim jarayonining birligi va bir butunligi prinsipi, o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyatini birligi va o‘zaro aloqadorligini ifodalaydi;

– talabalar o‘quv ishida yakka va guruhli shakl va usullarini ratsional uyg‘unligi prinsipi, pedagogika bo‘yicha ta‘lim mazmunini o‘zlashtirish samaradorligi yakka, guruhli, jamoa shaklida amalga oshirilganda oshirilishini ifodalaydi;

– o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantirish prinsipi, hayotda pedagogik bilimlarni amaliy ahamiyatini ko‘rsatishni, pedagogika sohasidagi yangi fan yutuqlarini o‘quv materialiga kiritishni taqozo etadi.

2.3. Sharq va G‘arb mutafakkirlarining gnoseologik g‘oyalari ta‘lim jarayoni asosi sifatida.

Har qanday ta‘lim jarayonining metodolik asosini bilish nazariyasi tashkil etadi. An’anaviy ta‘lim jarayonining asosi materialistik bilish nazariyasi hisoblanib, obyektiv borliqni moddiyligini, uni o‘zlashtirilishini ifodalab, bilish jarayonini mohiyatini ochib beradi. Materialistik falsafaga asosan bilish jarayoni — bu obyektiv moddiy borliqni bizning ongimizda aks etishidir. Ammo bu obyektiv reallikni ongimizda shunchaki aksi emas, bu jarayonlarni mavhumlashtirish, ilmiy tushunchalarni, qonun va qonuniyatlarni shakllanish jarayoni hisoblanadi. Bunda hodisa va jarayonlar, ularni ichki qonuniy bog‘lanishlari mohiyati ochib beriladi.

Bizni o‘rab turgan dunyoni bilishimiz sezgilardan boshlanadi. Obyektiv dunyoni bizning sezgi organlarimizga ta‘siri his etishimiz va tasavvurlarni paydo bo‘lishiga olib keladi. Shuning uchun Jan Jak Russo sezgini bolaning birlamchi aqli deb hisoblagan. Sezish tevarak-atrofdagi, narsa va hodisalarning sezgi organlarimizga ta‘sir etuvchi ayrim sifatlarining ongimizda aks etishidir. Bunda har bir sezgi organ, ya‘ni analizator I.P.Pavlov ta‘kidlab o‘tganidek, hodisa va jarayonlarni ayrim sifatlarini idrok qiladi. Ya‘ni real olamdagi narsa va hodisalarni

sifatlarini sezishimiz mumkin. Sezishdan soʻng idrok qilishga oʻtamiz. Idrok umuman tevarak-atrofimizdagi hodisa va narsalarni ongimizda aks etishidir. Sezgilarning singari idrok qilish ham tashqi narsa va hodisalar, ularning manbalari yoʻqolishi bilan toʻxtaydi. Bilish jarayoni sezish va idrok qilish bilan toʻxtamaydi. Soʻngra tasavvur qilishga oʻtamiz. Tasavvurlar bosh miya poʻstining silliqiligi tufayli odamning ongida uzoq vaqt saqlanib qoladigan idrok va sezgilarning izidir. Tajriba vositasida insonda tasavvurlar koʻlami koʻpayib boradi. Tasavvurlar fikrlashda, tushunchalar tarkib topishida muhim rol oʻynaydi. Tasavvurlar muayyan umumlashmalaning mavjudligi bilan bogʻliq. Sezishlar, idrok etishlar, tasavvurlar sezib bilishning tarkibiy qismi boʻlsada, ular ham real borliqni bilish muammosini toʻlaligicha hal qila olmaydi. Inson faqat tafakkur jarayonidagina biror jarayon va hodisa mohiyatini, munosabatning sababli bogʻlanishlarini aniqlaydi va shu orqali voqelikni chuqur, toʻliq, toʻgʻri aks ettirishga erishadi. Tafakkur bilishning yuqori shakli hisoblanadi.

Tafakkur I.P.Pavlov taʼlimotiga koʻra, nerv bogʻlanishlari yoki assotsiatsiyalarning hosil boʻlishidan iborat. Insonda analiz, sintez, induksiya, deduksiya kabi mantiqiy operatsiyalar yordamida tushuncha, fikr-mulohazalar hosil boʻladi. Ularning oliy shakli qonuniyatlar yaratishdir. Jonli mushohada uchun birinchi signal sistemasi, abstraksiya uchun esa ikkinchi signal sistemasi asosiy ahamiyatga ega boʻladi. Abstrakt tafakkur voqelik bilan aloqada boʻlgan taqdirdagina bilimlarni chuqurlashtiradi. Birinchi va ikkinchi signal sistemalarining birligi bilimlarni chuqur va haqiqiy bilimlarga aylantiradi. Jonli mushohada va tafakkur hamisha insonni amaliy faoliyatiga asoslanishi kerak. Inson tabiat va jamiyatdagi qonuniyatlarni ochib, oʻz faoliyatida ulardan foydalanishga intiladi. Har qanday nazariy bilimlarning qiymati, uning amaliyotga qanchalik xizmat qilishi bilan belgilanadi. Nazariya amaliyotdan kelib chiqib, amaliyotning oʻzini yaxshi yoʻlga qoʻyishga koʻmaklashadi.

2.4. Oʻquvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi.

Maʼlumki, bilish faoliyatining subʼyekti oʻquvchi sanaladi. Shu bois ijtimoiy-pedagogik asoslarga ega taʼlim markazida uning shaxsi, ongi, ham oʻrganilayotgan olamga, ham bilish faoliyatidagi hamkorlariga: oʻquvchilar va uning taʼlim olishini tashkil etuvchi va

yo‘naltiruvchi o‘qituvchilar munosabati yotadi. Bu masala barcha davrlarda birdek ahamiyat kasb etib kelgan.

Ta‘lim da o‘quvchilarning faoliyati haqida gap borganda o‘quvchining bilish faolligi tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. O‘quvchining bilish faolligi uning bilish jarayonidagi intellektual mulohazasida, umumiy va alohida topshiriqlarni bajarishida namoyon bo‘ladi. Bu xususiyatlar o‘quvchilarning faqatgina yuqori darajadagi bilim olishini kafolatlab qolmay, balki uning hayotiy faoliyati, ya‘ni o‘quvchi shaxsining shakllanishi, uning amaliyotga, hayotga bo‘lgan faol munosabati uchun harakterlidir. Shu sababli bilish faolligini oshirish insonning faol hayotiy qarashlarini shakllantirish deb bemalol aytish mumkin.

O‘quvchining bilish faoliyatining yana bir farqli xususiyati uning kechish xarakteridir. O‘quvchining bilish faoliyati maqsadi ham, mazmuni ham, usullari ham dasturga kiritilganligi bois, o‘quvchi jalb etilayotgan ta‘lim jarayoni turlicha kechishi; sub‘yekt (o‘quvchi) kuchi faolligi, mustaqilligi, turlicha sarf etilishi bilan borishi mumkin. Ayrim hollarda uning jarayoni taqlidiy reproduktiv, boshqalarda izlanishli, uchinchisida ijodiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Aynan faoliyat jarayonining kechish xakteri – uning oxirgi natijasi egallangan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalari xakterigata‘siretadi.

O‘quvchining bilishi xuddi etuk ilmiy bilish yo‘li kabi haqiqat o‘qituvchi tomonidan fandagi faktlar, ilmiy kashfiyotlarni o‘rganish ularning tarixiy yo‘lini o‘zlashtirish yordamida kechadi.

Insonning asl ijtimoiy mulki sifatida faoliyatining muhim belgisi faoliyat sub‘yektining atrof-muhit bilan o‘zaro ta‘siri va muhim boyliklar yaratuvchi faoliyatining qayta yaratuvchi xakteridir. O‘quvchilarning ta‘lim muassasasidagi bilish faoliyatining xakteri shundaki, uning natijasi hamma vaqt ham moddiylashgan mahsulga ega emas va o‘quvchining o‘zi hamma vaqt ham his etmaydi – javobi uchun yomon baho olgan o‘quvchining xafa bo‘lib, «men o‘qidim, o‘rgandim! Adolatdan emas» degan fikrni qat‘iy takrorlashi bejiz emas.

Bilishga qiziqish o‘qishning eng muhim va eng qimmatli motivi sifatida bolani maktabga, darslarga, o‘z bilish faoliyatiga nisbatan ijodiy munosabatiga ko‘maklashadi.

O‘quvchilarning bilishga qiziqishi motiv sifatida rivojlanishi o‘ziga xos uzoq yo‘liga ega bo‘lishi mumkin. Ayrim o‘quv-harakatlari ta‘sirchisidan to butun faoliyatning ustuvor motivigacha. Hatto

o'qishning etakchi motivlaridan biriga aylanib, qiziqish shaxsning ma'naviy boyishiga ko'maklashuvchi umumiy yo'nalganligining ahamiyatli qismiga aylanishi mumkin. Har qanday motiv singari bilishga qiziqish ajralgan holda rivojlanmaydi, uning tiklanishi boshqa motivlar (axloqiy, ijtimoiy, o'quv va h.k.) bilan birga kechadiki, qiziqish ular bilan boyiydi va ularga ijobiyta'siretadi.

Ma'lumki, o'quv jarayoni modeli o'zida uch tarkibiy qismni aks ettiradi: o'qituvchi faoliyati, o'quvchi faoliyati hamda o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning jadal o'zaro faoliyati. O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro harakatini konstruktiv pedagogika nuqtai nazaridan qator belgilariga ko'ra tasnif etish mumkin: yo'nalganligiga ko'ra (qayta aloqalar bilan yoki qayta aloqalarsiz); axborot jarayonining turiga ko'ra (o'zaro harakatni tashkil etishda axborot jarayonining yo'nalganlik darajasi); boshqarish va axborotlarni uzatish vositalari turiga ko'ra.

O'quvchilar bilimlarni o'zlashtirish jarayonida turli darajadagi faollikni namoyon etishadi. Ana shu sababli, o'quvchilarga bilimlarni sust ravishda qabul qiladi kabi nuqtai nazardan qarash to'g'ri bo'lmaydi. Shu sababli bilish faoliyatiga quyidagicha yondashish zarur: o'quv faoliyatining inkor etilmagan tavsifi asosida unga munosabat o'zgaradigan bilishning quyi darajasi; quyidan mo'tadillashgan bosqichga o'tish sifatidagi vaziyatli faoliyat; o'quv jarayonida ijro etuvchilik faoliyati; o'quvchining sub'yektiv nuqtai nazarini maksimal darajada ochishga imkon beruvchi ijodiylik.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, bilish faolligi ko'rsatkichi sifatida mo'tadillik, ishtiyoq, o'rganishning anglanganligi, ijodiy namoyon bo'lishi, nostandart o'quv vaziyatlaridagi xulq-atvor, o'quv vazifasini hal etishdagi mustaqillik va boshqalarni aytib o'tish mumkin (4-rasm).

O'quvchilarning o'quv jarayonidagi ishtiroki va faolligining namoyon bo'lishi – bu rivojlanib boruvchi, o'zgaruvchan jarayon. O'qituvchi yordamida o'quvchilarning bilish faolligi quyi darajadan vaziyatli-faollikka, undan faol ijrochilikka o'tib boradi. Ko'p jihatdan o'quvchining bilish faolligi ijodiylik darajasiga ko'tarilishi yoki ko'tarilmasdan qolishi o'qituvchiga bog'liq. **O'quvchilarning bilish faoliyati ko'rsatkichlari:** Mo'tadillik; Ijodiy namoyon bo'lishi; Ishtiyoq; Nostandart o'quv vaziyatlaridagi xulq-atvor; O'rganishning anglanganligi; O'quv vazifasini hal etishdagi mustaqillik

Didaktlarning ishlarida shu narsa yaqqol ko‘rinadiki, o‘quv jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi munosabat sub’yekt-sub’yekt tavsifiga ega bo‘lishi zarur. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta‘lim – bu keng tarzda sotsiumning bo‘lajak a’zosini umumiy mehnat, hamkorlikka o‘rgatish uchun zarur bo‘lgan birgalikdagi faoliyat.

Hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash nuqtai nazaridan zamonaviy ta‘lim jarayonini ko‘rib chiqish asosida o‘quvchilarning rollar orqali namoyon bo‘lishi quyidagicha ko‘rinish kasb etadi:

- o‘quv jarayoni bilan dastlab tanishishda tomoshabin, kuzatuvchi;
- guruhli faoliyatning ishtirokchisi;
- namuna bo‘yicha uy vazifasini mustaqil bajargandan so‘ng faoliyat egasi;
- faoliyatning shaxsiy namunasini yaratishda faoliyat egasi + fikr egasi;
- o‘z faoliyati natijasida yuzaga keladigan o‘z-o‘zining faoliyati egasi.

Ta‘lim jarayoni qonuniyatlari. Pedagogikada qonuniyatlar – bu qonunlarning aniq sharoitldaridagi harakat ifodasi. Ularning asosiy xususiyati qonuniyatlar pedagogikada ehtimoliy-statistik xarakter berishida aks etadi, qonunlarni esa ta‘lim jarayonida amalga oshirishni hamma holatlarda ham aniq ko‘rib bo‘lmaydi.

Ta‘lim jarayonining tarkibiy qismlari orasidagi obyektiv, mavjud, barqaror, takrorlanuvchi aloqadorlik **ta‘lim qonuniyati** deb ataladi.

Ta‘limning umumiy qonuniyatlariga quyidagilar kiradi:

ta‘limning maqsadi jamiyatning rivojlanish sur‘ati va darajasi; jamiyatning talablari va imkoniyatlari; pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari bilan bog‘liqlikda aniqlashtiriladi;

ta‘lim mazmunini belgilashda ta‘limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari; ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur‘ati; o‘quvchilarning yoshi imkoniyatlari; ta‘lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasiga asoslaniladi;

ta‘limning sifati avvalgi bosqich mahsuldorligi va hozirgi bosqichda erishilgan natijalar; o‘rganilayotgan material xususiyati va

hajmi; o'quvchilarga tashkiliy-pedagogik ta'sir ko'rsatish; o'quvchilarning bilim olishga qobiliyatlari va ta'lim vaqtiga bog'liq;

ta'lim metodlari samaradorligi ta'lim maqsadiga; o'quvchilarning yoshi, ta'lim olish imkoniyatlariga; ta'lim muassasasining moddiy-texnik ta'minotiga bog'liq;

ta'limni boshqarish samaradorligi ta'lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va korrektsiyaga, ta'sir ko'rsatishning asoslanganligiga bog'liq;

ta'limda rag'batlantirish samaradorligi ichki va tashqi stimullarning o'zaro uyg'unligiga bog'liq.

Shuningdek, pedagogikada ta'limning xususiy qonuniyatlari ham mavjud:

gnoseologik: ta'lim natijalari o'quvchilarning o'zlashtirish ko'nikmalariga; ta'lim samaradorligi o'quvchilarning o'quv faoliyati hajmiga; bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish samaradorligi ularning amalda qo'llanilishiga; o'quvchilarning aqliy rivojlanishi o'zaro aloqador bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish hajmiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq;

psixologik: ta'lim samaradorligi o'quvchilarning o'quv faoliyatiga qiziqishiga; fikrlash darajasi, kuchi, jadalligi va o'ziga xosligiga; xotiraning rivojlanganlik darajasiga; bilish faolligi darajasiga bevosita bog'liq;

kibernetik: ta'lim samaradorligi qayta aloqalarning tezligi va hajmiga; bilimlarning sifati nazoratning to'g'ri olib borilishiga; ta'lim sifati o'quv jarayonini boshqarish sifatiga; boshqaruvning samaradorligi boshqaruvga doir axborotlarning soni va sifatiga bevosita bog'liq;

sotsiologik: individning rivojlanishi u bevosita va bilvosita muloqotda bo'ladigan individlarning rivojlanishiga; ta'lim samaradorligi "intellektual muhit"ning mavjud holatiga, o'zaro bir-biriga o'rgatishning jadalligiga; o'qituvchi va o'quvchilar muloqotining sifatiga bevosita bog'liq;

tashkiliy: ta'lim natijasi o'quvchining o'quv mehnatiga, o'zining o'quv majburiyatlariga munosabatiga; o'quvchining ishchanlik qobiliyatiga; o'quvchilarning aqliy faolligini oshirish o'quv mashg'uloti jadvalining tuzilishi, unda jismoniy tarbiya va mehnat mashg'ulotlarining joylashtirilishiga bevosita bog'liq.

Ta'limning xususiy qoniniyatlariga gnoseologik, psixologik, kibernetik, sotsiologik, tashkiliy qonuniyatlar kiradi.

Ta'lim tamoyillari. Ta'lim qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan muhim talablar kelib chiqadi.

Ta'lim tamoyillari o'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilab beruvchi boshlang'ich qoidalardir.

Ta'lim tamoyillarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: ta'limning mazmunga aloqador va tashkiliy-metodik tamoyillari.

Ta'lim mazmuniga aloqador tamoyillarga quyidagilar kiradi: insonparvarlashtirish; tabiat bilan uyg'unlik; madaniyat bilan uyg'unlik; ilmiylik; ta'limning fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi; ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi.

Ta'limni insonparvarlashtirish – uning mazmuni, tamoyillari, shakl va metodlarini yangilash, ularning o'zaro aloqasi va birligini ta'minlash orqali shaxsni har tomonlama shakllantirish va rivojlantirishga yunaltirishdir.

Shaxsning rivojlanishi va o'quvchilarning ijtimoiy ahamiyatga ega sifat va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ta'limning insonparvarlik mazmuniga yaqinlashish, ularni hayotda faol ishtirok etishga jalb etish, uning bilish bilan qo'shiluvi va madaniyatni o'zlashtirishi hamma-hammasi so'nggi yillarda sezilarli shakllandi. Mazkur yo'nalishda so'nggi yillarda tarbiyalanuvchilar ongidagi aldam-qaldamlik, ularning xulq-atvorini haddan tashqari qat'iy belgilash, ularga qattiqta'siretish, tanqidiy fikrlash tarziga ega bo'lmagan qarashlardan voz kechish yordamida ko'plab innovatsiyalar yo'naltirildi. Bunday aqidaparastlikka qarama-qarshi o'laroq, milliy va chet el pedagogikasida tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilishga yo'naltirilgan, unda mustaqillikni shakllantiruvchi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar orasida insonparvar, ishonchga asoslangan munosabatlarni tarkib toptirish qoidalariidan foydalanish, «ta'limni insonparvarlashtirish», ya'ni insonparvarlik tamoyili yuzaga chiqadi. Bunday asosga qurilgan ta'lim esa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi.

Ta'limning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili. Ya.A.Komenskiy tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, tabiatda hayot bahordan boshlangani kabi ta'lim olish jarayoni uchun eng qulay davr bolalik ekanligi g'oyasiga asoslanadi. O'quvchilarga ularning yosh davrlarini inobatga

olgan holda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Umuman olganda, ta'lim jarayoni bolaning rivojlanishi, ya'ni tabiati bilan uyg'un bo'lishi lozim.

Ta'limning madaniyat bilan uyg'unlik tamoyili. Ta'limni azaldan mazmuni inson ongida nafaqat olam manzarasini, balki insondagi rivojlanish, yuksaklikka harakat va o'sish holatida bo'lgan o'zining shaxs sifatidagi qiyofasini shakllantirishdan iborat. Ta'lim butun umr davom etadi va ta'lim olish chegaralanmaydi. U insonga o'z dunyosi va boshqa madaniyatlarni anglash, mazkur madaniyat vakillari fikrini eshita olish, ularni qadrlash, ularning dunyosini tushunish, o'zining shaxsiy fikriga tayanish, o'zining bu yorug' olamdagi mavjudligini anglash va o'zining hayotdagi, madaniyatdagi o'rnini aniqlash imkonini beradi. Ta'limning bugungi kundagi ma'no-mantig'i ham ana shundadir.

Ta'lim o'zini madaniyatlar dunyosida faraz qilish orqali insonda olam manzarasini yaratish, insonning tabiat, boshqa odamlarga, jamiyat, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlar tizimini shakllantirish sifatida qaraladi. Inson o'zining ongi, irodasi, his-tuyg'usi, bilish imkoniyatlari orqali madaniy qadriyatlarni o'zlashtiradi, buning natijasida individual ijodiylik shakllanadi. Bunday individuallikning namoyon bo'lishining o'ziyoq nafaqat madaniyatning merosiyligi, iste'mol qilinishi, balki rivojlanishini ham anglatadi. Bunday tushunish pedagogikadagi yangi paradigma – shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosini tashkil etuvchi jamiyatdagi yangicha qadriyatlar – shaxsning o'zini-o'zini rivojlantirishi, o'ziga-o'ziga ta'lim berish va o'zini-o'zi loyihalashning namoyon bo'lishini aks ettiruvchi madaniyat bilan uyg'unlik tamoyilini shakllanishiga olib keladi.

Ta'limning ilmiylik tamoyili – o'quvchining o'quv materialidagi qonuniyatlarni aks ettirishi, tushunishi va o'zlashtirishi uchun to'g'ri shart-sharoit yaratish maqsadi uchun zarur ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyil ta'lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizatsiyasi to'plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Bu tamoyil ta'lim vaqtida va o'qishdan tashqari vaqtda amalga oshiriladigan ta'lim mazmuni o'quvchilarni obyektiv ilmiy dalillar, hodisalar, qonunlar, zamonaviy yutuqlar va rivojlanish istiqbollari ochib berishga yaqinlashtirib, u yoki bu sohaning asosiy nazariya yoki konsepsiyalari bilan tanishtirishga yo'naltirilgan bo'lishini talab etadi.

Ta'limning fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi tamoyilining ahamiyati shundaki, umuiy o'rta ta'lim maktablaridayoq o'quvchilar chuqur nazariy va amaliy tayyorlikdan o'tadilar. Mazkur holat an'anaviy didaktikada ta'limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi tamoyili sifatida ifoda etiladi. O'qishda fundamentallik bilimlarning ilmiyligi, to'liq va chuqur bo'lishini ko'zda tutadi. U yuksak intellektual salohiyat, fikrlash layoqatining tadqiqotchilik ko'rinishda bo'lishi, bilimlarini doimiy ravishda to'ldirib borish istagi va malakalarini talab etuvchi zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotga asoslanganlik bilan tavsifalanadi. Fundamental bilimlar aniq bilimlariga qaraganda sekin eskiradi, shuningdek, inson va xotirasiga emas, ko'proq uning fikrlash layoqatiga bog'liq bo'ladi. Ta'limning fundamentalligi bilimlar mazmunining muntazamligi, nazariy va amaliy jihatdan o'zaro nisbatda bo'lishni talab etadi.

Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi tamoyili yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta'lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Ta'lim jarayonida tarbiyalashning samarali kechishi shaxsning intellektual rivojlanishi, birinchi navbatda, o'quvchilarning qiziqishlari, idrok etish hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan bog'liq.

Ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillariga quyidagilar kiradi: ta'limning tizimliliigi va izchilligi; ta'limda onglilik, faollik va mustaqillik; ko'rsatmalilik; ta'limning o'quvchilarga mos bo'lishi; ta'limda bilim ko'nikma va malakalarni puxta va mustahkam o'zlashtirish tamoyili; tushunarlilik.

Ta'limning tizimliliigi va izchillik tamoyili bayon qilinayotgan o'quv materialini mustahkamlash va ilgari o'tilgan materiallarni to'ldirishga xizmat qilishini, o'quvchilarning uzluksiz va tizimli suratda mustaqil ish olib borishlarini, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim va hosil bo'lgan ko'nikma, malakalarini hisobga olib borishni ham o'z ichiga oladi.

Izchillik ta'lim mazmuni, uning shakli va usullari, o'quv jarayoni ishtirokchilari bo'lgan subyektlarning o'zaro munosabatlariga taalluqli. U alohida parsial (yunoncha partialis – qisman) va xususiy o'quv vaziyatlari, predmet va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik, aloqadorlik qonuniyatlarini asta-sekin o'zlashtirish asosida ularni yagona yaxlit o'quv jarayoniga birlashtirishga imkon beradi.

Izchillik ta'lim jarayonining ma'lum tizim va ketma-ketlik asosida bo'lishini nazarda tutadi, zero, murakkab masalalarni oddiy masalalarni o'rganmay turib hal etib bo'lmaydi.

Tizimlilik va ketma-ketlik u yoki bu o'quv materialini o'zlashtirish sur'ati, uning elementlari o'rtasidagi o'zaro mosligini tahlil qilishga imkon beradi. Ta'limning tizimliliigi va ketma-ketligi ma'lum fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, borliqni yaxlit idrok etish o'rtasidagi qaramaqarshilikni hal etishga imkon beradi. Ushbu holatlar birinchi navbatda dastur va darsliklarni muayyan tizimda yaratish, fanlararo hamda fanlar ichidagi bog'liqlikni ta'minlash evaziga namoyon bo'ladi.

Ta'lim da onglilik, faollik va mustaqillik tamoyili o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda o'quvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash usullarini ongli va faol egallab olishlari lozim. Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish quyidagi omil va shartlarga bog'liq: o'quv motivlari, o'quvchilarning faollik darajasi, o'quv-tarbiyaviy jarayonning samarali tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan qo'llanuvchi ta'lim metodlari va vositalarining samaradorligi va boshqalar. O'quvchilarning faolliklari reproduktiv va ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Mazkur tamoyil o'quvchilarning tashabbuskorliklari va mustaqil faoliyatlarini nazarda tutadi.

Ta'lim da ko'rsatmalilik tamoyili o'qitish jarayonini sifatini oshiradi, o'quvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. Ya.A.Komenskiy uni didaktikaning "oltin qoidasi" deb atagan. Unga binoan ta'limda inson sezgi orgalaridan foydalanish kerak. «Agarda biz o'quvchilarda haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko'rish bilan ta'limga intilishimiz kerak – deb ta'kidlaydi u – agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo'lsa, mayli ular baravariga bir necha sezgilari bilan o'rganilsin».

Tajribalar asosida o'rganilayotgan narsani namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o'zlashtirish darajasini birmuncha oshiradi. Xususan, axborotlarni eshitib qabul qilish samarasi 15%, ko'rib qabul qilish esa – 25%ni tashkil etadi. Ta'lim jarayonida, ularni bir vaqtda ishtirok etishi natijasida ma'lumotlarni qabul qilish samaradorligi 65 % gacha ortadi.

Ko'rgazmalilikdan o'quv jarayoni barcha bosqichlarida foydalanish mumkin: yangi materialni o'zlashtirish, uni mustahkamlash, mashqlarni tashkil qilish hamda o'quvchilarning dastur materiallarini o'zlashtirishlarini tekshirish va baholashda.

Ta'limning o'quvchilarga mos bo'lish tamoyili deganda o'quv materiallarining mazmuni uning hajmi, xarakteri, u yoki bu sinf o'quvchilarining jismoniy rivojiga, umumiy tayyorgarligiga – saviyasi va imkoniyatlariga loyiq bo'lishi tushuniladi.

Yoshiga muvofiq yondashish o'quvchilarning psixik xususiyatlari, shaxsiy rivojlanganlik darajasi, ma'naviy-axloqiy sifatleri, ijtimoiy etukligini baholay olishni nazarda tutadi. Agarda qo'yilayotgan talablar yoki ta'limning tashkiliy tuzilishi o'quvchilarning yoshi imkoniyatlaridan ortda qolsa yoki ilgarilab ketsa, o'quv faoliyatining samarasi pasayadi. Individual yondashish o'quvchilarning murakkab ichki dunyosini o'rganish, yuzaga kelgan munosabatlar tizimini tahlil qilish va shaxs shakllanishi sodir bo'ladigan ko'p turdagi sharoitlarni aniqlashni talab etadi.

Ta'limda bilim ko'nikma va malakalarni puxta va mustahkam o'zlashtirish tamoyili muhim didaktik talab va qoidalarni, ya'ni o'quvchilar tomonidan tizimli va ongli o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni mustahkam, esda saqlab qolish hamda o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni o'z turmush faoliyatlarida qullay olish malakalari bilan qurollantirishni nazarda tutadi.

Ta'limning chuqurligi va mustahkamligi talabi didaktikada an'anaviy hisoblanadi va u yuzakilikka qarama-qarshi qo'yiladi. Chuqur, mustahkam bilimning asosiy belgisi eng fundamental g'oyalar, qoidalar, tushuncha, kategoriyalarni tushunish, chuqur o'zlashtirish, o'rganilayotgan materiallar mazmunini puxta anglashdan iborat.

Ta'limning tushunarligi tamoyili o'quvchilarning mavjud imkoniyatlarini hisobga olish, jismoniy va psixik sog'lig'iga yomonta'siretuvchi intellektual va emotsional qiyinchiliklardan voz kechishni talab etadi. Ta'limning tushunarli bo'lishi o'quvchilarning yoshi, bilish imkoniyatlarini hisobga olib o'qishning mazmunini to'g'ri aniqlash demakdir, ya'ni, har bir o'quv fani bo'yicha o'quvchilar egallab olishi zarur bo'lgan bilim, amaliy ko'nikma va malakalari hajmini to'g'ri aniqlashdir. Bu tamoyil o'quv jarayonini o'quvchilarda qiyinchiliklarni engish istagini hosil qiluvchi va shaxsiy muvaffaqiyatlarining natijalaridan quvonish tuyg'usini yuzaga

keltirishga yo'naltirilganligini ifodalaydi. Bu bolalarda ko'zga tashlanuvchi qattiq hayajonlanish, shuningdek, o'quv masalalarini echishdagi ishonchsizlikni yo'qotishga yordam beradi.

Ta'lim mazmuni tushunchasi. Ta'lim mazmuni deganda o'quvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarning aniq belgilangan hajmi va ko'lami tushiniladi.

Ta'lim mazmuni tarkibida quyidagilar aks etadi: olam va inson haqidagi bilimlar; faoliyatni amalga oshirish usullari; ijodiy faoliyat tajribasi; atrof-muhitga emotsional-faoliyat tajribasi.

Ta'lim mazmuni takomillashib borish tavsifiga ega bo'lib, uni aniqlovchi asosiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 7) jamiyatda fan, texnika va madaniyatning rivojlanganlik darajasi;
- 8) jamiyat tomonidan qo'yiladigan ijtimoiy buyurtma;
- 9) ta'limning maqsad va vazifalari;
- 10) innovatsion rivojlanish darajasi;
- 11) axborotlarning hajmi va ko'lami;
- 12) o'quvchilarning yosh xususiyatlari.

Zamonaviy sharoitda fan va texnika rivoji ta'lim va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirishni talab etmoqda va ana shu asosdan kelib chiqqan holda ta'lim mazmunini modernizatsiyalashni davrning o'zi pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo'yilmoqda. Hozirgi vaqtgacha ta'lim mazmunini loyihalash tizimli-faoliyatli yondashuvga asoslangan bo'lsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarining maqsadini o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tarzidan o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyalarni kompetentli-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda. Chunki umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilayotgan o'quv-tarbiya jarayonining mohiyati o'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki o'quv fanlari bo'yicha asosan bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Bunday reproduktiv tarzda o'zlashtirilgan ma'lumotlar o'quvchining amaliy faoliyat tajribasini rivojlantirishga yetarlicha imkon bermaydi. Oqibatda o'quvchilarda juda ko'p axborotlarning behuda jamg'arilayotganligi, ta'limning samarasi past bo'lishi va uning real voqelikka mos kelmasligi kabi tafovutlar ko'zga tashlanmoqda. Aniqrog'i, o'quvchi real hayotdan

uzoqlashib qolgandek, uning oldiga faqat ilgaridan to'plangan axborotlarnigina o'zlashtirish maqsadi qo'yilgandek tuyuladi. Ta'limning maqsadini bunday tarzda belgilash o'quvchining faolligini cheklab qo'yadi, oqibatda uning ham shaxsiy, ham ijtimoiy jihatdan anglangan ma'nosi yo'qoladi.

Bunday muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo'li umumiy o'rta ta'lim da yangicha, ya'ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Albatta, umumiy o'rta ta'lim tizimiga kompetent yondashuvni joriy etish, eng avvalo, uni ilmiy jihatdan har tomonlama chuqur o'rganishni taqozo etadi. Garchi umumiy o'rta ta'lim uchun kompetent yondashuvni fenomen sifatida talqin etish mumkin bo'lsada, u pedagogika fanida chuqur anglab yetilganligi va o'z o'rniga ega ekanligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Ayniqsa, so'nggi vaqtlarda ta'lim ga doir muammolarni tahlil etishda «kompetensiya», «kompetentlik», «tayanch kompetensiyalar» kabi atamalardan keng foydanilmoqda. Pedagogik hamjamiyatda kompetensiya va kompetentlik, ulardan qaysi biri tanyach (universal) hisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullarini aniqlash jarayoni jadallik bilan bormoqda, mazkur tushunchalarni aniqlashtirish bo'yicha qizg'in munozaralar davom etmoqda.

Kompetent yondashuv o'quvchidan alohida-alohida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda o'z navbatida o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash o'z navbatida ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kompetent yondashuv umumiy o'rta ta'limniodernizatsiyalash nuqtai nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) – «Bilim – Ko'nikma – Malaka»ni oltita birlik (sikstet) – «Bilim – Ko'nikma – Malaka – Amaliy faoliyat tajribasi – Kompetensiya – Kompetentlik» tarzida tahlil etilishi talab etiladi.

Kompetentsiyaviy yondashuvda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) – «Bilim – Ko'nikma – Malaka»ni oltita birlik (sikstet)

– «Bilim – Ko‘nikma – Malaka – Amaliy faoliyat tajribasi – Kompetensiya – Kompetentlik» tarzida tahlil etish talab etiladi.

Umumiy o‘rta ta‘lim da kompetent yondashuvni tatbiq etish haqida gap ketganda, kasbiy ta‘lim dan farqli ravishda «umumta‘lim iy kompetensiya» tushunchasini ta‘lim amaliyotiga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir. Chunki umumta‘lim maktabi o‘quvchisi hali ma‘lum bir kompetensiyani o‘zida to‘liq aks ettira olmasa ham, uning ayrim komponentlarini amalga oshirishga qodirdir.

Umumta‘lim iy kompetensiya shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatli produktiv faoliyatni amalga oshirish zarur bo‘lgan real voqelikning aniq belgilangan obyektlariga munosabatini taqozo etuvchi o‘quvchining semantik (ma‘no-mazmun) yo‘nalganligi, bilim, ko‘nikma va malakalari hamda faoliyat tajribalari majmuida aks etuvchi ta‘lim iy tayyorgarlikka qo‘yiladigan talabdir.

O‘quvchi uchun kompetensiya – bu uning kelajak obrazi, o‘zlashtirish uchun aniq mo‘ljal (orientir). Biroq maktab ta‘lim i davrida o‘quvchida «yuksak» kompetensiyalarning ayrim elementlari shakllanadi, nafaqat u kelgusi faoliyatga tayyorgarlik, balki hozirgi bosqichda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv uchun mazkur kompetensiyalarni umumta‘lim iy nuqtai nazardan o‘zlashtiradi.

Umumta‘lim iy kompetensiyalar maktabda o‘qitiladigan fanlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan faoliyatning tarkibiy qismi sifatida qaralishi hamda uning maqsadini to‘liq ro‘yobga chiqarishni ta‘minlay olishini e‘tirof etish maqsadga muvofiqdir. Yana shuni alohida ta‘kidlab o‘tish joizki, maktab ta‘lim i davrida o‘quvchi eng asosiy – fuqarolik kompetensiyasini o‘zlashtiradi va ta‘limning keyingi bosqichlarida ham mazkur kompetensiyaning yetakchilik roli saqlanib qolishi zarur.

Ta‘lim mazmunini loyihalash tamoyillari va mezonlari. Ta‘lim mazmunini loyihalash quyidagi **umumiy tamoyillarga** muvofiq amalga oshiriladi:

Ta‘lim mazmunining barcha elementlarining jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo‘lishi tamoyili. Bu tamoyil ta‘lim mazmuniga an‘anaviy bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan birga jamiyatning rivojlanganligi, ilmiy bilim, madaniy hayot darajasi va shaxsning rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiruvchi fanlarni kiritishni talab etadi.

Ta'lim mazmunining tashkiliy-jarayon bilan aloqadorlik tamoyili. Bu tamoyil ta'lim mazmunini tanlashda bir tomonlama yondashishni rad etadi. U aniq bir o'quv jarayonini amalga oshirish bilan bog'liq tashkiliy shart-sharoitni hisobga olishni ko'zda tutadi. Bu umumiy o'rta ta'lim mazmunini loyihalashtirish jarayonida taqdim etish va o'zlashtirish tamoyillari, texnologiyasi, darajasi va u bilan bog'liq xatti-harakatlarni hisobga olish kerakligini anglatadi.

Ta'lim mazmunining yaxlit strukturaga aloqadorlik tamoyili. Bu tamoyil ta'lim tizimining turli bosqichlarida nazariy bilimlarning berilishi, o'quv fani, o'quv materiali, pedagogik faoliyat, o'quvchi shaxsi kabi komponentlarining o'zaro mosligini ko'zda tutadi.

Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili. Bu tamoyil birinchi navbatda o'quvchilarning umuminsoniy va milliy madaniyatni faol ijodiy va amaliy o'zlashtirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish bilan bog'liqdir. Buning uchun insonparvar g'oyalar umumiy ta'lim mazmuniga singdirilishi kerak. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro munosabatlari tamoyilining o'zgartirilishini talab etadi, uning asosini shaxsga yo'nalganlik tashkil etishi zarur.

Ta'lim mazmunini fundamentallashtirish tamoyili ta'limni insonparvarlashtirishdagi to'siqlarni yo'qotishga imkon beradi. U ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy bilimlarni birlashtirish, ketma-ketlikni o'rnatish va fanlararo aloqalarni o'quvchilarning idrok etishi va amaliy faoliyat metodologiyasining mohiyatini anglab yetishlariga tayanishni talab etadi.

Ta'lim mazmunining ketma-ketligi tamoyili. Mazkur tamoyil ta'lim mazmunini o'sib boruvchi yo'nalishda rejalashtirishdan iborat bo'lishini anglatadi, bunda birinchi navbatda har bir yangi bilim avvalgisiga tayanadi va undan kelib chiqadi.

Ta'limning mazmuni muntazamligi tamoyili. Ushbu tamoyil o'rganilayotgan bilimlar va shakllantirilayotgan malakalar va kompetentsiyalarni yagona tizimdagi o'rni, umumiy o'rta ta'lim, barcha o'quv kurslari va yaxlit mazmunning bir-biriga hamda umuminsoniy, milliy madaniyat tizimi aloqadorlikda ko'rib chiqishni ko'zda tutadi.

Ta'lim mazmunining o'quvchilar yosh xususiyatlariga mosligi tamoyili. Mazkur tamoyil ta'lim mazmunini loyihalashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga

olishni koʻzda tutadi. Maʼlum bir yosh davriga mos bilim, koʻnikma, malaka va kompetentsiyalar tizimi taʼlim mazmunida aks ettiriladi.

Taʼlim mazmunini loyihalashtirishda quyidagi **mezonlarga** asoslaniladi:

taʼlim mazmunini mustaqil fikr yuritish va axborot isteʼmoli madaniyatini shakllantirish ehtiyojiga muvofiq loyihalashtirish;

taʼlim mazmunining aniq ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etishi;

taʼlim mazmunining murakkablik darajasini hisobga olish, oʻquvchilar imkoniyatlarining mavjud oʻquv dasturlariga mosligi;

taʼlim hajmining uni oʻrganishga ajratiladigan vaqtga mosligi;

taʼlim muassasalari moddiy-texnik bazasining zamonaviy talablarga javob berishi;

taʼlim mazmunini loyihalashda ilgʻor xorijiy tajribalarni hisobga olish.

Taʼlim mazmunini belgilovchi meʼyoriy hujjatlar. Taʼlim mazmunini belgilab beruvchi eng asosiy meʼyoriy hujjat Davlat taʼlim standartidir. Oʻquv reja, oʻquv dasturi, malaka talablari umimg tarkibiy qismiga kiradi.

«Standart» ingliz tilidan tarjima qilinganda «meʼyor», «namuna», «andoza», «model» maʼnolarini anglatadi. Standart yordamida, respublika miqyosidagi turli taʼlim muassasalarida taʼlimning barqarorlik darajasini taʼminlashga erishiladi, oʻquv ishlari normativlari moslashtiriladi, oʻquvchilarning bilimlarini baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

Davlat taʼlim standartining maqsadi – umumiy oʻrta taʼlim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilgʻor tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, maʼnaviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Davlat taʼlim standartining **vazifalari** quyidagilardan iborat:

umumiy oʻrta taʼlim mazmuni va sifatiga qoʻyiladigan talablarni belgilash;

milliy, umuminsoniy va maʼnaviy qadriyatlar asosida oʻquvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

o‘quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining o‘quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo‘yiladigan talablarni belgilash;

kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta‘lim , fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta‘minlash;

ta‘lim va uning pirovard natijalari, o‘quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta‘lim -tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat ta‘lim standartlari talablarining ta‘lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta‘minlash.

Davlat ta‘lim standarti quyidagi **asosiy prinsiplarga** asoslanadi:

o‘quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;

umumiy o‘rta ta‘lim mazmunining insonparvarligi;

davlat ta‘lim standartining ta‘lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

umumiy o‘rta ta‘limning boshqa ta‘lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta‘lim mazmunining uzviyligi;

umumiy o‘rta ta‘lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

umumiy o‘rta ta‘limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;

o‘quvchilarda fanlarni o‘rganish va ta‘lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta‘minlanganligi;

rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta‘lim sohasida me‘yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

Davlat ta‘lim standarti quyidagi **tarkibiy qismlardan** iborat:

umumiy o‘rta ta‘limning tayanch o‘quv rejasi;

umumiy o‘rta ta‘limning o‘quv dasturi;

umumiy o‘rta ta‘limning malaka talablari;

baholash tizimi.

Umumiy o‘rta ta‘limning **tayanch o‘quv rejasi** umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘qitiladigan o‘quv fanlari nomi, o‘quv

yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo'yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

Tayanch o'quv reja umumiy o'rta ta'lim muassasalarining dars jadvalini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Tayanch o'quv reja umumta'lim fanlari bo'yicha belgilangan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlari (davlat ixtiyoridagi va maktab ixtiyoridagi soatlar)ning minimal hajmini belgilaydi.

Pedagog kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnika bazasi etarli bo'lgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalarining ruxsati bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik kengashlariga dars jadvalini tuzishda tayanch o'quv rejadagi umumiy soatlar hajmidan oshmagan holda, ma'lum bir fanlarni chuqurlashtirib o'qitish maqsadida 15%gacha o'zgartirish kiritish huquqi beriladi.

Umumiy o'rta ta'limning **o'quv dasturi** tayanch o'quv rejaga muvofiq o'quv fanlarining sinflar va mavzular bo'yicha hajmi, mazmuni, o'rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari belgilangan hujjat hisoblanadi.

O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat.

Umumiy o'rta ta'limning **malaka talablari** quyidagilardan tashkil topadi: bilim – o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish; ko'nikma – o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish; malaka – o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish; kompetensiya — mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Baholash tizimi – davlat ta'lim standarti bo'yicha umumiy o'rta ta'limning malaka talablarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi darajasini hamda umumiy o'rta ta'lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat.

Ta'lim mazmuni va o'quv dasturlari asosida o'quv materiallari o'quv-metodik majmuada o'z ifodasini topadi.

O'quv-metodik majmua – darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasidan iborat majmua.

Darslik – davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigienik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, o'quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Darslik o'quvchilarning ta'lim jarayonida, ongli ravishda va faol ishtirok etishlari, o'quv materialini to'la o'zlashtirishlarini ta'minlashi kerak. Ana shu masalalarni hal etish yo'lida darsliklar quyidagi vazifalarni bajaradi:

motivatsion vazifa - bu vazifa o'quvchilarni ushbu fanni o'rganishga yo'naltiradigan, ularda ishga pozitiv munosabati va qiziqishini shakllantiruvchi rag'bat (sabab)larni hosil qilishdan iborat;

axborot vazifasi o'quvchilarga axborotlarni etkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari hajmini kengaytirishga imkon beradi;

nazorat-tuzatish (mashq qilish) vazifasi – ta'lim jarayoni, uning natijalarini tekshirish, o'quvchilarda o'zini baholash va tuzatish layoqati hamda zarur bo'lgan ko'nikma, malakalarni shakllantirish uchun o'rganish mashqlarini tavsiya etishni nazarda tutadi.

muvofiglashtirish vazifasi material ustida ishlash jarayonida ta'limning boshqa vositalari (xaritalar, ko'rgazmali materiallar, diapozitiv va boshqalar)ni jalb etishni ifodalaydi;

rivojlantiruvchi-tarbiyalovchi vazifasi darslik mazmunining o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy ta'sir ko'rsatishi, kitoblar bilan ishlash jarayonida ulardan mehnatsevarlik, faol fikrlash, ijodiy qobiliyat kabi sifatlarni shakllantirishdan iborat;

o'qitish vazifasi darslik bilan ishlashda mustaqil bilim olish uchun zarur bo'lgan konpekt yozish, umumlashtirish, asosiysini ajratib ko'rsatish, mantiqiy eslab qolish kabi malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishida ko'zga tashlanadi.

Mashq daftari – darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta’lim standartlariga muvofiq o’quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko’nikmalarni mustahkamlash hamda o’quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo’lgan didaktik vosita.

O’qituvchi uchun metodik qo’llanma – darslikdagi har bir mavzuni samarali o’qitish metodikasi, qo’shimcha sinov topshiriqlari va o’qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko’rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg’ulotlar, qo’shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko’rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o’quv nashri.

Darsliklarning multimediali ilovalari – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o’quv faniga oid materiallarni davlat ta’lim standarti va o’quv dasturiga mos ravishda yorita oladigan, o’quv fanini samarali o’zlashtirishga, o’quvchilarning mustaqil ta’lim olishiga ko’maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug’atlarni o’z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o’tkazish va mustahkamlashga yo’naltirilgan, o’quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo’shimcha materialga ega bo’lgan yoki shu kamanbalarga murojaatlarni o’z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta’lim resursi.

√**Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**



1. Didaktika nimani o’rganadi? Mazkur sohaning obykti va predmetini izohlang.
2. Didaktikaning asosiy kategoriyalarini sanab bering.
3. Zamonaviy ta’lim paradigmalariga nimalar kiradi?
4. Ta’lim qonuniyatlari deganda nimani tushunasiz?
5. Ta’limning qanday umumiy qonuniyatlari mavjud?
6. Ta’lim mazmuni deb nimaga aytiladi?
7. Ta’lim mazmunini belgilashga doir qanday yondashuvlar mavjud

III MAVZU. UMUMIY O‘RTA TA’LIMI MAZMUNI.

√ **Tayanch so‘zlar:** maqsad, vazifa, standart, predmet, kategoriya, pedagogikaning sohalari, DTS, konsepsiya, yondashuv, o‘quv rejasi, o‘quv dasturlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalari tavsifi.

3.1. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartining maqsad va vazifalari

Bizga ma’lumki, «mazmun» tushunchasi ma’nosi qadimgi yunon mutafakkirlari Aristotel va Platon tomonidan ochib berilgan. Aristotelning ta’kidlashicha, mazmun – bu butunni hosil qiluvchi qismlar yig‘indisidir. Keyinchalik bu tushuncha Gegel tomonidan to‘ldirilgan, uning fikricha «har qanday predmetlar nafaqat moddiy, balki mazmunga ham ega. «Ta’lim mazmuni» tushunchasini pedagogik ma’nosi rus olimi P.F.Kapterev tomonidan bilimlar tizimi sifatida ochib berilgan. Ta’lim mazmuni deganda ta’lim jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan ilmiy bilimlar tizimini, amaliy ko‘nikma va malakalarni hamda dunyoqarash va axloqiy-estetik g‘oyalarni tushunamiz - deb ta’kidlaydi I.F.Harlamov. Ta’lim mazmuni — yoshlarni ma’lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalash maqsadida ma’lumot mazmunidan tanlanib, ta’lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko‘nikma-malaka, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalarini emotsional baholashga doir munosabatlardir degan qarashlarni O.Roziqov, B.Adizovlar ilgari suradilar.

V.V. Krayevskiy va I.Ya. Lernerlarning fikricha, ta’lim mazmuni o‘zaro bog‘langan komponentlarning ijtimoiy tajribasi sifatida ko‘rib chiqilgan.

1) tabiat, jamiyat, texnika, inson, faoliyat turlari to‘g‘risidagi bilimlar;

2) faoliyat turlarini ifodalovchi tajriba;

3) ijodiy faoliyat tajribasi;

4) faoliyatning obyekti va vositasi hisoblanadigan borliqqa nisbatan emotsional munosabat tajribasi.

Har bir komponentni ko‘rib chiqamiz. Birinchi komponent – bilim, ya’ni insoniyat tomonidan dunyo to‘g‘risidagi obyektiv ma’lumotlarni to‘planishi.

Bilimlarni bir necha turlari mavjud:

- 1) asosiy tushuncha va atamalar, bularsiz biror bir matnni yoki fikrni tushunib bo'lmaydi;
- 2) borliqdagi ilmiy tushuncha va faktlar, bularsiz fan qonuniyatlarini tushunish mumkin emas;
- 3) nazariyalar;
- 4) faoliyat turlari, bilish metodlari va bilimlarni olish tarixi to'g'risidagi bilimlar;
- 5) baholovchi bilimlar, hayotdagi turli hodisalarga munosabat me'yorlari.

Ikkinchi komponent – berilgan algoritm asosida mahsuldor darajada faoliyatning aniq turi bo'yicha bajariladigan ko'nikma va malakalar tajribasi.

Navbatdagi komponent – ijodiy faoliyat tajribasi. Ijodiy faoliyat inson faoliyatining mahsuldor darajasida amalga oshiriladi. Keyingi komponent – borliqqa bo'lgan emotsional munosabat.

Nazariyachilar ta'lim mazmunini darajalari to'g'risidagi g'oyalarni ilgari surmoqdalar:

- 1 Umumnazariy daraja.
- 2 O'quv predmeti darajasi.
- 3 O'quv material darajasi.

Demak, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ta'lim mazmunini shakllantirishga ta'sir etuvchi omil sifatida jamiyat ehtiyojini, jamiyatni maktab oldiga qo'yadigan maqsadini, ta'lim jarayonini real imkoniyatlarni o'quvchilarini imkoniyatlarini hamda shaxsni ma'lumotga bo'lgan ehtiyojini ko'rsatishimiz mumkin. Ta'lim mazmuniga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda ta'lim nazariyasida ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablar quyidagicha ifodalanadi.

Ta'lim mazmuni ta'limni barcha bosqichlarida ozod, erkin, mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalash maqsadiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Ta'lim mazmuni ilmiy asosda asoslangan faktlar asosida qurilishi lozim.

Har bir o'quv predmeti bo'yicha ta'lim mazmuni o'sha fanning logikasi va tizimiga mos bo'lishi kerak. Ta'lim predmetlarida aloqadorlik asosida qurilishi lozim. Ta'lim mazmunida nazariya bilan amaliyot aloqadorligi aks etishi kerak.

Ta'lim mazmuni o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos bo'lishi lozim. Shunday qilib ta'lim mazmuni – bu ko'p darajali pedagogik modelning ijtimoiy buyurtmasi, bu didaktikada ta'limni mazmuniy (ichki) tomonini ifodalaydi. Ma'lumotlar ko'lamining oshishi, fan va texnikaning rivojlanishi bilan «ta'lim mazmuni» tushunchasi mohiyati qayta ko'rib chiqildi. Rus olimi V.S.Lednevning ta'kidlashicha, ta'lim mazmuni – bu faoliyatning biror bir turi bo'yicha bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tizimidir.

Demak, ta'lim mazmuni deganda ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan berilishi o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, makalalar va shaxsda shakllanishi zarur bo'lgan insoniy sifat hamda fazilatlar yig'indisini tushunamiz. Pedagogikada ta'lim mazmunini shakllantirishning bir necha nazariyalari, paradigmasi va konsepsiyalari mavjud. Dixotomik yondashuvga asosan «nazariya», «paradigma» va «konsepsiya» tushunchalarini ko'rib chiqamiz. Dixotomiya (yunoncha dicta – ikki, tome – kesim) ikki qismga ajratishni ifodalaydi. Dixotomik yondashuv – bu tushunchani ikki qarama-qarshi, bir-birini rad qilmaydigan, ammo teng quvvatga ega qismga ajratish. Keng ma'noda nazariya – bu biror-bir hodisani ifodalovchi asosiy g'oyalar, prinsiplar, qonuniyatlar, tushuncha va kategoriyalar tizimi hisoblanadi. Demak, nazariya ta'lim mazmunini shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Ya.A.Komenskiyning «Buyuk didaktika» asari nazariyalarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida pedagogikada didaktik materializm (ensiklopedizm), didaktik formalizm, didaktik utilitarizm nazariyalari, XIX asrning ikkinchi yarmida – butun didaktik tizim nazariyasi K.D.Ushinskiy tomonidan yaratildi. Paradigma – bu kasbiy faoliyat amaliyotida qo'llaniladigan ta'limot va aniq ilmiy g'oyalardir. «Paradigma» tushunchasida urg'u aynan «aniqlangan» so'zga, ya'ni ilmiy holatlar va g'oyalar xilma-xilligiga yo'naltiriladi.

Konsepsiya – bu hali qo'llanilmagan, ammo amaliyotda o'zlashtirilishi zarur bo'lgan tushunishning aniq yo'li, asosiy nuqtayi nazar, boshlang'ich g'oya hisoblanadi. «Konsepsiya» tushunchasida asosiy so'z mavjud paradigmani to'ldiruvchi va rivojlantiruvchi tushunishning asosiy yo'liga qaratiladi. Zamonaviy pedagogika fanida

ta'lim mazmunini shakllanishining quyidagi paradigma va konsepsiyalarini jadvalda ko'rib chiqamiz.

Ta'lim mazmunini shakllantirishning asosiy konsepsiyasi va paradigmasi

Gumanistik paradigma	Faoliyat konsepsiya	Shaxsga yo'naltirilgan
<p>1. Ta'lim mazmuni – bu o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish va ularda dialektik dunyoqarashni shakllantirish uchun asos bo'luvchi aniq bilim, ko'nikma va malakalar ko'lamidir. N. V. Savin</p> <p>2. Ta'lim mazmuni – bu insonni madaniyat, jamiyat, davlat bilan o'zaro aloqadorligi qonuniyatlari, haxsni shakllanish jarayoni, o'ziga va boshqalarga munosabati, faoliyatda individual ijodiy kuchlarini qo'llash to'g'risidagi bilimlar tizimi V.A. Slastyonin</p>	<p>Ta'lim mazmuni –bu o'qituvchining pedagogik, innovatsion, jamoani o'z o'zini boshqarish va o'z o'zini rivojlantirish faoliyati subyekti bo'lishi uchun xizmat qiladigan bilim, ko'nikma va malakalari tizimidir V.S. Lazarev</p>	<p>Ta'lim mazmuni pedagog shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan asosiy kasbiy sifat va fazilatlar (kompetensiyalar) yig'indisi E.F.Zeer</p>

Shunday qilib, ta'limning zamonaviy mazmuni o'quv predmeti sifatida asosiy g'oya va konsepsiyalar asosida shakllanadi. Demak, ta'lim mazmuni o'quv predmeti sifatida – bu yosh avlod uchun amaliy faoliyatni tashkil etish va o'z o'zini namoyon qilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini va kompetensiyalarni tushunamiz. Har qanday o'quv predmeti mazmuni dinamik xarakterga ega. Jamiyat ehtiyoji va zamonaviy fan holatini

ifodalab, yangi ma'lumotlar bilan boyitilib, o'zgarib boradi. Masalan, hozirda ta'lim mazmunini demokratizatsiyalashtirish, axborotlashtirish va gumanizatsiyalashtirish to'g'risidagi ma'lumotlar bilan boyitilganligini ko'rishimiz mumkin.

Ta'lim mazmuni quyidagi vazifalarni bajaradi:

– axborot yetkazuvchi, turli fanlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ifodalaydi;

– metodologik, fan metodologiyasi bilan qurollantirish;

– ta'limiy, bilim, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish;

– rivojlantiruvchi, shaxsda jismoniy, ijodiy, hissiy, intellektual sifatlarni shakllantirish;

– tarbiyaviy, munosabatni ifodalovchi sifat va fazilatlarni shakllantirish.

3.2. Davlat ta'lim standarti. Ta'lim mazmunini tashkil etish konsepsiyasi.

Ta'limni standartlashtirish zaruriyati ta'lim sohasini ijtimoiy hodisa sifatida o'zgarishiga olib keldi. O'zbekistonni demokratiyaga, bozor munosabatlariga, shaxs ozodligi va huquqlariga e'tibori o'sishi ta'lim sohasidagi davlat siyosatini o'zgarishiga olib keladi. Endi ta'lim sohasi davlat manfaatlariga emas, balki shaxsni ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Bu o'z navbatida ta'limni tashkil etishda o'zgarishlarga olib keldi. O'quv muassasalari ta'lim shakli, metod va mazmuni sohasida mustaqillikka erishildi.

«Standart» tushunchasi inglizcha standart so'zidan olingan bo'lib, «me'yor, namuna, o'lchov» ma'nolarini anglatadi. Ta'lim standarti — bu bitiruvchini umumiy ta'lim tayyorgarligiga qo'yilgan majburiy talablar darajasidir. Ta'lim standarti bir tomondan davlatni fuqaro oldidagi, ikkinchi tomondan fuqaroni ta'lim sohasidagi davlat oldidagi majburiyatini ifodalaydi. Demak, DTS to'g'risidagi Nizomda ko'rsatilganidek, DTS kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga nisbatan qo'yiladigan talablarni; ta'lim oluvchilar tayyorgarligini zarur va yetarlicha darajasini hamda ta'lim muassasalarini bitiruvchilarga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarini; o'quv yuklamasining zarur hajmini; ta'lim sifatini baholash tartibini va mexanizmini belgilaydi. Davlat ta'lim standarti – bu me'yoriy hujjat bo'lib, bakalavrning kasbiy tayyorgarligiga qo'yilgan majburiy talab

darajasini aniqlaydi. Pedagogik ta'limni standartlashtirish bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligiga qo'yilgan talablar bilan bog'liq bo'lib, «me'yor», «namuna» sifatida ishtirok etadi. Davlat ta'lim standartlari joriy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

- ta'limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlanishini ta'minlash; – mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;

- ta'limning demokratiyalashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi,

ta'lim oluvchilarning huquqiy-iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish;

- sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;

- kadrlar tayyorlash sifatini va ta'lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash; – ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash, ta'limning barcha turlari va bosqichlarida o'quv-tarbiya jarayonini maqbullashtirish;

- mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash.

Davlat ta'lim standartlarining vazifalari:

- ta'lim sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari nomenklaturasiga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;

- ta'limga va uning pirovard natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasb-kor malakasi darajasini vaqt-vaqti bilan baholash tartibi va tartibotiga, shuningdek, ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablarni belgilovchi me'yoriy bazani yaratish;

- xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

– ta’limning barcha turlari mazmunini, ta’lim va tarbiyani kelishish va ularning o‘zaro bog‘liqligini uzluksiz ta’lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta’minlash;

– o‘quv tarbiya va ta’lim jarayoniga, uzluksiz ta’lim tizimining pedagogik texnologiyalariga va axborot bilan ta’minlanishiga, ta’lim darajasini nazorat qilishga, ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan me’yorlar va talablarni belgilash;

– ta’lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho berishning xolis tizimini, ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish va akkreditatsiya qilishni joriy etish; – kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash;

– milliy standartlar talablarining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash.

Umumiy o‘rta ta’limning maqsad va vazifalari.

Davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalash hamda shaxsning ta’lim olish huquqini ro‘yobga chiqarish umumiy o‘rta ta’limning maqsadi hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’lim bilimlar zarur hajmiga asos soladi, o‘quvchilarda tashkilotchilik qobiliyatlari va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki kasb yo‘nalishini va ta’limning keyingi bosqichini tanlashga ko‘maklashadi.

Umumiy o‘rta ta’limning vazifalari:

– o‘quvchilar tomonidan muntazam bilimlar olinishini ta’minlash, ularda bilim olish ehtiyojini rivojlantirish, bazaviy o‘quv, ilmiy va umummadaniy bilimlarni shakllantirish;

– o‘quvchilarda mehnat ko‘nikmalarini, ijodiy mustaqil fikrlashni, kasb tanlashga va atrof-olamga ongli munosabatni hosil qilish;

– milliy hamda umumbashariy qadriyatlarni uzviy birlashtirish asosida o‘quvchilarda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, o‘z vataniga va xalqiga sodiq fuqaroni shakllantirish;

– ta’limning uzluksizligini va izchilligini, maktab o‘quv dasturlarining akademik litseylar va kasb-hunar kollejlardagi o‘quv dasturlari bilan uzviy o‘zaro bog‘lanishini ta’minlash.

Umumiy o‘rta ta’lim muntazam bilimlar olinishini, keng dunyoqarash hamda ijodiy mustaqil fikrlash shakllantirilishini,

o'quvchi shaxsi qaror topishini, uning qiziqishlari va ijtimoiy o'zini-o'zi aniqlab olish qobiliyatlari rivojlantirilishini ta'minlaydi.

3.3. Ta'lim mazmunini aks ettiruvchi me'yoriy hujjatlar O'quv rejasini. O'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalari tavsifi.

Ta'lim mazmuni me'yoriy hujjatlarda Davlat ta'lim standartida, o'quv rejasida, o'quv dasturida va o'quv darsliklarida o'z aksini topadi. Davlat ta'lim standarti asosida o'quv rejasini, o'quv dasturi va o'quv darsliklari ishlab chiqiladi. O'quv reja ta'lim sohalarini me'yorlash hamda ta'lim muassasalarini moliyaviy ta'minotini belgilashga asos bo'luvchi davlat hujjati sanaladi. Tayanch o'quv rejasini o'quv predmetlari bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlarining minimum hajmidagi miqdorini belgilaydi. Mazkur hujjat muayyan sinfda ma'lum o'quv redmeti bo'yicha davlat ta'lim standartlariga muvofiq beriladigan ta'lim mazmunini aniqlashga asos bo'ladi.

O'quv dasturi ham xuddi o'quv rejasidek muhim davlat hujjati bo'lib, unda muayyan o'quv predmeti mazmuni ochib beriladi va o'quv yili davomida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi ko'rsatiladi. O'quv dasturlari tegishli ta'lim (umumiy o'rta, kasb-hunar yoki oliy ta'lim) turidagi barcha ta'lim muassasalari uchun yagona, uning talablari to'la ravishda bajarilishi majburiydir. Dastur tushuntirish xati, bo'lim va mavzular bo'yicha ajratilgan soatlar hajmi, dastur materialini mazmuni hamda tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'ladi. Tushuntirish xatida o'quv predmetining ahamiyati, uning fanlar tizimida tutgan o'rni, ular o'rtasidagi aloqadorlik, materialni o'rganish jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan ayrim bo'lim va mavzularni o'rganish xususiyatlari ko'rsatiladi. O'qitish (ta'lim) metodlari va vositalarini qo'llashga doir tavsiyalar beriladi.

Soatlar hisobini asosli o'rinlarda o'zgartirilishiga yo'l qo'yiladi. Dastur materialini bo'limlar va mavzular bo'yicha taqsimlangan bo'lib, har bir mavzuni o'rganish uchun o'zlashtirishi majburiy bo'lgan tushunchalar tizimini, shuningdek, ko'nikma va malakalarning aniq ko'rsatkichi beriladi, nihoyat, o'quvchilarga qo'yiladigan yakuniy talablar bayon etiladi. Dasturdagi material ta'lim va tarbiya maqsadlari, didaktik tamoyillar uzviylik va izchillikka muvofiq ravishda tanlanadi

va taqsimlanadi. Fanlar bo'yicha o'quv dasturi uch xil chiziqli, konsentrik va spiralli turda quriladi. Dasturni chiziqli usulda yaratish mohiyati shuki, bunda o'quv materialining alohida qismlari o'zaro bog'langan uzluksiz ketma-ketlikda joylashtiriladi. Har bir qism faqat bir marta o'rganiladi. Yangi material mazmuni o'rganilgan material asosida bog'langan tarzda o'rganiladi.

1. Dasturni chiziqli usulda tuzish.

Konsentrik usulda tuzilgan dasturda bir material bir necha bor asta-sekinlik bilan murakkablashtirish, mazmuni yangi aloqalar hisobidan to'ldirish orqali o'zlashtiriladi.

2. Konsentrik usulda dastur tuzish.

Dasturni spiralli usulda qurish o'quv materialini ketma-ket va siklik tarzda qurishni taqozo etadi.

3. Spiralli usulda dastur tuzish. № 1-1

O'quv dasturi darslik va o'quv qo'llanma yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Darslik – bu aniq soha bo'yicha fan va madaniyat yutuqlarini zamonaviy darajadagi fan asoslarini tizimli ifodalovchi, ta'lim va tarbiyaning maqsad hamda vazifalariga javob beruvchi kitob. O'quv darsligida o'quv dasturining aniq, to'la mazmuni o'z ifodasini topadi.

Darslik bilimni asosiy manbai hisoblanadi. U yordamida o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi va u ta'limni asosiy vositasi hisoblanadi. Darslik o'quvchiga o'qishni o'rgatishi kerak. Darslikdagi o'quv material mazmuni o'quvchilarni yosh imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak. O. Roziqovning ta'kidlashicha, o'quv darsliklari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Bilish, o'rganish, izlanishga oid qiziqishlarni oshirish funksiyasi.

2. Hayotning turli sohalariga oid bilimlarni egallash, ularning hajmi, mazmunini kengaytirish funksiyasi.

3. O'rganilgan bilimlardan o'quv sharoitida, hayotiy muammolarni hal qilish jarayonlarida foydalanish funksiyasi.

4. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish funksiyasi.

5. Munosabatlarni shakllantirish funksiyasi.

O'quv qo'llanma –bu ma'lum bir fan asoslari muallifning ilmiy qarashlari va nuqtayi nazariga qarab yoritiladigan kitob. O'quv qo'llanmada mustaqil ish uchun tavsiya etilgan uslubiy tavsiya, lug'at,

nazorat uchun savollar berilishi mumkin. Darslik va o‘quv qo‘llanmalar – bu o‘quvchilarni mustaqil ishlarini tashkil etish va bilim manbai sifatida ta’limning didaktik vositasi hisoblanadi. Darslik va o‘quv qo‘llanmasi quyidagi didaktik mezonlarga javob berishi kerak:

- pedagogik bilimlarni tizimli va har taraflama bayon etish;
- zaruriy va faktik materiallarni aniq ifodalash;
- qisqa va lo‘nda ifodalash;
- ifodalashni mosligi;
- uslubiy apparatni mavjudligi (mustaqil ish uchun topshiriqlar, nazorat uchun savollar, tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati v. b.);
- turli xildagi ko‘rgazmalilikni qo‘llanilishi (jadvallar, sxemalar, grafiklar, simvollar). Fanga tegishli shunday mavzular borki, ularni mazmuni ilmiy adabiyotlarda monografiya va ilmiy maqolalarda ochib beriladi.

Monografiya – bu biror bir ilmiy muammoga bag‘ishlangan, mazmunida nazariy metodologik yoki nazariy eksperimental hamda tarixiy pedagogik tadqiqot natijalari yoritilgan ilmiy nashr. Monografiyada tadqiqotchining mualliflik nuqtayi nazari asoslanadi. Ilmiy maqola –bu tadqiqodchining muammo bo‘yicha xulosalari va natijalari maqsadi, metodikasi aniq ifodalangan ishdir. Maqola mazmuni muallifning qarashlarini ifodalaydi. Ta’kidlash joizki, ilmiy adabiyotni darslik va o‘quv qo‘llanmadan farqi shuki, uning asosiy vazifasi u yoki bu ilmiy va amaliy muammo bo‘yicha ilmiy ma’lumotlar to‘g‘risida xabar berish hisoblanadi. O‘quvchilarga ilmiy adabiyotlarni o‘qish va tahlil qilish bo‘yicha tavsiyalar berish zarur.

√ **Nazorat uchun savollar**

1. Ta’lim mazmuni deganda nimani tushunamiz?
2. Ta’lim mazmuni mohiyatini aniqlashga bo‘lgan qanday yondashuvlar mavjud?
3. Ta’lim mazmunini tanlash prinsiplari va mezonlari qaysilar?
4. Davlat ta’lim standarti qanday hujjat?
5. Ta’lim mazmunini aks ettiruvchi me’yoriy hujjatlarga qaysilar kiradi?



IV MAVZU: TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI. TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA TURLARI.

√ **Tayanch soʻzlar:** metod, taʼlim metodi, taʼlim usuli, qoida, intrefaol metod, metodika, texnologiya, didaktik vosita, taʼlimning texnik vositalari, tashkil etish, shakl, taʼlimnitashkil etish shakli, taʼlimnitashkil etish tizimi, dars.

4.1. Taʼlim metodlari va usullari tushunchalari.

Taʼlim metodi tushunchasi anchagina murakkabdir. Shu bois pedagogikada uning tobora aniq talqini xususida munozara haligacha davom etmoqda. Biroq bu tushunchaga beriladigan didaktlarning turli taʼriflariga qaramay, ularning nuqtai nazarlarini yaqinlashtiradigan qandaydir umumiylikni ham taʼkidlash mumkin. Koʻpchilik mualliflar taʼlim metodini oʻquvchilarning oʻquv bilish faoliyatini tashkil etish usuli, deb hisoblashga moyildir.

Shu qoidani boshlangʻich nuqta bilib, mazkur tushunchani yanada batafsil koʻrib chiqish va uning ilmiy taʼrifiga kelishga harakat qilamiz.

Metod soʻzi yunoncha tadqiqot, maqsadga erishish yoʻli, usuli deganidir. Metod – eng umumiy maʼnoda – maqsadga erishish usuli, maʼlum tarzda tartibga solingan faoliyat. Koʻrinadiki, bu oʻrinda ham oʻqituvchining oʻrgatuvchi ishi va u tashkil etgan oʻquvchilarning faol oʻquv-bilish faoliyati uygʻunlashadi.

Taʼlim metodlari deyilganda, oʻrganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish boʻyicha oʻqituvchining oʻrgatuvchi ishi va oʻquvchilarning oʻquv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yigʻindisi tushuniladi.

Didaktikada, shuningdek, taʼlim usullari atamasi ham keng qoʻllanadi. **Taʼlim usuli** – taʼlim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Metodlar bilan usullar munosabati oʻzaro bir-biriga bogʻlangan. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bogʻlanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki oʻquv vazifasining bir qismi hal qilinadi. Xuddi shu metodik usullar turli metodlarda foydalanilgan boʻlishi mumkin. Va aksincha, xuddi shu metod turli oʻqituvchilar tomonidan turli usullarda ochib berilishi mumkin.

Ta'lim usuli – o'qitish metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog'lanadi. Usullar yordamida faqat o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi.

Masalan, o'qituvchilar tomonidan ko'p qo'llaniladigan mashq manbasiga ko'ra amaliy metod hisoblansa, uni qo'llash esa bir nechta usullar (mashqning qoidasini o'qib berish (1-usul), bittasini namuna sifatida bajarib ko'rsatish (2-usul), o'qituvchining namunasi asosida o'quvchilar tomonidan mashqning bajarilishi (3-usul), o'quvchilar tomonidan bajarilgan mashqlarni tekshirish va xatolarini tuzatish (4-usul) va boshqalar) yordamida amalga oshiriladi.

O'qituvchilarning ayrimlari esa, "metod" tushunchasining o'rniga "uslub" tushunchasini ham qo'llaydilar. Ammo "uslub" tushunchasi "metod" atamasining mohiyatini o'zida to'liq aks ettira olmaydi. Chunki uslub ko'proq xususiy (so'z borayotgan holatda aynan o'qituvchiga xoslikni ifoda etadi) tavsifga ega bo'lib, aniq maqsadga erishish yo'li sifatida xizmat qila olmaydi.

Pedagogik texnologiya – bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat japyoni mazmunidir.

Ta'lim amaliyotida "pedagogik texnologiya" tushunchasi uch darajada qo'llaniladi:

Umumpedagogik (makro) daraja. Mazkur darajaga muvofiq keladigan texnologiyalar yaxlit pedagogik jarayonga tegishli bo'lib, ularga muammoli, tabaqalashtirilgan, integratsion, shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi, modulli, masofali o'qitish texnologiyalarini misol sifatida keltirish mumkin. Mazkur texnologiyalar innovatsiya tavsifiga ega bo'lib, novator o'qituvchilar, olimlar va izlanuvchilar tomonidan ishlab chiqiladi hamda samaradorligi kafolatlanganidan va amaliyotga keng tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'linganidan so'ng uni amaliyotchi o'qituvchilar o'z faoliyatida qo'llaydilar.

Xususiy-metodik (mezo) daraja. Ushbu daraja o'zida ma'lum bir o'quv fanini o'qitish jarayonini loyihalash va rejalashtirishni o'zida aks ettiradi. Masalan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'qish darsini har safar texnologik modeli va xaritasini tuzib kelishi kerak. Hozir ko'p ta'kidlanayotgan texnologik model loyihalashga, texnologik xarita rejalashtirishga to'g'ri keladi. Natijada har bir fanni o'qitish texnologiyasi yuzaga keladi.

Lokal daraja (mikro). Mazkur darajaga tegishli texnologiyalar o‘quv-tarbiya jarayonining ma’lum tarkibiy qismi, alohida shaxs sifatlarini shakllantirish, maxsus o‘quv ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirishga xizmat qiladi. Masalan, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirish texnologiyasi, o‘quvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi va boshqalar.

Metodika – qat’iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o‘rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish bo‘lib, biror bir ishni maqsadga muvofiq o‘tkazish metodlari, yo‘llari majmuasi. “Metodika” tushunchasi turli fanlarni o‘qitish bilan ham bog‘liqlikda qo‘llanilib, ma’lum sohani o‘qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig‘indisini o‘zida ifoda etadi.

“Metodika” va “texnologiya” tushunchalarining bahs doirasi bilan ham bog‘liqlikda ayrim farqli jihatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Jumladan, metodik tizim “Qanday o‘qitish?”, “Nima uchun o‘qitish?”, “Nimaga o‘rgatish?” kabi savollarga javob izlaydi, texnologiya esa, “Qanday tarzda samarali o‘qitishga erishish mumkin?” degan savolni markazga qo‘yadi. Metodika o‘quv jarayoninin qanday tarzda tashkil etish lozimligini nazarda tutsa, texnologiya qay yo‘sinda o‘quv jarayonini eng qulay, maqbul tarzda amalga oshirishga diqqat-e’tiborni qaratadi.

4.2. Zamonaviy didaktikada ta’lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar.

Didaktik tadqiqotlar ko‘rsatadiki, ta’lim metodlari nomenklaturasi (nomlanishi) va tasnifi ularni ishlab chiqishda tanlangan yondashuvga bog‘liq holda juda xilma-xil ekanligi bilan xarakterli. Ulardan eng muhimlariga to‘xtalamiz.

Ta’lim metodlari tasnifi: An’anaviy (manbasiga ko‘ra) ta’lim metodlari (E.I.Golant, N.M.Verzilin va bosh.)

Og‘zaki	Ko‘rgazmali	Amaliy	Kitob bilan ishlash	Video-metod
Hikoya Suhbat Tushuntirish Ma’ruza	Illyustratsiya Demonstratsiya	Mashq Amaliy Laboratoriya	O‘qish O‘rganish Reja tuzish	Ko‘rish, O‘rgani sh,

Munozara		Didaktik o'yin	Konspekt qilish	Nazorat qilish
----------	--	----------------	-----------------	----------------

O'quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko'ra ta'lim metodlari tasnifi (I.Ya.Lerner va M.N.Skatkin).

Ta'lim metodining nomlanishi	O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati
Axboriy-retseptiv	O'quv axborotini uzatish, o'rganilayotgan ob'ekt bilan o'quvchi harakatini tashkil etish	Bilimlarni idrok etish, anglash va yodda saqlash.
Reproduktiv	Bilimlar hamda aqliy va faoliyat usullarini hosil qilishga doir topshiriqlarni tuzish va taqdim etish	Namuna asosida bilimlarni hamda aqliy va faoliyat usullarini egallash.
Muammoli bayon etish	Muammoni qo'yish va uni hal etish usullarini ochib berish	Topshiriqni idrok etish va uni qismlarga ajratish. Topshiriq qismlarini mustaqil hal etish va o'z-o'zini nazorat qilish
Evristik (qisman-izlanish)	Muammoni qo'yish va uni hal etishga doir qadamlar ketma-ketligini rejalatirish. O'quvchilar faoliyatini boshqarish	Qo'yilgan vazifa bilan bog'liqlikda muammoni hal etish yo'llarini mustaqil izlash va o'qituvchining qisman ko'magi yordamida muammoni hal etish
Tadqiqotchilikka doir	Mustaqil hal etishga doir muammoli vazifalarni shakllantirish. Muammoni hal etilish jarayonini nazorat qilish	Muammoni mustaqil hal etish.

Asosiy didaktik maqsadlariga ko'ra ta'lim metodlari tasnifi (M.A.Danilov va B.P.Esipov):

- Yangi bilimlarni egallash metodlari;
- Ko‘nikma va malakalarni shakllantirish metodlari;
- Bilimlarni amaliyotda qo‘llash metodlari.

Ta‘limning binar metodlari (M.I.Maxmutov).

O‘rgatish metodlari	O‘rganish metodlari
Axboriy-ma‘lumotli	Ijro etish (bajarish)
Tushuntirishli	Reproduktiv
Ko‘rgazmali-amaliy	Ijodiy-amaliy
Tushuntirishli-undovchi	Qisman izlanishli
Undovchi	Izlanishli

Yaxlit yondashuv bo‘yicha ta‘lim metodlari tasnifi (Yu.K.Babanskiy):

- Bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat qilish metodlari.
- O‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari.
- O‘quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash va rag‘batlantirish metodlari.
- O‘quv-bilish faoliyatini nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari.

Interfaol metodlar va grafik organayzerlar.

O‘rganilayotganlarini o‘zlashtirishga da‘vat qilish metodlari	Yangi materialni anglash metodlari	O‘rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar
Erkin yozish. Klaster. Aqliy hujum. B-B-B chizmasi. Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi. Semantik xususiyatlar tahlili.	Semantik xususiyatlar tahlili. B-B-B chizmasi. O‘qitish bo‘yicha qo‘llanma. Bir-biriga o‘rgatish. Bir-biridan so‘rash. Ikki qismli kundaliklar.	Eng asosiy tushunchalar, takrorlash. T-chizma. Kontseptual jadval. Venn diagrammasi. Nilufar guli. Besh minutlik esse. O‘n minutlik esse.

Ta‘lim metodlarining mohiyati va mazmuni

Hikoya – o‘qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo‘lib, tasviriy vositalar yordamida

obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi. Metodning samarasi ko'p jihatdan o'qituvchining nuqt mahorati, so'zlarni o'z o'rnida, ifodali bayon qilishi, shuningdek, o'quvchilarning yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olgan holda yondashuviga bog'liq. Shu bois hikoya mazmuni o'quvchilarning mavjud bilimlariga tayanishi, ularni kengaytirishga xizmat qilishi zarur. Hikoyaning axborotlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir.

Hikoya qilinayotgan materialni samaralash maxsus reja asosida amalga oshiriladi. O'qituvchi har bir darsda uning maqsadini aniq belgilab oladi, undagi asosiy tushunchalarga alohida urg'u berishga e'tiborni qaratadi.

Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi bo'lib, u fanga qadimdan ma'lum, xatto undan o'z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat ta'lim jarayonida ko'p funksiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi o'quvchida faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat o'qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi.

Suhbat – faoliyatni endigina boshlagan o'qituvchi uchun murakkab ta'lim metodi hisoblanadi, binobarin, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta'minlash ko'p vaqt talab etadi, uni tashkil etishda esa barcha o'quvchilarning diqqatini jalb etish talab qilinadi. O'qituvchi oddiy savollar berishi, o'quvchilarga ular yuzasidan batafsil o'ylash uchun vaqt ajratishi, o'quvchilarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o'rinlarda ularni sharhlashi lozim. Shu bois suhbatda bilish deduktiv yoki induktiv yo'l bilan amalga oshadi. Deduktiv suhbat o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, o'quvchilar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladilar. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlil asosida umumiy xulosaga kelinadi.

Suhbat ko'proq o'quvchilarni yangi bilimlar bilan tanishtirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash, nazoratni tashkil etish hamda o'zlashtirilgan bilimlarni tashxislashda ijobiy natijalarni beradi. Suhbat turli ko'rinishlarda, ya'ni, kirish, yakuniy, individual va guruhli suhbat tarzida tashkil etiladi.

Tushuntirish o'quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga

nisbatan birmuncha keng qo'llaniladi. Undan odatda, nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o'rganishda foydalaniladi. Tushuntirish jarayonida o'quv materialining bir qadar qiyin unsurlari ko'zga tashlanadi va shu asosda materialning mohiyati ochib beriladi. Tushuntirish samarasi ko'p hollarda o'qituvchining ko'rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog'liq bo'ladi.

Ma'ruza – yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish metodi sanalib, uning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: qat'iy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko'pligi, bilimlar bayonining tizimliliigi. Maktab ma'ruzasi mazmunini murakab tizimlar, hodisalar, obyektlar, jarayonlar, ularning sababli-oqibatli bog'lanishlari, qonun va qoidalar tashkil etadi. Shu bois ma'ruza maktab sharoitida yuqori sinflardagina qo'llaniladi. Chunki u butun dars jarayonini qamrab olishi mumkin. Ma'ruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi va bir vaqida o'quvchilarni qisqacha yozib olish (konspektlash)ga o'rgata boradi.

Ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda **ko'rgazmali metodlar** ham alohida ahamiyatga ega.

Tasvir (illyustratsiya) metodi namoyish metodiga chambarchas bog'liq bo'lsada, didaktikada alohida o'rganiladi. Ilyustratsiya narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko'rinishlari – chizma, port, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko'rsatishni taqozo etadi.

Namoyish (demonstratsiya) metodi o'rganilayotgan obyekt harakat dinamikasini ochib berishda qo'l keladi va ayni chog'da predmetning tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishi haqida to'laqonli ma'lumot berishda keng qo'llaniladi. Tabiiy obyektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko'rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o'zaro munosabatlari)ga e'tibor qaratiladi, so'ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o'rganishga o'tiladi. Ko'rsatish ko'p holatlarda o'rganilayotgan obyektlarning subyekt yoki chizmasi yordamida kuzatiladi.

Amaliy metod – o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar echimini topishga yo'naltirilgan jarayonda qo'llashni taqozo etadi. Bunda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasi hosil qilinadi. Amaliy ishlar sinfda yoki tabiiy sharoitlar – maktab er maydoni, issiqxona, geografik maydonlarda amalga oshiriladi. Ularni amalga oshirishda sodir etiladigan harakatlar o'qituvchi tomonidan nazorat

qilinadi va zarur hollarda yo‘riqnoma yoki maxsus ko‘rsatmani o‘quvchilar e‘tiboriga havola etadi.

Mashq – aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko‘nikmalarini egallash yo‘lidagi ko‘p marta takrorlanishlar bo‘lib, mashqsiz ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirish mumkin emas. Mashqlar og‘zaki, yozma, gradikaviy (texnik jarayonlar mohiyatini ifodalash), ijtimoiy-foydali, jismoniy va boshqa turlarga bo‘linadi.

Laboratoriya ishlari o‘quvchilarning jihoz, maxsus uskuna, qurol hamda turli texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o‘tkazish metodlari bo‘lib, ular ko‘proq tabiiy fanlar asoslarini o‘rganishda qo‘llaniladi. Bu metod o‘quvchilarning asbob-uskunalar bilan ish ko‘rish, o‘lchash ishlarini amalga oshirish va ularning natijalariga ishlov berish kabi ko‘nikmalarini tezkor shakllantirishga imkon beradi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma va jihozlar, shuningdek, materiallar hamda vaqtni sarflash, ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi. Biroq bu harakatlar o‘quvchilarning yuqori darajadagi faolligi asosida mustaqil ravishda tajriba va o‘lchash ishlarini tashkil etish bilan takomillashtirilib boriladi.

Didaktik o‘yin o‘rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o‘quvchining bilishga bo‘lgan qiziqishi va faollik darajasini rag‘batlantiruvchi o‘quv faoliyati turi. Ayni vaqtda o‘yin ham ijtimoiy faoliyat ko‘rinishi sanaladi.

Ta’lim metodlarini tanlash. Pedagogika fanida, o‘qituvchilarning amaliy tajribasini o‘rganish va umumlashtirish asosida ta’lim metodlarini tanlashga o‘quv tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog‘liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

- Ta’limning umumiy maqsadlari.
- Fanning va o‘rganilayotgan mavzuning mazmuni hamda o‘ziga xosliklari.
- Biror fanni o‘qitish metodikasining o‘ziga xosliklari.
- Materialni o‘rganishga ajratilgan vaqt.
- O‘quv mashg‘ulotining maqsadi, vazifalari va mazmuni.
- O‘quvchilarning yoshi va bilish imkoniyatlari.
- O‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi.

- Ta'lim muassasasining moddiy ta'minlanganligi.
- O'qituvchining nazariy, amaliy va metodik tayyorgarligi, pedagogik mahoratni egallaganlik darajasi.

Ta'lim vositalari. Ta'lim metodlari ta'lim vositalari bilan birgalikda qo'llaniladi. Ta'lim vositalari – bu yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan obyekt. Ta'lim vositalari katta ahamiyatga ega. Ta'limning barcha vositalari ta'lim maqsadlarini muvafaqqiyatli amalga oshiradi.

Didaktik vositalar deganda, o'quv va ko'rgazmali qo'llanmalar, namoyishli qurilmalar, texnik vositalar tushuniladi.

Ta'lim vositalari o'zida o'quv-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan moddiy yoki ma'naviy qadriyatlarni aks ettiradi. Odatda ular ta'lim metodlariga mos holatda foydalaniladi. Biroq agar metodlar «qanday o'qitish» savoliga javob bersa, vositalar esa, «uning yordamida niamani o'qitish» savoliga javob beradi.

An'anaviy ravishda qo'llaniladigan ta'lim vositalariga darslik, rasmlar, jadvallar, nutq, o'quv-ustaxonasi jihozlari, laboratoriyalar, axborot vositalari, o'quv jarayonini tashkil etish boshqarish vositalari kiradi.

Didaktik vositalar metodlar singari ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarni bajaradi. Bundan tashqari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini hosil qilish, boshqarish va nazorat qilish vazifalarini bajaradi.

Didaktik vositalar audivizuallik tafsilotida motivatsion, axborot, ta'lim jarayonini boshqarish, optimallashtirish funksiyalarini bajaradi.

Fanni o'qitish bilan bog'liq holda ta'lim vositasi tanlanadi. O'qituvchi o'zining ixtiyori bo'yicha ko'rgazmali material, o'quv qo'llanmadan foydalanishi mumkin. Ta'lim vositasini qo'llashning yana bir jihati albatta ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida aks ettirishidir.

Ta'lim vositasini tanlab olish ta'lim metodini tanlab olish bilan bog'liq. Agar ta'limning faol metodi(kitob bilan ishlash, mashqlar) foydalanilsa, u holda o'quv qo'llanmalari, darsliklar va ta'limning texnik vositalaridan foydalaniladi. Aynan ta'limning aktiv-texnik vositalari amaliy metodlarda foydalaniladi.

Ta'limning faollikni nisbatan kam talab etadigan metodlari(o'quvchilar eshitadi, ya'ni hikoya, ma'ruza, tushuntirish, ekskursiya) ta'limning ko'rgazmali vositalaridan foydalaniladi. Ta'limning ko'rgazmali vositalari pedagogning o'zi tomonidan tuzilgan bo'lishi mumkin.

Vositalarning istalgan turidan foydalanishda o'lchov va mutanosiblikka e'tibor berish kerak. Masalan, ko'rgazmali vositalarning soni etarli bo'lmasligi bilimlarning sifatigata'sirko'rsatadi, bilishga qiziqishni pasaytiradi, obrazli idrok etishni rivojlantirmaydi. Ulardan haddan tashqari foydalanish o'quvchilarning o'rganilayotgan fanga engil-elpi qara-shiga olib keladi. Murakkab mavzularni o'rganishda 4-5 demonstratsiya optimal hisoblanadi.

Ta'lim vositalari tasnifi aniq va yagona bo'lishi mumkin emas. Ta'lim vositasining ahamiyatli tomoni ularning birgalikda qo'llanilishidir va hech qachon bir-birini inkor etmaydi. O'qituvchining vazifasi – dars jarayonini faollishtirish uchun ta'limning samarali vositasini tanlab olishdir.

Ta'lim vositalarini tasniflashda turli asoslarga ko'ra yondashish mumkin:

- faoliyat sub'yektiga ko'ra;
- faoliyat obyektiga ko'ra;
- o'quv axborotiga munosabatiga ko'ra;
- o'quv jarayonidagi vazifasiga ko'ra.

Faoliyat subyektini bo'yicha ta'lim vositalari o'rgatish va o'rganishga bo'linadi.

O'rgatish vositalari. Masalan, namoyishli-tajriba qurollari. Bunday qurollar o'qituvchi tomonidan mavzuni tushuntirish va mustahkamlash uchun qo'llaniladi.

O'rganish vositalari. Masalan, laboratoriya-praktikum qurollari. Bunday vositalar o'quvchilar tomonidan yangi bilimlarni egallash uchun qo'llaniladi.

Didaktik vositalar o'qituvchi va o'quvchi uchun xosligiga qarab, ikkiga bo'linadi. Birinchisiga ko'ra, narsalar o'qituvchi tomonidan ta'limning maqsadlarini samarali realizatsiyalash uchun qo'llanilsa, ikkinchisi – bu o'quvchilarning individual vositalari, darsliklar, daftarlar. Bundan tashqari didaktik vositalar o'qituvchi va o'quvchilar

faoliyat turiga ko'ra sport qurollari, botanika va geografiya maydonchasi, kompyuterlarga ham bo'linadi.

Faoliyat obyektlari bo'yicha ham ta'lim vositalari ikkiga bo'linadi:

Material ta'lim vositalari. Bu o'quv qo'llanmalari, darsliklar, jadvallar, maketlar, modellar, o'quv-texnik vositalar, mebel, o'quv-laboratoriya qurilmalari, ko'rgazmali vositalar bo'lishi mumkin.

Ideal ta'lim vositalari – bular pedagog va o'quvchilar yangi bilimlarni egallashda qo'llaydigan vositalar: chizmalar, sxemalar, diagrammalar, tasviriy, san'at, nutq, xat va boshqalar. Ideal vositalar – bu «fikrlar haqidagi fikrlar»: o'qituvchi ularni o'rgatish uchun belgilangan shaklda ko'rsatishi zarur. Masalan, materializatsiya – abstrakt simvollar tarzida ko'rsatiladigan vosita (grafiklar, jadvallar, chizmalar), verbalizatsiya – nutq bayoni tarzida ko'rsatiladigan vosita (tahlil, muhokama qilish, dalil keltirish).

Material va ideal vosita bir-birini to'ldiradi. Material vosita qiziqish va diqqatni uyg'otish, amaliy harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lsa, ideal vositalar – mantiqiy muhokama. Materialni tushuntirish, nutq madaniyati, yod olish bilan bog'liq.

O'quv axborotiga munosabatiga ko'ra ta'lim vositalari yangi materialni o'rganish vositalari, takrorlash, mustahkamlash, umumlashtirish vositalari, bilimlarni nazoart qilish vositalari, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari va axborot vositalariga bo'linadi.

O'quv jarayonidagi vazifasiga ko'ra ta'lim vositalari kommunikatsiya (muloqot) va o'quv ishlari vositalariga tasnif etiladi. O'quv ishi vazifa, muammo, masalalarni hal etish, turli mashqlarni bajarish jarayonidir. Ta'lim – kommunikatsiya (muloqot) o'qituvchi va o'quvchilarning o'quv faoliyati sanaladigan kommunikativ-faoliyatli jarayon. Kommunikatsiya – bu kodlash (o'qituvchi nutqidagi atamalarda), uzatish (yozilish) va o'quvchilarning axborotni qabul qilishi (tushunish va dastlabki eslab qolish).

Didaktik vositalar his qilish, sezish uchun foydalanishiga ko'ra ham tasnif qilinadi. Bunday bog'liqlikka ko'ra didaktik vositalar vizual (ko'rish) – haqiqiy (original) narsalar yoki turli obrazli ekvivalentlari, diagrammalar, kartalar; audial (eshitish) – radio, magnitofon, musiqa asboblari; audioizual (ko'rish-eshitish) – ovoqli filmlar, televidenie, kompyuterlar, didaktik mashinalar, elektron darsliklar.

Ta'limning texnik vositalari. TTV – bu o'zida o'quv-axborotlarini ekranli-ovozli aks ettiruvchi asbob va moslamalardir. Ularga quyidagilar kiradi: o'quv kinofilmlari; diafilmlar; kompyuterlar; magnitofon tasmlari; radioeshittirish; teleko'rsatuvlar.

Ta'limning texnik vositalarini quyidagi turlarga ajratish mumkin: axborot; aralash(kombinatsion); trenajor; bilimlarni nazorat qilish vositalari; audiovizual vositalar.

Ta'limning texnik vositalari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- ta'limning sifati va samaradorligini oshiradi;
- o'quv jarayonining jadallashuvini ta'minlaydi;
- o'quvchilarni idrok qilishga yo'naltiradi;
- o'quvchilarda bilimlarni egallashga nisbatan katta qiziqish hosil qiladi;
- dunyoqarashni, ishonchni, o'quvchilarning axloqiy qiyofasini shakllantirishga yordam beradi;
- o'quv ishiga nisbatan o'quvchilarda emotsional munosabatni oshirishni ta'minlaydi;
- bilimlarni nazorat, o'zini-o'zi nazorat qilishni ta'minlaydi.

4.3. Dars – ta'lim tashkil etishning asosiy shakli.

Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o'quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o'quvchilarning mashg'ulot jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlari va ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Dars ta'limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o'ziga xos belgilarga ega, chunonchi: o'quvchilarning doimiy guruhi, o'quvchilar faoliyatiga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o'rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari darsning faqat mazmunini emas, balki o'z xususiyatini ham aks ettiradi).

Darsning turlari va tuzilishi. Darsning quyidagi turlari mavjud:

- Aralash (kombinatsion dars).
- Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.

- O‘rganilganlarini takrorlash va mustahkamlash darsi.
- O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish darsi.

- Laboratoriya darslari.
- Amaliy darslar.

Aralash darsning tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) o‘tilgan mavzuni takrorlash (uy vazifasini tekshirish);
- v) yangi mavzuni bayon qilish;
- g) o‘rganilgan materialni mustahkamlash;
- d) o‘quvchilarni baholash;
- e) uy vazifasini berish.

Yangi bilimlarni bayon qilish darsining tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) yangi mavzuni bayon qilish;
- v) o‘rganilgan materialni mustahkamlash;
- d) uy vazifasini berish.

O‘rganilganlarni takrorlash va mustahkamlash darsining tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) o‘rganilgan mavzularga doir savol-javob o‘tkazish;
- v) o‘rganilgan mavzularga doir amaliy topshiriqlarni bajarish;
- g) o‘quvchilarni baholash.

O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish darsining tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) o‘rganilganlarni umumiy tarzda takrorlash (yodga tushirish);
- v) nazorat ishini o‘tkazish;
- g) uy vazifasi (o‘rganilganlarni qayta takrorlash maqsadida).

Laboratoriya darslarining tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) nazariy materiallarni mustahkamlash;
- v) laboratoriya ishini o‘tkazish;
- g) o‘quvchilarni baholash;
- d) uy vazifasi.

Amaliy darslarning tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;

- b) nazariy materiallarni mustahkamlash;
- v) amaliy ish topshiriqlarini bajarish;
- g) o‘quvchilarni baholash;
- d) uy vazifasi.

Darsga qo‘yiladigan talablar. Har bir dars quyidagi uchta asosiy maqsadga erishishga yo‘naltiriladi: **o‘qitish, tarbiyalash, rivojlantirish.** Ana shularni hisobga olib darsga umumiy talablar didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablarda aniq ifodalanadi.

Didaktik (yoki ta’lim)iy talablarga har bir darsning ta’lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko‘rinishlaridan mos ravishda foydalanish, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, jamoaviy faoliyat usullari bilan birga o‘quvchilar mustaqil faoliyatlarini turli shakllaridan birga foydalanish, operativ qayta aloqani ta’minlash, amaliy nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, ilmiy mo‘ljal va darsni mahorat bilan o‘tkazishni ta’minlash kabilar kiradi.

Darsga nisbatan qo‘yiladigan **tarbiyaviy talablar** o‘quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo‘lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo‘yish, faqat o‘quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o‘quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mas’uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e’tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish, o‘quvchilarga diqqat-e’tiborli munosabatda bo‘lib, pedagogik odob talablariga amal qilish, o‘quvchilar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo‘lishdan iborat.

Barcha darslarda doim amalga oshirilib boriladigan **rivojlantiruvchi talablarga** o‘quvchilarda o‘quv-o‘rganish faoliyati ijobiy sifatlari, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollik shakllantirish hamda rivojlantirish, o‘quvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o‘rganish, hisobga olish, “rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish”, “o‘zib ketish” darajasidagi o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish, rivojlanishidagi yangi o‘zgarishlarni rag‘batlantirish, o‘quvchilarning intellektual, emotsional, ijtimoiy rivojlanishlaridagi

«sakrash»larni oldindan ko‘ra bilish, boshlanayotgan o‘zgarishlarni hisobga olish asosida o‘quv mashg‘ulotlarini operativ qayta qurish kabilar kiradi.

O‘qituvchining darsga tayyorgarligi. O‘qituvchining darsga tayyorgarligida quyidagi to‘rtta bosqich ko‘zga tashlanadi: **tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish va rejalashtirish.** Algoritmni amalga oshirish aniq sharoitlarni tashxislash bilan boshlanadi. **Tashxis** didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir. Unda o‘quvchilarning imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, o‘quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, yangi axborotni o‘zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish, bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo‘ladi. **Bashoratlash** bo‘ljak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma‘qulini tanlab olish. **Loyihalashtirish va rejalashtirish** o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo‘lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Loyiha (boshqarish dasturi) qisqa va aniq, erkin tuzilgan, pedagog o‘zi uchun boshqarish jarayoni muhim vaziyatlari (kimdan va qachon so‘rash, qayerda mavzuni kiritish, mashg‘ulot keyingi bosqichiga qanday o‘tish, oldindan ko‘zda tutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganida jarayonni qaysi sxema bo‘yicha qayta o‘zgartirish)ni belgilab olishga imkon beruvchi hujjatdir.

Ta‘limni tashkil etishning yordamchi shakllari. Ta‘limning yordamchi shakllari: to‘garak, konferentsiya, maslahat (konsultatsiya), fakultativ mashg‘ulot, o‘quv ekskursiyalari, o‘quvchilarning mustaqil uy ishlari va boshqalar sanaladi.

Maktabdan tashqari mashg‘ulotlarning asosiy va barqaror turlariga o‘qish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladigan, o‘quvchilarning **mustaqil uy ishlari** kiradi. Uning asosiy maqsadi – darsda o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarini kengaytirish, chuqurlashtirish, ularni esdan chiqarishning oldini olish, o‘quvchilarning individual layoqati, iste‘dod va qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Fan to‘garaklari yo‘nalishi, mazmuni, ish metodi, o‘qish vaqti va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Ular o‘quvchilarning qiziqish va

qobiliyatlarini rivojlantirish, o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi..

Ta'limning yordamchi shakllariga **ekskursiyalar** ham kiradi. Ular ommaviy, guruhli va kichik guruhli bo'lishi mumkin. O'quv ekskursiyalari alohida fanlar hamda bir qancha fanlar bo'yicha ham rejalashtiriladi. Ekskursiyani muvaffaqiyatli o'tkazish uchun o'qituvchi unga puxta tayyorlanishi: ob'ekt va mashrut bilan oldindan tanishib chiqishi, to'la rejani ishlab chiqishi, o'quvchilarni bo'lajak topshiriqlarni bajarishga jalb eta olishi kerak.

O'quv rejasi turli **fakultativ va tanlov bo'yicha kurslarni** tashkil etishni ko'zda tutadi. Ular o'quvchilar, ularning ota-onalari istak va qiziqishlarini hisobga olish bilan bog'liqlikda ishlab chiqiladi. Fakultativ va tanlov fanlari ro'yxatini aniqlashda faqat o'quvchilar istaklari emas, balki ijtimoiy talablar va maktab imkoniyatidan kelib chiqiladi. Fakultativ va tanlovi bo'yicha mashg'ulotlar majburiy va umumiy o'rta ta'lim fanlari bilan uzviy bog'liqlikda o'tkazilishi kerak.

Maslahat (konsultatsiya - o'quv suhbat)ga talablar ko'pincha o'quvchilarning ma'lum o'quv material yoki topshirig'i ustida mustaqil ishlashi sababli yuzaga keladi. Bunda ko'proq o'quvchi savol beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarga o'quv materialini egallashda qiyinchiliklarni engishga yordam beradi. Konsultatsiya davomida o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini u yoki bu masalani to'g'ri tushunishga mustaqil keladigan, ular uchun qiyin topshiriqni tushunib oladigan qilib, o'rganilayotgan materialni mohiyatini ochishga o'rganadigan qilib yo'naltiradi. Konsultatsiya o'qituvchiga o'quvchilar bilimlaridagi kamchiliklarni aniqlash, alohida e'tibor berishni talab etuvchi vaziyatlarga ularning diqqatini jalb etishga imkon beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarda o'zini nazorat qilish, bilimlarga tanqidiy ko'z bilan qarashni tarbiyalaydi. O'qimishlilik darajasini to'g'ri aniqlashga yordam beradi.

4.4. Ta'limni tashkil qilish shakllari haqida tushuncha.

Ta'limni tashkil etish shakli – bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan o'quv-bilish faoliyatining tashqi ifodasidir.

Jahon pedagogika fani va amaliyotida ta'limnitashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limnitashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ayni vaqtda ta'limning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi: **individual, individual-guruhli, sinf-dars, leksiya-seminar va sinfdan tashqari, auditoriyadan tashqari, maktabdan tashqari**. Ular o'quvchilarni qamrab olishi, o'quvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o'qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko'ra quyidagi **uch asosiy turga** ajratiladi: individual; sinf-dars; ma'ruza-seminar.

Qadim zamonlarda mavjud bo'lgan o'qitishning eng qadimgi shakli **ta'limning individual shakli** hisoblanadi. O'qishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o'rta asrlarda yagona usul bo'lgan, undan ba'zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanilib kelingan.

Afzalliklari	Kamchiliklari
<p>1) o'quv faoliyati mazmuni, metodi va sur'atini to'la individualashtirish imkoniyatining mavjudligi;</p> <p>2) aniq bir masalani hal etishda ta'lim oluvchining har bir harakati va operatsiyalarini kuzatib borishga imkon berishi.</p>	<p>1) vaqtning tejamli emasligi;</p> <p>2) o'qituvchi ta'sirining cheklanganligi (o'qituvchining vazifasi o'quvchiga topshiriq berish va uni bajarilishini tekshirishdan iborat);</p> <p>3) boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (bu holat ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi);</p> <p>4) jamoada ishlash tajribasining shakllanmasligi.</p>

XVI asrdan boshlab individual o'qitish shaklining ahamiyati pasayib, uning o'rnini **ta'limning individual-guruhli shakli** egallashiga imkon berdi.

Ulardan biri bolalarning **guruhli (jamoali) ta'lim i** sanaladi. U G'arbiy Rossiya (hozirgi Belorussiya va Ukrainaning g'arbiy qismlari) **birodarlik** maktablarida ilk bor qo'llanilgan va u sinf-dars shaklining asosi bo'lib qolgan. Bu tizimlar XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan "Buyuk didaktika" asarida nazariy jihatdan asoslab berildi va ommaviylashtirildi. Olim pedagogikaga **o'quv yili, o'quv kuni, dars,**

mashg'ulotlar orasidagi tanaffus, o'quv ta'tillari kabi tushunchalarni kiritdi.

Sinf-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo'lsada, bugungi kunda ham keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda.

Afzalliklari	Kamchiliklari
<p>1) yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli ketishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim;</p> <p>2) jarayonlarning oddiy boshqarilishi: muammoning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning echimini birgalikda izlash jarayonida bolalar o'rtasida o'zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati;</p> <p>3) o'qituvchining o'quvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsional ta'sir ko'rsatishi;</p> <p>4) ta'limning emotsionalligi (zero, o'qituvchi bir vaqtning o'zida o'quvchi-larning katta guruhi bilan ish olib boradi), o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi;</p> <p>5) bilimsizlikdan bilimlarni o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi.</p>	<p>1) tizimning asosan bilimlarni o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun mo'ljallanganligi;</p> <p>2) bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchilar qobiliyatlarining rivojlanish sur'atining ortga surilishi;</p> <p>3) o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchilikning yuzaga kelishi;</p> <p>4) katta va kichik yoshli o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.</p>

XIX asr oxiri XX asr boshlarida, aqliy rivojlanishida farqi bo'lgan o'quvchilarni o'qitishda individuallashtirishga ahamiyat qaratish masalasi ayniqsa dolzarb xususiyat kasb etdi. Shunga mos ravishda **tanlab o'qitish** shakli yuzaga keldi (AQShda Batov, Yevropada **Mangeym tizimi**).

Yevropa va AQShda, XX asr boshida o'quvchilarning individual, faol, mustaqil o'quv ishlarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab ta'lim tizimlarining samaradorligi sinab ko'rilgan. 1905 yili Dalton shahrida (Massachusets shtati) o'qituvchi Elena Park Xerst tomonidan birinchi

bor qo‘llanilgan **ta’limning individuallashtirilgan tizimi** ular orasida eng radikal hisoblangan. Bu tizim **dalton-reja** nomi bilan pedagogika va maktab tarixiga kirdi. U ba’zan **laboratoriya yoki ustaxonalar tizimi** deb ham ataydilar.

Birinchi universitetlar paydo bo‘lishi bilan **ta’limning ma’ruza-seminar tizimi** yuzaga kela boshlaydi. U yaratilgan paytdan beri hali deyarli hech bir katta o‘zgarishlarga ega emas. Ma’ruza, seminar, amaliy va laboratoriya ishlari, konsultatsiya va tanlagan kasbi bo‘yicha amaliyot hozirgacha leksiya-seminar tizim sifatida o‘qishning asosiy shakllaridan biri bo‘lib kelmoqda. Leksiya-seminar tizimi o‘zining sof ko‘rinishida oliy va oliy maktabdan keyingi ta’lim amaliyotida qo‘llaniladi.

Dars – ta’lim tashkil etishning asosiy shakli. Dars bevosita o‘qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o‘quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o‘quvchilarning mashg‘ulot jarayonida o‘rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlari va ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Dars ta’limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o‘ziga xos belgilarga ega, chunonchi: o‘quvchilarning doimiy guruhi, o‘quvchilar faoliyatiga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o‘rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari darsning faqat mazmunini emas, balki o‘z xususiyatini ham aks ettiradi).

4.5. Dars turlari va tuzilishi. Dars va dars mashg‘ulotining bir-biridan farqli tomonlari.

Darsning quyidagi turlari mavjud:

- Aralash (kombinatsion dars).
- Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
- O‘rganilganlarini takrorlash va mustahkamlash darsi.
- O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish darsi.
- Laboratoriya darslari.
- Amaliy darslar.

Aralash darsning tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) o‘tilgan mavzuni takrorlash (uy vazifasini tekshirish);
- v) yangi mavzuni bayon qilish;
- g) o‘rganilgan materialni mustahkamlash;
- d) o‘quvchilarni baholash;
- e) uy vazifasini berish.

Yangi bilimlarni bayon qilish darsining tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) yangi mavzuni bayon qilish;
- v) o‘rganilgan materialni mustahkamlash;
- d) uy vazifasini berish.

O‘rganilganlarni takrorlash va mustahkamlash darsining tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) o‘rganilgan mavzularga doir savol-javob o‘tkazish;
- v) o‘rganilgan mavzularga doir amaliy topshiriqlarni bajarish;
- g) o‘quvchilarni baholash.

O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish darsining tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) o‘rganilganlarni umumiy tarzda takrorlash (yodga tushirish);
- v) nazorat ishini o‘tkazish;
- g) uy vazifasi (o‘rganilganlarni qayta takrorlash maqsadida).

Laboratoriya darslarining tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) nazariy materiallarni mustahkamlash;
- v) laboratoriya ishini o‘tkazish;
- g) o‘quvchilarni baholash;
- d) uy vazifasi.

Amaliy darslarning tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) nazariy materiallarni mustahkamlash;
- v) amaliy ish topshiriqlarini bajarish;
- g) o‘quvchilarni baholash;
- d) uy vazifasi.

Darsga qo‘yiladigan talablar. Har bir dars quyidagi uchta asosiy maqsadga erishishga yo‘naltiriladi: **o‘qitish, tarbiyalash,**

rivojlantirish. Ana shularni hisobga olib darsga umumiy talablar didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablarda aniq ifodalanadi.

Didaktik (yoki ta'lim)iy talablarga har bir darsning ta'lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko'rinishlaridan mos ravishda foydalanish, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, jamoaviy faoliyat usullari bilan birga o'quvchilar mustaqil faoliyatlarini turli shakllaridan birga foydalanish, operativ qayta aloqani ta'minlash, amaliy nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, ilmiy mo'ljal va darsni mahorat bilan o'tkazishni ta'minlash kabilar kiradi.

Darsga nisbatan qo'yiladigan **tarbiyaviy talablar** o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo'yish, faqat o'quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e'tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish, o'quvchilarga diqqat-e'tiborli munosabatda bo'lib, pedagogik odob talablariga amal qilish, o'quvchilar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo'lishdan iborat.

Barcha darslarda doim amalga oshirilib boriladigan **rivojlantiruvchi talablarga** o'quvchilarda o'quv-o'rganish faoliyati ijobiy sifatlari, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollik shakllantirish hamda rivojlantirish, o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish, "rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish", "o'zib ketish" darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, rivojlanishidagi yangi o'zgarishlarni rag'batlantirish, o'quvchilarning intellektual, emotsional, ijtimoiy rivojlanishlaridagi «sakrash»larni oldindan ko'ra bilish, boshlanayotgan o'zgarishlarni hisobga olish asosida o'quv mashg'ulotlarini operativ qayta qurish kabilar kiradi.

O'qituvchining darsga tayyorgarligi. O'qituvchining darsga tayyorgarligida quyidagi to'rtta bosqich ko'zga tashlanadi: **tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish va rejalashtirish.** Algoritmni amalga

oshirish aniq sharoitlarni tashxislash bilan boshlanadi. **Tashxis** didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir. Unda o‘quvchilarning imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, o‘quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, yangi axborotni o‘zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish, bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo‘ladi. **Bashoratlash** bo‘lajak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma‘qulini tanlab olish. **Loyihalashtirish va rejalashtirish** o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo‘lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Loyiha (boshqarish dasturi) qisqa va aniq, erkin tuzilgan, pedagog o‘zi uchun boshqarish jarayoni muhim vaziyatlari (kimdan va qachon so‘rash, qayerda mavzuni kiritish, mashg‘ulot keyingi bosqichiga qanday o‘tish, oldindan ko‘zda tutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganida jarayonni qaysi sxema bo‘yicha qayta o‘zgartirish)ni belgilab olishga imkon beruvchi hujjatdir.

Ta’limni tashkil etishning yordamchi shakllari. Ta’limning yordamchi shakllari: to‘garak, konferentsiya, maslahat (konsultatsiya), fakultativ mashg‘ulot, o‘quv ekskursiyalari, o‘quvchilarning mustaqil uy ishlari va boshqalar sanaladi.

Maktabdan tashqari mashg‘ulotlarning asosiy va barqaror turlariga o‘qish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladigan, o‘quvchilarning **mustaqil uy ishlari** kiradi. Uning asosiy maqsadi – darsda o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarini kengaytirish, chuqurlashtirish, ularni esdan chiqarishning oldini olish, o‘quvchilarning individual layoqati, iste’dod va qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Fan to‘garaklari yo‘nalishi, mazmuni, ish metodi, o‘qish vaqti va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Ular o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi..

Ta’limning yordamchi shakllariga **ekskursiyalar** ham kiradi. Ular ommaviy, guruhli va kichik guruhli bo‘lishi mumkin. O‘quv ekskursiyalari alohida fanlar hamda bir qancha fanlar bo‘yicha ham rejalashtiriladi. Ekskursiyani muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun o‘qituvchi

unga puxta tayyorlanishi: ob'ekt va mashrut bilan oldindan tanishib chiqishi, to'la rejani ishlab chiqishi, o'quvchilarni bo'lajak topshiriqlarni bajarishga jalb eta olishi kerak.

O'quv rejasi turli **fakultativ va tanlov bo'yicha kurslarni** tashkil etishni ko'zda tutadi. Ular o'quvchilar, ularning ota-onalari istak va qiziqishlarini hisobga olish bilan bog'liqlikda ishlab chiqiladi. Fakultativ va tanlov fanlari ro'yxatini aniqlashda faqat o'quvchilar istaklari emas, balki ijtimoiy talablar va maktab imkoniyatidan kelib chiqiladi. Fakultativ va tanlovi bo'yicha mashg'ulotlar majburiy va umumiy o'rta ta'lim fanlari bilan uzviy bog'liqlikda o'tkazilishi kerak.

Maslahat (konsultatsiya - o'quv suhbat)ga talablar ko'pincha o'quvchilarning ma'lum o'quv materiali yoki topshirig'i ustida mustaqil ishlashi sababli yuzaga keladi. Bunda ko'proq o'quvchi savol beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarga o'quv materialini egallashda qiyinchiliklarni engishga yordam beradi. Konsultatsiya davomida o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini u yoki bu masalani to'g'ri tushunishga mustaqil keladigan, ular uchun qiyin topshiriqni tushunib oladigan qilib, o'rganilayotgan materialni mohiyatini ochishga o'rganadigan qilib yo'naltiradi. Konsultatsiya o'qituvchiga o'quvchilar bilimlaridagi kamchiliklarni aniqlash, alohida e'tibor berishni talab etuvchi vaziyatlarga ularning diqqatini jalb etishga imkon beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarda o'zini nazorat qilish, bilimlarga tanqidiy ko'z bilan qarashni tarbiyalaydi. O'qimishlilik darajasini to'g'ri aniqlashga yordam beradi.

√Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Ta'lim metodlari deb nimaga aytiladi?
2. «Ta'lim usuli», «pedagogik texnologiya», «metodika» tushunchalariga izoh bering.
3. Ta'lim metodlari tasnifini izohlang.
4. Ta'lim metodlarining mazmun-mohiyatini bayon eting.
5. Hozirgi vaqtda ta'limnitashkil etishning qanday shakllari keng tarqalgan?
6. Ta'limnitashkil etishning individual tizimiga izoh bering.
7. Sinf-dars tizimining afzalligi va kamchiliklari nimalarda namoyon bo'ladi?



V MAVZU: TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI. TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA TURLARI.

√ **Tayanch soʻzlar:** tashxis, tashxis etish, nazorat, hisobga olish, tekshirish, baholash, baho, taʼlim sifati, monitoring.

Mashgʻulot rejasi:

1. Taʼlim olganlikni tashxis etishning moxiyati.
2. Oʻquv jarayonida nazorat va hisobga olish funksiyalari.
3. Taʼlim olganlikni natijalarini tekshirish va baholash tamoyillari.
4. Oʻquv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakllari va metodlari.
5. Bilim, koʻnikma va malakalarni baholash mezonlari.
6. Metodik, didaktik, pedagogik talablarning mazmun-mohiyati

5.1. Taʼlim olganlikni tashxis etishning mohiyati.

Tashxis – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demakdir. Tashxisiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas.

Didaktik tashxislashning *maqsadi* oʻquv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bogʻliq holda, oʻz vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

Tashxislash nazorat, tekshirish, baholash, statistik maʼlumotlar toʻplash, ularni tahlil qilish, dinamika, tendensiyalarni aniqlash, voqealarning keyingi rivojini taxminlashni oʻz ichiga oladi.

Oʻquvchilarning bilim, koʻnikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi.

Taʼlim jarayonida nazorat va hisobga olish, ularning vazifalari. Taʼlim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri – nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar oʻziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. Oʻqituvchi nazorat va hisobga olishni toʻgʻri tashkil etsa, taʼlim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun oʻqituvchi oʻquvchining oʻquv materiallarini oʻzlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim.

Nazorat (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'lchash esa **tekshirish** deb ataladi.

Tekshirish – nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida aks aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashdir. Tekshirishning maqsadi nafaqat o'quvchining bilim darajasi, sifati, balki uning o'quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

O'quvchilarning bilim va malakalarini tekshirish quyida ko'rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib borilishi kerak:

Tekshirish tizimidagi *birinchi bo'g'in* ta'lim oluvchilarning bilim darajasini **oldindan aniqlash** hisoblanadi. Odatda, u o'quv yili boshida o'quvchilar tomonidan avvalgi o'quv yilida o'zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o'quv yilining o'rtasida yangi bo'lim (kurs)ni o'rganishga kirishilganda ham o'tkazilishi mumkin va o'rinli bo'ladi.

Bilimlarni tekshirishning *ikkinchi bo'g'ini* har bir mavzuni o'zlashtirish jarayonidagi **joriy tekshirishdir**. Joriy tekshirish ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o'zlashtirish darajasini tashxislash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi o'rgatishdir. Bunday tekshirishning shakl va metodlari turlicha bo'lib, ular o'quv material mazmuni, murakkabligi, o'quvchilarning yoshi va tayyorgarligi, ta'lim bosqichi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

Takroriy tekshirish bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishning **uchinchi bo'g'ini** sanalib, joriy tekshirish kabi mavzuli bo'lishi mumkin. Yangi mavzuni o'rganish bilan birga o'quvchilar avval o'rganilganlarni takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko'maklashadi, biroq o'quv ishlari bosqichini tavsiflash, bilimlarni o'zlashtirish mustahkamligi darajasini tashxislash imkonini bermaydi. Ushbu tekshirish tashxisning boshqa turlari va metodlari bilan birga qo'llanilsagina kutilgan samarani beradi.

Tizimning *to'rtinchi bo'g'ini* o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yaxlit bo'lim yoki kursning alohida mavzusi bo'yicha **davriy tekshirish** hisoblanadi. Mazkur tekshirishning maqsadi –

kursning turli qismlarida o‘rganilgan o‘quv materialining strukturaviy elementlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni o‘zlashtirish sifatini tashxislash. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi – tizimlashtirish va umumlashtirish.

Tekshirishni tashkil etishda *beshinchi bo‘g‘in* ta’lim oluvchilarning, ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini **yakuniy tekshirish va hisobga olishdir**. O‘zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorak va o‘quv yili oxirida o‘tkaziladi. U olingan baholarni qo‘shib, o‘rtacha arifmetik ballni mexanik tarzda chiqarishdangina iborat bo‘lmasligi lozim. Bu, avvalo, mazkur bosqichda belgilangan maqsadga muvofiq tarzda amaldagi ta’lim olganlik darajasi (sifati)ni tashxislashdir.

Tekshirishdan tashqari nazorat o‘z ichiga baholashni (jarayon sifatida) va bahoni (natija sifatida) ham oladi.

Baholash deb bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘quv dasturida ko‘rsatilgan etalon (ko‘rstakich, qolip, o‘lchagich)lar bilan solishtirishni aytamiz. **Baho** deb baholashning ball shaklida ko‘rsatilgan son jihatdan o‘lchamiga aytiladi.

O‘zlashtirish tabellari, sinf, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholar shartli belgilar, kod signallari, xotiralash belgilari va xokazolar baho ko‘rinishida qayd etiladi. O‘quvchining o‘zlashtirish darajasini baholash uchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo‘ladi. Bunda o‘quvchilar ishining ham sifat, ham miqdor ko‘rsatkichlari hisobga olinadi.

O‘qituvchi o‘qitish bilan bir vaqtda o‘quvchilarning o‘rganilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga harakat qilishini va uni amalda qo‘llash malakalarini egallashini hisobga olib borishi kerak.

Hisobga olish – bu o‘qitishning muayyan bir davrida o‘quvchilar va o‘qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Hisobga olish natijasida o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham o‘zlarining keyingi bajaradigan ishlarining shaklini va mazmunini belgilaydi. O‘zlashtirishni hisobga olish o‘quvchilarning bilish faoliyatini rag‘batlantirib, ma’lum bir harakatlarni bajarish uchun uning irodasini tarbiyalaydi. Shuningdek, o‘zlashtirishni hisobga olish o‘qituvchining faoliyatini ham tashkil etadi. O‘qitish metodlari va shakllarining tabora takomillashuvi natijasida baho o‘qituvchining pedagogik mahorati

ko'rsatkichiga aylanmoqda va o'qituvchining o'z malakasini oshirib borishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

O'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish **vazifalarini** bajaradi.

Nazorat qilish vazifasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash va baholashdan iborat. Bu o'quv materiallarini o'rganishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi hamda o'qituvchining o'quv metodlarini va usullarini to'g'ri tanlaganini nazorat qiladi. Nazorat qilish vazifasi o'quv materiallarini o'rganishning maqbul yo'llarini topish bilan bog'liqdir.

O'qitish vazifasi o'quvchilarning bilimini tekshirishda aniq ko'rinadi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda o'quvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchun tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni bilib olishlariga imkon tug'iladi.

Nazoratning **tarbiyalash vazifasi** shundan iboratki, o'quvchilar tekshirishga tayyor bo'lish uchun darslarni o'z vaqtida tayyorlaydilar, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishga harakat qiladilar, intizomga o'rganadilar.

Agar nazoratning o'qitish va tarbiyalash vazifalari to'g'ri amalga oshirilsa, shaxsning tafakkurini rivojlantirishga, xis-tuyg'ulari va axloqiy sifatlarini tarbiyalashga imkon tug'iladi. Bu esa o'z-o'zidan nazoratning **rivojlantiruvchi vazifasi** sanaladi.

Ta'lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari.

Pedagogikada o'quvchilarning ta'lim olganligini tashxislash va nazorat qilish tamoyillarining tizimi ishlab chiqilgan. Ulardan eng muhimlari xolislik (obyektivlik), tizimlilik (sistemalilik), ko'rgazmalilik (oshkoralik) sanaladi. **Xolislik (obyektivlik)** tashxis testlari (topshiriqlari, savollari), tashxis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagogning barcha ta'lim oluvchilarga do'stona munosabati hamda bilim, malakalarni baholashning aniq ko'rinishda belgilangan mezonlaridan iborat. Amalda tashxisning xolisligi qo'yilgan baholar nazorat metodlari va vositalaridan, tashxis o'tkazgan o'qituvchidan qat'iy nazar xamma vaqt mos kelishini anglatadi.

Tizimlilik (sistemalilik) tamoyilining talabi shundan iboratki, tashxislash nazoratini ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida – bilimlarni boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan bosqichlarida olib borish kerak. Tizimlilik barcha ta'lim oluvchilar

o'quv muassasida bo'lgan birinchi kundan boshlab oxirigacha muntazam tashxisga jalb etilishini anglatadi. Ta'lim oluvchining bilimi va egallashi lozim bo'lgan barcha jihatlarni ishonchli tekshirish uchun ta'lim nazoratini tez-tez o'tkazish kerak. Tizimlilik tamoyili tashxis o'tkazishga bir butun yondashuvni talab etadiki, bunda nazorat, tekshirish, baholashning turli shakllari, metodlari, vositalari uzviy o'zaro bog'liqlikda va birlikda qo'llaniladi, bir maqsadga xizmat qiladi. Bu kabi yondashuv tashxisning ayrim metodlari va vositalarini mutloqlashtirishga yo'l qo'ymaydi.

Ko'rgazmalilik (oshkoralik) tamoyili avvalo barcha ta'lim oluvchilar-ni aynan bir xil mezonlar bo'yicha ochiq sinovdan o'tkazishni anglatadi. Tashxis jarayonida belgilanadigan har bir o'quvchi reytingi ko'rgazmali, qiyosiy xarakterga ega. Oshkoralik tamoyili, shuningdek, baholarni e'lon qilish va motivatsiyalashni talab etadi. Baho mo'ljali (orientir) bo'lib, ta'lim oluvchilar unga muvofiq o'zlariga qo'yiladigan talablar va pedagogning xolisligi haqida fikr yuritadi. Tamoyilni amalga oshirishning zarur sharti tashxislash natijalarini e'lon qilish, ularni manfaatdor shaxslar ishtirokida muhokama va tahlil qilish, nuqsonlarni tugatishning istiqbolli rejalarini tuzish hisoblanadi.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish turlari, shakl va metodlari. Hozirgi davr pedagogik amaliyotida o'quvchilar o'quv faoliyatini nazorat qilishning qo'yidagi *turlaridan* foydalaniladi: joriy nazorat; oraliq nazorat; yakuniy nazorat.

Joriy nazorat o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning har bir o'quv ishini muntazam nazorat qilishni hamda ularning o'rganilgan mavzularni o'zlashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini tekshirishni o'z ichiga oladi. Bilim darajasini tekshirish fanning har bir mavzusi bo'yicha kundalik ballar qo'yib borishni nazarda tutadi. Joriy nazorat o'qituvchini har bir o'quvchining o'quv faoliyati bo'yicha tezkor ma'lumotlar bilan ta'minlaydi, o'qitish jarayonini boshqarishda yaxshi natija beradi, o'zlashtirmagan o'quvchilarni o'z vaqtida aniqlaydi, o'zlashtirmaslikni bartaraf etish bo'yicha choralar belgilaydi.

Oraliq nazorat – bu o'quvchilar tomonidan mazkur fanning muayyan bob yoki bo'limlarining o'zlashtirilganini tekshirish. Oraliq nazoratni o'qituvchi dars jadvali asosida darsda o'quv materialining o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda o'tkazadi.

Oraliq nazorat o'tkazishdan oldin o'quvchilar ogohlantiriladi. Har bir oraliq tekshirish alohida-alohida shkala asosida baholanadi.

Yakuniy nazorat – choraklik, yarim yillik, yillik va davlat attestatsiyasi sinovlari singari turlarga bo'linadi. Yakuniy nazorat og'zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarish metodlari asosida o'tkaziladi.

Nazoratning shakli o'quv ishini tashkil etish shakliga bog'liq bo'ladi. O'qituvchi uni mavzudan kelib chiqib tanlaydi. Nazoratning asosiy **beshtakli** mavjud:

nazoratning ommaviy (frontal) shaklida o'qituvchi o'quvchilarga materialning ma'lum bir hajmi bo'yicha savol beradi, o'quvchilar unga qisqa javob qaytaradi. Mazkur so'rash ko'pchilik o'quvchini nazorat qilishni ta'minlaydi va butun guruhni faollashtiradi. Ammo bu nazoratni o'quvchilarning bilim darajasini har tomonlama aniqlash uchun qo'llab bo'lmaydi.

nazoratning guruhli shaklida o'quvchilarning ma'lum bir qismi nazorat qilinadi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilar guruhiga vazifa beriladi va uni shu guruh bajaradi. Lekin masalani hal qilishda boshqa o'quvchilar ham qatnashishi mumkin. Guruh ishlayotgan paytda qolgan o'quvchilar bo'sh qolmaydi, ular o'rtoqlarining bajargan ishlarini baholash uchun o'z ustilarida ishlab o'tiradi.

nazoratning individual shaklidan har bir o'quvchining bilim, ko'nikma va malakasi bilan mukammal tanishish uchun foydalaniladi. Nazoratning bu shaklida, odatda o'quvchilar javob berish uchun sinf taxtasi oldiga chaqiriladi.

nazoratning kombinatsiyalangan (biriktirilgan) shakli individual nazoratni ommaviy va guruhli shakllar bilan birlashtirishni taqozo etadi. Bu nazoratni hajmi katta mavzularni barcha o'quvchilardan so'rash kerak bo'lgan vaqtda foydalanadi. Har bir o'quvchiga alohida topshiriq beriladi va bir vaqtda birnecha o'quvchini tekshirish mumkin bo'ladi.

o'z-o'zini nazorat qilish shakli ta'lim jarayonida ichki aks aloqaning bo'lishini ta'minlaydi. Nazoratning bu shakli psixologik mezonlarga asoslanadi. Uning samaradorligi o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq bo'ladi.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish **metodlari quyidagilar:** og'zaki tekshirish, yozma tekshirish, amaliy

topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish, uy vazifalarini tekshirish.

Og‘zaki tekshirish. Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholashning ancha keng tarqalgan an’anaviy usullaridan biridir.

Og‘zaki tekshirishning mohiyati shunda ko‘rinadiki, o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, savollar beradi va ularni javob berishga undaydi. Ana shu tarzda ularning o‘zlashtirish darajasini aniqlaydi. Og‘zaki tekshirish o‘quvchilarning bilimlarini tekshirishni savol-javob usuli asosida amalga oshiriladi. Ushbu usul ayrim hollarda suhbat usuli deb ham ataladi. Og‘zaki tekshirishda o‘qituvchi o‘rganilayotgan mavzuni alohida qismlarga ajratadi va ularni har biridan o‘quvchilarga savollar beradi. Biroq o‘quvchilarning nutqini o‘stirish hamda ularning chuqur va mustahkam bilimga ega bo‘lishlari uchun ulardan shu yoki oldingi mavzuni butunlay esga tushirishni talab qilish mumkin.

Yozma tekshirish – o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo‘lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Mazkur usulning mohiyati shundaki, o‘qituvchi alohida mavzu yoki o‘quv dasturining ma’lum bo‘limini o‘tib bo‘lganidan so‘ng oz vaqtning ichida barcha o‘quvchilarni tekshirishi mumkin. YOzma tekshirish nazorat ishi, insho, bayon, diktant va b. yordamida olib boriladi. Ammo o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida bevosita aloqaning yo‘qligi sababli uning fikrlashini kuzatish imkoni bo‘lmaydi.

Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish. Bajarilayotgan amaliy harakatlari (sport, mehnat harakatlari)ning to‘g‘riligini kuzatish yoki olingan natijalarga tayanishdan iborat bo‘lishi mumkin. Amaliy tekshirish tabiiy-matematik sikldagi fanlardan o‘quvchilarning o‘zlashtirishini hisobga olishda keng foydalaniladi. Bu usul yordamida o‘quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish malakasi aniqlanadi.

Uy vazifalarini tekshirish. O‘quvchilarning o‘zlashtirishini nazorat qilish uchun ularning uyga berilgan vazifalarni bajarishini tekshirish katta ahamiyatga ega. Uy vazifalarini tekshirish o‘qituvchiga o‘quvchilarning o‘quv ishiga bo‘lgan munosabatini, o‘rganilgan materialni qanchalik egallaganligini, uy vazifalarini bajarishdagi mustaqillik darajasini aniqlashga imkon beradi.

O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalari va kompetensiyalarini baholash mezonlari. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlari hamma vaqt bahstalab mavzu bo‘lib kelgan. Chunki u turli adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalariga, shuningdek, sinf (guruh)dagi o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa chiqarish mumkin:

«5» baho qo‘yiladi, agar: a) o‘quvchi dasturdagi materialni to‘liq o‘zlashtirib olgan bo‘lsa; b) o‘rganilgan mavzu bo‘yicha asosiy fikrlarni ochib bera olsa; v) egallangan bilimlarni amalda erkin qo‘llay olsa; g) o‘rganilgan mavzuni bayon qilishda, yozma ishlarda xatolarga yo‘l qo‘ymasdan, ma‘lumotlarni tushuntirib bera olsa.

«4» baho qo‘yiladi, agar: a) o‘quvchi o‘rganilgan mavzuning mohiyatini bilsa; b) o‘qituvchining savollariga qiynalmasdan javob bera olsa; v) egallangan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olsa; g) og‘zaki javob berishda jiddiy xatolarga yo‘l qo‘ymasdan, o‘qituvchining qo‘shimcha savollari bilan xatolarini to‘g‘rilay olsa hamda yozma ishda uncha jiddiy bo‘lmagan xatoga yo‘l qo‘ysa qo‘yiladi.

«3» baho yiladi, agar: a) o‘quvchi o‘rganilgan mavzuni o‘zlashtirgan, lekin mustaqil tushuntirib berishda o‘qituvchining aniqlashtiruvchi savollariga ehtiyoj sezsa; b) savollarning mantiqiy tuzulishini o‘zgartirib berganda, javob berishga qiynalsa; v) yozma ishda xatolari bor bo‘lsa.

«2» baho qo‘yiladi, agar: a) o‘quvchi o‘rganilgan mavzu haqida tushunchaga ega, biroq mavzuni o‘zlashtirmagan, b) yozma ishda qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘ysa qo‘yiladi.

Ta‘lim sifati monitoring. “Monitoring” atamasi ilk maratoba Birlashgan Millatlar tashkilotining 1972-yil iyun oyida Stokgolm konferensiyasini tashkil etish arafasida “nazorat” atamasiga muqobil sifatida ishlatila boshlangan.

“Monitoring – inglizcha atama bo‘lib, “uzluksiz kuzatish” degan ma‘nosini anglatadi. Monitoringga ijtimoiy boshqaruv nazariyasida eng muhim, boshqaruv sohasidagi nisbatan mustaqil bo‘lim sifatida qaraladi hamda ta‘lim monitoringi doirasida pedagogik faoliyat natijalari yuzaga chiqariladi va baholanadi.

Respublikamizda umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻqitish sofati monitoring tizimi samarali yoʻlga qoʻyilgan.

Umumiy oʻrta taʼlim sifatini nazorat qilishning turlari quyidagilardan iborat: ichki nazorat – Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi tomonidan tasdiqlangan tartib asosida umumiy oʻrta taʼlim muassasasining monitoring guruhi tomonidan amalga oshiriladi; tashqi nazorat – taʼlim sohasidagi vakolatli davlat organlari, hududiy xalq taʼlimi boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi; davlat-jamoatchilik nazorati – qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hududiy xalq taʼlimi boshqaruvi organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi; milliy va xalqaro darajada baholash – Hukumatning tegishli qarori hamda xalqaro shartnomalar asosida xalq taʼlimi boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi.

Umumiy oʻrta taʼlim sifatini nazorat qilishning turlari quyidagilardan iborat: ichki nazorat; tashqi nazorat; davlat-jamoatchilik nazorati; milliy va xalqaro darajada baholash.

Oʻqituvchilar yoki maktab maʼmuriyati, oʻquvchilarning oʻzlari, ota-onalar va jamoatchilik vakillari oʻquvchilarning bilimlarini oʻquv maqsadlari asosida tekshiradilar. Mazkur yoʻnalish oʻziga xos bir qator afzalliklarga ega boʻlib, baholash bevosita oʻquvchining sinfda amalga oshirilgan ishlari bilan bogʻliq, bunda oʻqituvchi turli uslublardan (masalan ogʻzaki soʻrov oʻtkazish, amaliy mashq bajarish, test va h.k.) foydalanib, oʻquvchi tomonidan bajarilgan ishlarga baho qoʻyadi. Baholash jarayoni tizimli ravishda oʻquv choragi va oʻquv yili davomida olib boriladi. Bunday baholashda oʻqituvchilar, maktab monitoring guruhi oʻquvchilarning oʻzlashtirishi sifati, oʻquv yutuqlariga asosiy meʼyor boʻlgan davlat taʼlim standartlariga taqqoslagan holda individul baho beradilar.

Baholashning ikkinchi turi hududiy xalq taʼlimi boshqaruvi idoralari tomonidan amalga oshiriladigan hududiy oʻqitish sifati monitoringi hisoblanadi. Bunda oʻquvchilar tomonidan davlat taʼlim standartlarida belgilangan bilim, koʻnikma va malakalarning oʻzlashtirish dinamikasini tizimli kuzatiladi, oʻquvchilar bilimidagi boʻshliqlar va ularning kelib chiqish omillarini aniqlanadi, boshqa maktablar hamda bartaraf etish chora-tadbirlari rejalashtiriladi.

Shu sababli zamonaviy shaxsga, raqobatbardosh mutaxassisga

qo'yilgan talablarning ortib borishi eng avvalo ta'lim muassasalari va hududiy xalq ta'lim i boshqaruvi idoralaridagi alohida tuzilmalar tomonidan ta'lim sifati monitoringini tizimli va maqsadli amalga oshirishni talab etadi. Ta'lim muassasalarida monitoring – yaxlit tizimning holati va dinamikasini kompleks kuzatish, tahlil qilish, korrektsiyalash hamda prognozlash jarayoni hisoblanadi.

Baholashning keyingi uchinchi turi – davlat attestatsiyasi va ta'lim muassasalarining akkreditatsiyasi hisoblanadi. Ular davlat tomonidan yoki uning nomidan vakolatli tashkilotlar tomonidan o'tkaziladi. Ularda qatnashish huquqiga muayyan talablarga javob beradigan barcha o'quvchilar ega. Mazkur baholash muayyan ta'lim bosqichi yoki turi tugaganidan so'ng amalga oshiriladi. Ularning asosiy va ijtimoiy jihatdan muhim vazifalari bitiruvchilar va ta'lim muassasalarining davlat va jamiyatning ijtimoiy buyurtmalarni bajarish holatini tahlil qilish imkonini beradi.

5.2. Xalqaro baholash dasturlari.

Umummilliy baholash – barcha o'quvchilarni yoki ma'lum bir guruhdagi o'quvchilarni tanlab olish yo'li bilan muntazam ravishda o'quvchilar o'quv yutuqlari darajasini milliy standartlarga nisbatan mosligi baholash hisoblanadi. Mazkur turdagi baholash o'quv dasturlari asosida olinib, imtixonlardan farq qiladi. Birinchidan, alohida olingan o'quvchilarning bilim va malakasi darajasi emas, balki tizimning ishlash natijalari o'lchanadi. Ikkinchidan, milliy baholash natijalari muayyan yoshdagi yoki sinfdagi o'quvchilarning umumiy o'zlashtirish darajasining "rentgen surati" sifatida foydalaniladi va milliy standartlarning ko'p muddatda monitoringini olib borishga xizmat qiladi. Tanlash yo'li bilan o'tkazilgan umummilliy baholash qisqa muddatlarda va iqtisodiy jihatdan arzonroq o'tkazish imkoniyatini beradi. Uning natijalari ma'lum o'quv fanlari bo'yicha o'quvchilar o'quv yutuqlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni berishi mumkin.

Xalqaro baholashni yaqin 15-20 yilda tashkil etish yo'lga qo'yilib, ularda bir necha mamlakatlar o'quvchilarining o'quv yutuqlari tanlov yo'li bilan baholanadi. Bunday keng qamrovli tadqiqotlarning asosiy maqsadi qamrab olingan muayyan yoshdagi (masalan, 13 yoshdagi o'quvchilar) yoki sinfdagi o'quvchilarning bir yoki bir necha o'quv fanlari bo'yicha o'quv yutuqlarini baholash va bir qator mamlakatlar

kesimida qiyoslashdan iborat. Misol tariqasida matematika va tabiiy fanlardan o'tkazib kelinayotgan - TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study –Xalqaro matematika va tabiiy fanlarning o'rganishdagi tendensiyalari)ni keltirish mumkin. TIMSS ning birinchi xalqaro tadqiqotida 38 mamlakatning 4-, 8- va umumiy o'rta ta'lim muassasalarining bitiruvchilari (11- va 12-sinf o'quvchilari) qamrab olingan. Oxirgi uchinchi tadqiqotida esa 46 mamlakat o'quvchilari qatnashganlar.

Yana bir xalqaro o'quvchilar ta'limiy yutuqlarini xalqaro baholash dasturi – PISA (Programm for International Student Assessment) tadqiqoti hisoblanadi. Bu tadqiqot birinchi marta 2000 yilda o'tkazilib, unda 32 mamlakatning 15 yoshli o'quvchilari qatnashgan. PISA da asosiy e'tibor o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar (fizika, ximiya, biologiya)dan olgan bilimlarini turli hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishlarini baholashga qaratilgan. Uchinchi xalqaro tadqiqot – PIRLS da turli mamlakatlar boshlang'ich maktablari bitiruvchilarining matnini o'qish va uni tushunish darajasi baholanadi.

Mazkur tadqiqotlarning maqsadi – o'quvchilar yutuqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlash va ularni xalqaro miqyosda qiyoslash bo'lib, uning natijalariga ko'ra ta'lim siyosati masalalari hamda o'quvchilar o'zlashtirishidagi tafovutlarni yaxshiroq anglab etishga qaratilgan xalqaro muloqot olib boriladi. Xalqaro tadqiqotlar nufuzining oshib borishi bugungi dunyoda globallashtirish jarayonlari natijasida mustaqil hayotga kirib kelayotgan o'quvchilarga mehnat bozorida qanday bilim va ko'nikmalar kerakligi to'g'risidagi ijtimoiy buyurtmalarni hamda raqobatbardosh mutaxassislariga qo'yilgan talablarni kengayib borayotganligidan darak beradi.

Ta'lim sifati monitoringini olib borishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilar tomonidan davlat ta'lim standartlari talablarining bajarish dinamikasini tizimli kuzatish, ta'lim sifatigata'siretgan omillarni aniqlash, ta'lim muassasalari, hududiy xalq ta'limi boshqaruvi idoralari, metodik xizmat va malaka oshirish tizining faoliyatini baholab, rivojlantirishga oid chora-tadbirlarni belgilash, keyingi holatni bashoratlash natijasida ta'lim sifatini oshirishdan iborat.

5.3. O‘quv faoliyati natijalarini baholash va qayd etish

O‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatlari nazorati natijalari o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan baholashda o‘z ifodasini topadi.

Baholash – bu bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirilganlik darajasini aniqlash. Baholashning miqdoriy ifodalanishi bahoda aks etadi. Baho – bu o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma, malakalarini raqam va ballar orqali hartli ifodalash miqdori. Ta’lim natijasi nafaqat baho orqali, balki boshqa vositalarda hambaholanishi mumkin. Masalan, og‘zaki maqtov, minnatdorchilik bildirish, faxriyyorliq yoki medallar bilan taqdirlash orqali amalga oshirilishi mumkin. Bilim sifatini aniqlashdagi yagona yondashuv obyektiv baholash hisoblanadi. Bilimlarni baholash o‘quvchiga ta’sir etishning eng nozik jihatlarini ifodalaydi. Bilimga o‘ta yuqori darajada baho qo‘yish o‘quvchini bilim olishga ruhlantirishi mumkin, lekin taltaytirib yuborishi ham mumkin. O‘quvchiga past baho qo‘yish o‘quvchini bilimlarni olishga yo‘naltirishi ham, qiziqishini pasayishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Talabalar bilim, ko‘nikma va malakalarini reyting tizimida nazorat etish va baholash yo‘llari. Talabalar o‘quvbilim faoliyati natijalarini reyting usulda nazorat va baholashning an’anaviy usullardan afzalligi shundaki, u talabani uzluksiz, mustaqil o‘qishga o‘rgatadi, ularda o‘quv ishlari o‘rganiladi, muvaffaqiyatli intilishni shakllantiradi.

Reyting tizimida yozma, og‘zaki baholash bilan birga test sinovlaridan keng foydalanilmoqda. Uning afzalliklari:

1. Nazorat va baholashning xolis instrumenti, uni to‘g‘ri tashkil etish, uning natijalari testlashtiruvchining shaxsiga bog‘liq bo‘lmaydi.

2. U texnologik xususiyatga ega, to‘la guruhni keng qamrovli material asosida nisbatan qisqa vaqt davomida yalpi baholash imkonini beradi.

3. Testlashtirish, natijalarini tahlil etish va rasmiylashtirish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun qulay.

4. Natijalarni kompyuterga kiritib avtomatik ravishda tahlil qilish imkoniyati mavjud.

Sinovdan o‘tuvchiga moslashuvchi kompyuter test sistemalaridan foydalanish imkoniyatlari ham mavjud bo‘lib, ulardan keyingi topshiriq sinaluvchini avvalgi topshiriqni qay darajada bajarganligiga qarab beriladi. Oliy o‘quv yurtlari faoliyatiga reyting tizimini kirib kelishi, pedagogik testlardan butun o‘quv jarayonida uzluksiz foydalanish

imkoni vujudga keldi. Bugungi kunda barcha fanlar bo'yicha sifatli testlar bankini yaratish zaruriyati bor. Chunki, sifatli testlarni faqat talabalar bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish darajasini aniqlashga, shu bilan birga ularning bilish faoliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuning uchun har bir o'qituvchi test madaniyatini egallash, o'zi o'qitayotgan fan bo'yicha testlarni talab darajasida tuza olishi zarur. Testlarning murakkablik darajasi, ishonchliligi, keng kuchliligi, validligi, didaktik aspektlari tushunchalarini o'qituvchilar anglab olishi lozim.

Baholashdagi kamchiliklar

Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida o'quvchilarni fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarini o'zlashtirganlik darajalarini baholashda quyidagi subyektiv kamchiliklarni uchratishimiz mumkin:

- baholashda bag'rikenglik qilish;
- kayfiyatga qarab baho qo'yish;
- baholashda aniq mezonlarning yo'qligi;
- baholashda tizimni yo'qligi;
- boshqalar bahosiga qarab baho qo'yish;
- bolani xulq-atvorini inobatga olib baho qo'yish;
- bahoni ko'tarish yoki pasaytirib qo'yish v.b.

Yuqoridagi baholash jarayonidagi kamchiliklarga yo'l qo'yish baholashdagi obyektivlikni yo'qolishiga olib keladi. Bunday holatlar o'quvchilarni bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini pasayishiga sabab bo'ladi.

√Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Didaktik tashxis deganda nima tushiniladi?
2. Tashxislashning tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
3. Nazorat va hisobga olish deb nimaga aytiladi?
4. Nazoratning qanday vazifalari mavjud?
5. Tekshirish deb nimaga aytiladi?
6. Tekshirishning qanday bo'ginlari mavjud?
7. Baholash deb nimaga aytiladi? Baho deb nimaga aytiladi?
8. Tashxislashning tamoyillarini izohlang.
9. Nazoratning turlari, shakl va metodlarini bayon eting,
10. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlarini tushuntirib bering.
11. Ta'lim sifati monitoring qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
12. Xalqaro baholash dasturlari haqida nimani bilasiz?



VI MAVZU: TARBIYA JARAYONING MOHIYATI VA MAZMUNI

√*Tayanch tushunchalar:* tarbiya jarayoni, tajriba, ijtimoiylashuv, tarbiya, konsepsiya, zamonaviy ta'lim va tarbiya, madaniyat, predmet, insonparvar pedagogika, tarbiya jarayoni, tarbiya nazariyasi.

6.1. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari

Tarbiya jarayonining alohida tomonlari tarbiya qonuniyatlari va prinsiplarini tahlil qilishda namoyon bo'ladi. Qonuniyat - tushunchasi qonun tushunchasiga yaqin bo'lib, tizimdagi o'zgarishlarga yo'naltirilgan va tendensiyalarini ta'minlovchi takrorlanib turuvchi ichki bog'lanishlardir. Qonun mazmuniga ko'ra o'zaro aloqadorlikni ifodalaydi. Qonun jarayon tomonlarini, hodisalar orasidagi obyektiv, mavjud aloqalarni aniqlash sifatida namoyon bo'ladi.

Tarbiya jarayonidagi bunday aloqalar bilimlarga tayangan holda uni tushunishga, tasvirlashga, tashkil etishga yordam beradi. Mohiyatiga ko'ra qonunlar – bu fan o'rganadigan borliqdagi obyekt, reallik to'g'risidagi nazariy bilimlar hisoblanadi. Qonunlar tarbiya jarayonini yo'nalishlarini, tizim xulq-atvorni tashxislashni ifodalaydi. Qonun ochib beradigan aloqalar — bu determinizm prinsipiga ko'ra (har qanday hodisani obyektning o'zgarishi biror bir sababga ko'ra) sabab-oqibat aloqalaridir. Pedagogikada qonun tushunchasi bilan birgalikda tarbiya prinsipi tushunchasi aloqadorlikda o'rganiladi. Tarbiya prinsipi – bu qonunga asoslangan tarbiyaga bo'lgan asosiy talab, pedagog harakatlarini aniqlovchi bosh g'oya hisoblanadi. Tarbiya qonuniyatlari orasida tarbiyani ijtimoiy hodisa sifatida va pedagogik jarayon sifatida xarakterlovchi umumiy qonuniyatlarning mavjud. Bu qonunlar ta'lim va tarbiya munosabatlarni ko'rsatadi. Tarbiyani jamiyat talablariga mosligi qonuni. Bu qonun an'anaviy pedagogikada ishlab chiqilgan bo'lib, tarbiyaning barcha elementlari uchun tegishli: tarbiya tizimi, mamlakatdagi ta'lim davlat ehtiyojlariga javob beradi, bu tarbiya jarayonida, uning maqsadida, mazmunida, metodlarida ifodalanadi. Boshqa tomondan tarbiya tizimi va pedagogik jarayonlarni tashkillash xarakteri jamiyat, imkoniyatlariga, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnik rivojlanish darajasiga bog'liq. Ushbu tarbiya, jamiyat, davlat orasidagi

aloqalar ta'lim siyosati orqali tuzatiladi va tartibga solinadi. Tarbiya maqsadi, mazmuni, metodi birligi qonuni tarbiya jarayonining barcha komponentlari aloqadorligini ifodalaydi. Maqsad mazmunni, metodlarni, ish shaklini aniqlaydi. O'z navbatida tarbiya jarayonining bu elementlari o'qituvchi va o'quvchilarning qobiliyatlariga va imkoniyatlariga bog'liq.

Tarbiya jarayonidagi qarama-qarshiliklar tarbiyaviy ishlarni buzilishiga, samaradorsizligiga olib keladi. Shaxsni tarbiyasi rivojlanishi va ta'limi birligi qonuni. Yuqorida bir tomondan ta'lim va tarbiya jarayonlarining aloqasi, ikkinchi tomondan shaxsni rivojlanishi orasidagi qonuniy aloqalar xususida ta'kidlab o'tildi. Bu psixologikpedagogik fanlarning fundamental holatlaridan biridir. Ta'lim va tarbiya o'zaro aloqadorlikda olib borilganda samaradorlikka, yutuqlarga erishiladi. Shaxs rivojlanishida har ikki omil asosiy hisoblanishi ko'plab mutaxassislar tomonidan ta'kidlab o'tilgan. Boshqa qonunlar tarbiya jarayoni ichidagi aloqadorliklarni ko'rsatadi: tarbiyani faoliyatda mavjudligi qonuni, tarbiya jarayonini tarbiyalanuvchi faolligi bilan aloqasi qonuni, tarbiya va muloqot aloqasi qonuni, tarbiya jarayonini xususiyatlarini tarbiyalanuvchilarning yosh, individual, jinsiy xususiyatlari bilan aloqasi qonuni, shaxsni shakllanishi jamoa rivojlanishi darajasiga bog'liqligi qonuni v.b qonunlar. Tarbiyani faoliyatda mavjudligi qonuni. Bu, agar biz tarbiyalanuvchilarda tajribani, bilimlarni, qarashlarni, qadriyatlarni shakllantirishni ta'minlamoqchi bo'lsak, biz ularni faoliyatga jalb qilishimiz kerakligidan dalolat beradi. Faoliyat psixologiyaning asosiy tushunchasi hisoblanadi.

Tarbiya jarayonida faoliyatning turli ko'rinishlari shaxsni rivojlanishi va shakllanishining asosiy vositasi va sharti hisoblanadi. Tarbiyalash faoliyatga jalb qilish, turli rivojlantiruvchi faoliyatlarni tashkil etishdir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarni faolligi qonuni, inson faqat faoliyatda shaxs sifatida mustaqil faol mavjudot sifatida o'zini anglaganda, faoliyat shaxsiy mohiyatga ega bo'lganda shaxs shakllanishini, rivojlanishini tasdiqlaydi. Bu qonun bilan qator xususiy qonuniyatlar va tushunchalar aloqadordir. Masalan, o'z-o'zini tarbiyalash, hayotini va kasbini aniqlash, shaxsni o'z-o'zini namoyon qilishi. Ushbu qonunga P.A.Galperin, V.V.Davidovlarning o'quv faoliyati nazariyasi asoslangan. Bu qonun A.S.Makarenko va boshqa buyuk pedagoglar tajribalarida tasdiqlangan. Tarbiya va muloqot birligi

qonuni. Bolalar va o'smirlarning shakllanishi, muloqot mazmuniga, pedagog va o'quvchi xulqi stiliga, ma'lumotlarni almashishni tashkil etilishiga, guruhdagi muassasadagi munosabatlarga bog'liq. Tarbiya, faoliyat, muloqot o'rtasida qonuniy sabab-oqibat aloqalari mavjud. Ushbu qonunga muvofiq tarbiya bevosita muloqot jarayonida amalga oshiriladi. Shuning uchun pedagogikada o'qituvchini tarbiya jarayonida o'quvchilar va boshqalar bilan muloqot texnologiyasini ishlab chiqish, tarbiya jarayonida munosabat texnikasini o'rnatish, stil bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish, kasbiy pedagogik xulq bo'yicha pedagogik muloqotni tashkil etish asosiy ishlardan biri hisoblanadi. Tarbiyani jamoada mavjudligi qonuni. Jamoa yuqori tashkillashtirilgan guruh sifatida shaxsni shakllanishiga ta'sir etib, tarbiyaning kuchli vositasi hisoblanadi. Jamoa faoliyati, undagi muloqot, guruh a'zolari o'rtasidagi munosabat isbotlangan tajriba hisoblanadi. Jamoada va jamoa orqali tarbiyalash sobiq ittifoq pedagogikasidagi asosiy prinsiplardan biridir. Jamoa a'zolariga guruh faollarining, bolalarning ta'siri, mas'uliyatli munosabatlar, turli birlashmalardagi, guruhlardagi o'zaro ta'sir ko'nikmalari, psixologik muhit, jamoa an'anasi bu va boshqa tushunchalar A.Makarenko tomonidan ishlab chiqilgan jamoa nazariyasiga tegishli. G'arb pedagogika va psixologiyasida shaxs shakllanishi xususiyatlari inson tegishli guruh rivojlanish darajasiga bog'liqligi qonuniyatlarini o'rganadi. A.S.Makarenko xulosalariga va tajribasiga butun dunyo pedagoglari qiziqish bilan qaraydilar. Tarbiyani tarbiyalanuvchilarning yosh, individual xususiyatlariga bog'liqligi qonuni. Tarbiya jarayoni uning maqsadi, mazmuni, metod va shakllari nafaqat jamiyat, davlat tomonidan qabul qilingan tarbiya konsepsiyasiga, balki o'quvchilarni yosh, individual xususiyatlariga kam bog'liq. Turli yoshdagi odamlar faoliyatda va muloqotda o'zlarini turlicha amoyon qiladilar. Bu ularni individual xususiyatlari bilan bog'liq.

Maktab va pedagogika tarixidan hozirgi vaqtgacha tajribada va tadqiqotchilar tomonidan tasdiqlangan tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlarini ifodalovchi ko'pchilik tomonidan tan olingan klassik, an'anaviy prinsiplar mavjud. Ular prinsiplar tizimini asosini tashkil etib, tarbiya jarayonini shundayligicha tushunishni, aniqlash to'g'risida ifodalab, pedagog tarbiya samarali bo'lishi uchun nima qilishi kerak degan savolga javob beradi. Prinsiplar tarbiya jarayoniga bo'lgan talablar, asosiy g'oyalar tizimi sifatida nafaqat

qonunlarni ifodalaydi, balki ular asosida shakllanadi, pedagogik ta'sirni natijasi bo'la olmaydi.

Ta'lim-tarbiya prinsiplarini tanlash va tahlil etish, ular mazmunini qayta anglash bu tarbiya paradigmasini va konsepsiyasini ifodalovchi ilmiy pedagogik va amaliy, ijtimoiymadaniy jarayon hisoblanadi. Shunday qilib, prinsiplar u yoki bu tarbiya konsepsiyalari orqali aniqlanib, tajriba va amaliyotda tekshiriladi yoki ta'limning real vaziyatlarida amal qilinadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, yangi tarbiya konsepsiyasiga, ya'ni gumanistik ilmiy-pedagogik, shaxsga yo'naltirilgan tarbiya konsepsiyasiga o'tilayotgan hozirgi paytda yangi prinsiplar tizimini asoslash ularni yangi mazmun bilan boyitish tarbiyaning zamonaviy konsepsiyasiga moslashtirish maqsadga muvofiq. Bu o'tmishdagi tarbiya an'analarni zamonaviy vositalar bilan taqqoslaganda erishiladi. Sobiq ittifoq davridagi ilmiy va o'quv adabiyotlarida tarbiyaning kommunistik yo'nalganligi, tarbiyaning hayot va kommunizm qurish amaliyati bilan bog'liqliligi, pedagogik rahbarlikning tarbiyalanuvchilarning mustaqil faoliyati bilan bog'liqliligi, shaxsga hurmat va talab birligi kabi prinsiplar birinchi o'rinda turganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan ko'rinadiki, o'sha davr g'oyalariga, mafkurasiga javob beruvchi talab va qoidalar mavjud bo'lgan. Mamlakatimizda tarbiya prinsiplar tizimi nima uchun va qanday o'zgaryapti. Tarbiya prinsiplari tizimi tarbiyaning yangi paradigmasi ta'sirida o'zgarib, uning asosiy holatlari qoidalarini, ko'rsatmalarini ifodalaydi.

Bu konsepsiya rivojlangan davlatlarda tan olingan bo'lib, gumanistik konsepsiya nomi bilan yuritiladi. Mamlakatimizda gumanistik pedagogikani rivojlanishini eslatib o'tamiz. Birinchidan, bu qadimdan XIX asrgacha chet el klassik pedagoglarining Ya.A.Komenskiy, G.Pestalotsi, A.Disterveg, K.D.Ushinskiy hamda sharq mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino, Beruniylarning qarashlari va nazariyalari bilan bog'liq. Ikkinchidan, bu XX asrning birinchi yarmidagi rus pedagoglarining K.N. Venttsel, S.T.Shatskiy, A.S. Makarenko hamda Abdulla Avloniy, M.Behbudiylar ta'limoti bilan bog'liq. Uchinchidan, hamkorlik pedagogikasi nomini olgan 80-yillardagi novator o'qituvchilar qarashlari bilan bog'liq. XX asr boshlarida dunyo pedagogikasiga kuchli ta'sir qilgan pedosentrizm, ya'ni erkin tarbiya nazariyasi vakillari Dj. Dyui, V. Lay, M.Montessori,

Valdorf pedagogikasi R.Shtayner v.b. Ular tarbiyaga yangi qarashlar bilan gumanistik yo‘nalishdagi izlanishlarni boyitdilar.

XX asrning ikkinchi yarmida gumanistik pedagogika gumanistik psixologiya vakillari K.Rodjers tomonidan yangi g‘oya va ko‘rsatmalari bilan(bolani qabul qilish, bolaga g‘amxo‘rlik qilish, bolani qo‘llabquvvatlash) bilan boyitildi.Ilmiy uslubiy va o‘quv pedagogik adabiyotlarda turli xildagi tarbiya prinsiplarini ko‘rishimiz mumkin.

Gumanistik tarbiya konsepsiyasi ifodalovchi tarbiya prinsiplari tizimini ko‘rib chiqamiz:

– tarbiyani shaxs rivojlanishiga, ijodiy individuallikni shakllantirishga

yo‘naltirilgan bo‘lishi; – tarbiyani tarbiyalanuvchilarning yosh va individual xususiyatlarga mos bo‘lishi;

– tarbiya madaniy muhit xususiyatlariga mos bo‘lib,tarbiyalanuvchilarni madaniyat elementlarini o‘zlashtirishlari jarayonida bo‘lishi; – tarbiya bolalarni faol, ongli, rivojlantiruvchi faoliyatiga jalb qilishni talab etadi;

– tarbiyani jamiyat hayoti bilan, mehnat bilan, tarbiyalanuvchilarni tajribasi bilan bog‘liqligi;– tarbiyani jamoada va jamoa orqali amalga oshishi; – tarbiyada tarbiyalanuvchining ijobiy tomonlariga tayanish;

– tarbiya tarbiyalanuvchilarni mustaqilligi, va pedagogik rahbarlik bilan mosligi.

Agar yuqorida ta’kidlanganlardan asosiylarini ajratsak: tarbiya shaxsda ijodkorlikni shakllantirishga, tarbiyalanuvchilarni faoliyati jarayonida individuallikni va madaniyatni o‘zlashtirish bo‘yicha ular asosida yosh va individual xususi yatlarni farqlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Yana bir bor prinsiplar tizimi tarbiya konsepsiyasini ifodalab, nafaqat tarbiya qonunlari orqali aniqlanadi, balki pedagogik hamjamiyat va alohida pedagoglarning istaklari, ya’ni subyektiv omillar orqali aniqlanadi.Bunday sharoitda bir guruh pedagoglar, bir o‘qituvchi boshqa bir prinsiplar tizimini tanlashi mumkin. Har qanday sharoitda tanlangan prinsiplar tarbiyada 3 xil konseptual pozitsiyaga olib borishini bilishi kerak. Birinchisi prinsiplar tizimida ifodalangan tarbiya jarayoni yoshlar ongi va xulqida ijtimoiy norma, qadriyatlarni shakllantirishga yo‘nalgan bo‘lishi, ko‘pchilikning ta’kidlashicha bu avtoritar pedagogika deb nomlanadi.

Ikkinchi variantda tarbiya prinsiplari tarbiyani pedagogik qadriyatlar orasida shaxs erkinligini ta'kidlab, tarbiyani shaxsni o'z-o'zini rivojlantirishga, o'z-o'zini aniqlashga, shaxsni rivojlantirishga olib keladi. Bu konsepsiya 100 yil oldin «pedosentrizm» deb nomlangan. Uchinchi variantdagi prinsiplar tizimi tarbiyani shaxsni har tomonlama erkin rivojlanishini o'z-o'zini namoyon qilish huquqini, boshqa tomondan insonni jamiyat talab va qoidalariga bo'ysunishini nazarda tutadi.

Bunday tarbiyada yoshlarga ijtimoiy normalarni, insoniy qadriyat va an'analarni o'tkazish imkonini berib jamiyatni ilgari borishiga zamin yaratadi. Bunday tarbiya insonparvar tarbiya deb nomlanadi. Shunday qilib, pedagogika fanida o'quv tarbiya muassasalaridagi tarbiya amaliyotini va tarixiy tajribalarni tahlili natijasida shakllangan tarbiya prinsiplarini quyidagi uch guruhga ajratgan holda ko'rishimiz mumkin. Birinchi guruh prinsiplar tarbiya maqsadi va azmuniga bo'lgan asosiy talablarni aniqlaydi. Ikkinchi guruh prinsiplar tarbiya metodlariga va tarbiyaviy ish hamda pedagogik hamkorlik texnologiyasi va texnikasiga bo'lgan talablarni aniqlaydi. Uchinchi guruh prinsiplar tarbiya jarayonini ta'minlovchi ayrim ijtimoiy va psixologik sharoitlarni aniqlaydi. Ushbu prinsiplarsiz tarbiya samarali, mahsuldor natija bermaydi. Tarbiya prinsiplarini shartli bunday guruhlarga ajratish, asosiysini ajratib olish, tarbiya jarayoni mohiyatini tushunish uchun yordam beradi. Birinchi guruh prinsiplarga tarbiyani shaxs rivojlanishiga gumanistik yo'nalganligi prinsipi, tarbiyani madaniyatni o'zlashtirishga yo'nalganligi prinsipi, tarbiyani hayot va mehnat bilan bog'liqligi prinsipi kiradi.

Ikkinchi guruh prinsiplar bu pedagogik yoki metodik texnologik prinsiplardir. Bu prinsiplar guruhiga: tarbiyani faoliyatda bo'lishi, tarbiyada shaxs faolligiga tayanish, tarbiyani jamoada va jamoa orqali amalga oshishi, pedagogik rahbarlik va tarbiyalanuvchilarning tashabbuskorligi va o'z faoliyatlari bilan uyg'unligi prinsipi, tarbiyada tarbiyalanuvchiga hurmat bilan talabchanlik uyg'unligi, tarbiyada insonni ijobiy sifatlariga tayanish prinsipi kiradi. Sotsiopsixologik prinsiplar uchinchi guruh prinsiplarini tashkil etadi.

Bularga individual va yosh xususiyatlarni hisobga olish prinsipi, maktab, oila, mahalla talablarining birligi prinsipi kiradi. Prinsiplar mazmunini qisqacha ochib beramiz. Tarbiyani shaxs rivojlanishiga gumanistik yo'nalganligi prinsipi. Bu tarbiya jarayoniga bo'lgan

umumiy talabni ifodalaydi. Tarbiyaning asosiy qadriyati – inson, uning qobiliyatlarining rivojlanishi hisoblanadi.

Bunday yondashuv barcha ijtimoiy sohalarni jumladan ta'lim tizimining gumanistik yo'naliganligiga mos keladi. Davlatlarni rivojlanganlik darajasini baholash bo'yicha xalqaro standartlarda insoniy ko'rsatkichlardan, an'anaviylaridan tashqari yana bir mezon «insoniy o'lchov» «hayot sifati» kiritilayotgani bejiz emas. Antropologik muammolar bilan shug'ullanuvchi olimlar, psixolog va pedagoglar, filosof va sotsiologlar hamda biologlar bunday yondashuv inson rivojlanishi muammolarini kelgusida ishlab chiqish va o'rganishni insoniylik asosida yo'naltirishni taqozo etadi deb hisoblaydilar. Pedagogik fanlar tizimida pedagogik antropologiya nomi bilan paydo bo'lgan pedagogika sohasi bunga misol bo'ladi. Antropologik prinsip pedagogikada metodik prinsipsifatida asoslanadi.

Bu o'z navbatida o'qituvchilardan, tarbiyachilardan pedagogik pozitsiyani o'zgartirishni talab etadi. Tarbiyani xulq-atvor normalarini, jamiyat qadriyatlarini o'zlashtirishga yo'naliganligi prinsipi. Ushbu prinsipga amal qilish birinchidan, shaxs shakllanishi, madaniyat elementlarini, insoniy, milliy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonida amalga oshirishini, ikkinchidan, tarbiya va madaniyatning o'zaro aloqadorligini ifodalaydi. Tarbiyani hayot va mehnat bilan bog'liqligi prinsipi — bu sobiq ittifoq pedagogikasidagi tarbiyaga qo'yilgan talab edi. Shu bilan birga jahon pedagogikasining fundamental talablaridan biridir. Uning asosida tarbiya jarayoni metodikasi hamda tarbiya maqsadi va mazmuni tartibga solinadi. Tarbiyani hayot bilan bog'liqligi o'qituvchi va tarbiyachilardan darsda va darsdan tashqari faoliyatlarida hayotdagi ahamiyatli bo'lgan masalalarni muhokama qilishlarini hamda zamonaviy borliqni dunyo madaniyati va tarixi bilan aloqasini ko'rsatib o'tishlarini taqozo etadi. Tarbiyani mehnat bilan bog'liqligi prinsipi maktab, oila, jamiyat yoshlar tarbiyasini o'quvchilarni mehnat faoliyatini tashkil etishini, ularni mehnatga jalb etishni ifodalaydi.

Tarbiyani faoliyatda mavjudligi prinsipi. Tarbiyani ushbu qonuniyatiga asoslanib, tarbiya jarayoniga asosiy talablar qo'yiladi. To'g'ri tarbiyalash uchun tarbiyalanuvchilarni turli faoliyatlarga jalb etish kerak. Tarbiyalanuvchilar faoliyat turlarini yaxshi bilishi kerak: bularga o'quv-biluv, o'yin, badiiy-estetik, ijtimoiymehnat, sport-sog'lomlashtirish. Boshqacha aytganda, buyuk tarbiyachilar yoshlarni tarbiyalashda turli tarbiya vositalari o'yin, o'qish, san'at, sport, mehnat,

tabiat, ijtimoiy hayot kabilardan foydalanish zarurlini ko'rsatib o'tganlar. Tarbiyada shaxs faolligiga tayanish prinsipi. Tarbiyalanuvchilar o'qishi, sinf, maktab hayotida, bayram va tadbirlarda shunchaki ishtirok etishlari mumkin. Bunday faoliyatning samarasi past bo'ladi.

Tarbiyalanuvchilarni faolligi ularni qiziqishlarida, ongli munosabatlarida mas'uliyatlarida, ijobiy his-tuyg'ularida namoyon bo'ladi. Jamoada va jamoa orqali tarbiyalash prinsipi. Ushbu prinsip A.S.Makarenko tomonidan asoslangan bo'lib, quyidagi jihatlari bilan farqlanadi.

Birinchidan, jamoa har bir a'zosini xulq va axloqini shakllantirish lozim: inson jamiyatda yasharkan, turli guruhlariga kiradi, o'zining shaxsiy maqsadlarini jamiyat qiziqishlari va qadriyatlari bilan uyg'unlashtiradi. Ikkinchidan, sinfda, guruhda shakllantirilgan sog'lom, rivojlantirivchi jamoa hayotida ishtirok etish kuchli tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Uchinchidan, o'qituvchi tarbiyalovchi jamoani shakllantirishni, uni boshqarishni bilishi kerak. Pedagogik rahbarlikni tarbiyalanuvchilarni tashabbuskorligi va mustaqilligi bilan uyg'unligi prinsipi. Tarbiya aniqlanishi bo'yicha tarbiyalanuvchilar faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarda tashabbuskorligini, ijokorligini, mustaqilligini ta'minlanishi uchun sharoit yarata olsalar va bunga erishsalar ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil eta oladilar. Tarbiyada talab va tarbiyalanuvchiga hurmat uyg'unligi prinsipi. Bu prinsip tarbiya jarayonida tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchiga nisbatan talabchan va uning shaxsiga nisbatan hurmatda bo'lishni taqozo etadi. Tarbiyada insonni ijobiy tomonlariga tayanish prinsipi. Ushbu prinsipga amal qilish tarbiyachidan tarbiyalanuvchi shaxsini har tomonlama o'rganish zarurligini taqozo etadi. Har qanday, hatto eng yomon deb ataluvchi odamni ham qaysidir ijobiy fazilati mavjud bo'ladi. Tarbiyada shaxsni ijobiy sifatlariga tayanish tarbiyaviy ishlarni samaradorligini ta'minlaydi. Individual va yosh xususiyatlarni hisobga olish prinsipi. Fanda turli yosh davrlardagi insonlarning xulqi, psixik jarayonlari, faoliyat xususiyatlari o'rganilgan. Masalan, kichik yoshdagi o'quvchilar katta yoshdagilarga nisbatan bir-birlariga aytib beradi, eslab qoladi, muloqot qiladilar.

O'quvchilarni yosh xususiyatlari o'qituvchini muloqot xarakterini, turli yoshdagi bolalarni tarbiyalash metodlarini tanlashda, ularga

yordam berishni to'g'ri tanlashda mas'uliyatli bo'lishni ifodalaydi. Tarbiyada odamlarni individual xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi. Tarbiyada maktab oila, jamiyat talablarining birligi prinsipi. Bu muammo barcha davrlarda ahamiyatli hisoblangan. O'quvchidan maktab bir narsani talab qilsa, jamiyat, ko'cha, ommaviy axborot vositalari boshqa narsalarni o'rgatish hollari ham uchraydi. Ota-onalar bolalarini maktabga topshirishlari bilan mas'uliyatdan xolimiz, endi bolalar tarbiyasi bilan maktab shug'ullansin deb hisoblovchilar ham bor. Maktab, oila, jamoatchilik hamkorligi to'g'ri yo'lga qo'yilgandagina yoshlar tarbiyasida ijobiy natijalarga erishiladi.

6.2. Tarbiya jarayonining mohiyati va ahamiyati.

Tarbiya nazariyasi tarbiya jarayonini pedagogik jarayon sifatida o'rganuvchi pedagogikaning ilmiy sohasi hisoblanadi. Tarbiya nazariyasi tarbiya jarayonini pedagogik jarayon sifatida uning qonuniyatlarini va prinsiplarini, maqsadini, mazmunini, metod va vositalarini hamda shaklini, uning turli ijtimoiy institutlarda tashkil etilishini o'rganadi. XX asrning 90-yillariga qadar pedagogika bo'yicha mutaxassislar pedagogika fanining predmeti tarbiya deb ta'kidlagan bo'lsalarda, XX asrning 90-yillaridan so'ng pedagogika fanining predmeti ta'lim deb hisoblab kelmoqdalar.

Buning asosiy sabablaridan biri butun dunyoda ta'lim va tarbiya jarayonlarini ifodalash uchun ta'lim atamasi qo'llanilmoqda. Pedagogik adabiyotlarda tarbiyani to'rt xil ma'noda qo'llanilganayotganini kuzatishimiz mumkin.

Tarbiya keng ijtimoiy ma'noda — ijtimoiy madaniy tajribalarni, me'yor va qadriyatlarni avloddan avlodga o'tishini ifodalaydi. Tarbiyaning ushbu ma'nosi sotsiologiya va boshqa xulq-atvor to'g'risidagi (falsafa, psixologiya, pedagogika) fanlardagi shaxsni ijtimoiylashuviga yaqinroq. Ijtimoiylashuv deganda insonni jamiyatdagi xulq-atvor normalarini o'zlashtirishini, ijtimoiy hayotda insonni barcha ta'sir etuvchi omillar natijasida ijtimoiy rivojlanish jarayonini tushunamiz. Tarbiya fanda shaxsni rivojlanishi, ijtimoiylashuvi omillaridan biri sifatida qaralib, tarbiyaviy tizim doirasida maqsadga yo'naltirilgan shaxsni shakllanish jarayoni sifatida aniqlanadi. Tarbiyaning tor ijtimoiy ma'nosi ijtimoiy

institutlardagi tarbiyaviy ta'sirlarni ifodalaydi. Bundan tashqari, tarbiya keng va tor pedagogik ma'noda ham qo'llaniladi. Tarbiyaning keng pedagogik ma'nosi o'quv tarbiya muassasalaridagi shaxsni shakllanishini anglatadi, tor pedagogik ma'noda tarbiyani jarayon sifatida qaralishini ifodalaydi. Tarbiyani tor pedagogik ma'nosi aniq tarbiyaviy tizim doirasida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro ta'sirida aniq insoniy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan, maxsus tashkil etilgan faoliyat tushuniladi. Bu yerda pedagoglar faoliyati tarbiyaviy ishlar deb yuritiladi. Shunday qilib, tarbiya nazariyasi pedagogik borliqda tarbiyani shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan, tashkillashtirilgan pedagogik jarayon sifatida o'rganadi.

Tarbiyaning umumiy konsepsiyalari.

Pedagogik adabiyotlar tahlilidan o'tmishda va hozirgi paytda tarbiyaga bo'lgan turli ilmiy-amaliy yondashuvlar aniqlanganligini ko'rishimiz mumkin. Bu yondashuvlar yoki tarbiya konsepsiyalari bir tomondan qadimgi sivilizatsiya tajribasi hamda amaliyotida hozirda esa ijtimoiy-falsafiy, ijtimoiy hayot tajribasini ifodalaydi. Hozirgi paytda pedagogik konsepsiyalar uchun metodologik asos sifatida quyidagi falsafiy ta'limotlarni ajratishimiz mumkin. Bularga: pozitivizm, pragmatizm, ekzistensializm, neopozitivizm, dialektik materializm ta'limotlari kiradi. Pozitivizm (ijobiy –lotincha positivus so'zidan) – falsafiy idealizmning bir turi hisoblanadi.

XIX asrda tarqalib, (O.Kant, St. Miller, G.Spenser), tomondan obyektiv borliqni aks ettirmaydigan subyektiv sezgi va tasavvurlarning yig'indisi deb, tushunilgan tajribaning ma'lumotlariga asoslangan. Pozitivizmning eng yirik namoyondalaridan biri Gerbert Spenser bo'lib, u o'zining pedagogik g'oyalarini quyidagicha ifodalaydi; maktabdagi ta'lim ilmiy bilimlar sistemasiga asoslana olmaydi va asoslanishi ham mumkin emas, maktab asosan o'quvchilarga utilitar (amaliy foydali faoliyatlarida kerak bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalar) bilimlarni berishi kerak; maktabni asosiy maqsadi insonni ijtimoiy sharoitga moslashtirish uchun tarbiyalashdir; tarbiyaning butun bir sistemasi o'quvchilar ongiga mavjud ijtimoiy munosabatlarning barqarorligi haqidagi fikrni singdirishi lozim.

XIX asr oxirlarida Amerikada paydo bo'lgan G.Spenserning progressiv ta'limoti bilan bir xil g'oyaviy yo'nalishda rivojlandi, biroq u tarbiyada «xususiy tashabbuskorlikni» va «erkin tadbirkorlikni» rivojlantirish ruhini kuchaytirdi. Progressivistlarning fikricha, bolalar

motivlarini «spontan-begona ta'sirsiz paydo bo'ladigan, bolalarni ichki dunyosi va ehtiyojlaridan kelib chiqadigan qiziqish va motivlar) namoyon bo'lishi pedagogik jarayonning xarakterini belgilashi lozim, tarbiyaning vazifasi esa, bolalarning individual imkoniyatlarini rivojlantirishga har tomonlama yordam berishdan iborat. Insonning hayotga individual moslashuvi haqidagi g'oya, G.Spenser ta'limotiga tegishli bo'lib, AQSH va Angliyada pedosentrizmning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatib, pedosentrizm tamoyillarini shakllanishiga asos bo'ldi. Pedosentrizm vakillarining fikricha, pedagogik jarayon bolalarning o'z qiziqish, istak, motivlaridan kelib chiqishi kerak. Amerikalik mashhur pedagog Djon Dyui pedosentrizm nazariyasini rivojlantirib, pragmatizm nazariyasiga asos soldi. Uning fikricha, «tarbiya bolaning tajribasini tiklash, va qayta tashkil qilish»dir. Bolalarning to'plagan tajribalarini boyitish ularga muntazam bilim berib borishdan muhimroq vazifa hisoblanadi.

XX asrning 20–30-yillarida paydo bo'lgan neopozitivizm o'zini «mantiqiy pozitivizm» deb ataydi, u falsafaning obyekt tabiat hamda jamiyat qonuniyatlarini o'rganish deb emas, balki fan va fan tilining mantiqiy tuzilishini o'rganish deb hisoblaydilar. Pedagogik nuqtayi nazardan pozitivizm va neopozitivizm «sinfy gormonizatsiyaga» intiladi. Maktabda birinchi navbatda o'rganilayotgan obyekt tabiiy fanlarning mantiqiy tuzilishi bo'lishi kerak, ular ijtimoiy fanlarni ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini inkor etadilar.

Eksistensialistlarning fikricha, maorif va o'qish mazmuniga tizimli hamda ilmiy yondashish, yagona talablar qo'yish foydasiz, hatto zararlidir, ular individning erkin o'sishiga to'sqinlik qiladi. Tarbiya va maktab faqat o'zining takrorlanmasligiga ko'ra nodir bo'lgan har bir inson shaxsiga «o'z-o'zini ifoda etishi va o'z-o'zini namoyon qilishi uchun sharoit yaratishi kerak, xolos; shaxs uchun «ong oqimi» uning shaxsiy sezgi va kechinmalari muhimdir, undan dunyoni va o'zini baholashi kelib chiqadi. Ekzistensializm nazariyasida shaxsni uning ijtimoiy aloqalari va munosabatlaridagina ajratib, shaxs go'yoki o'zining shaxsiy «men»idan, shaxsiy sezgilaridan va o'zining subyektiv tajribasidan jamiyat bilan o'zaro murakkab munosabatini hamda ijtimoiy vaziyatlar xarakterini baholashni keltirib chiqaradigan vaziyatni yaratishga intilishi yaqqol sezilib turadi. Pedagogika shaxs va uning

rivojlanishining psixologik nazariyalariga asoslanadi. Masalan, bixeviorizm, Vigotskiy va uni izdoshlarining tarixiy-madaniy maktabi, K. Rodjersning gumunistik psixologiyasini misol qilishimiz mumkin. XX asrda rivojlangan mamlakatlarda tor ko‘rinishdagi tarbiya konsepsiyalari, aniqroq aytganda dolzarb, ijtimoiy siyosiy, insonparvar g‘oyalar asosdagi dasturlar paydo bo‘ldi. Bularga kommunikativ tarbiya, tinchlik ruhidagi tarbiya, yashash uchun tarbiya, madaniy tarbiya dasturlari kiradi.

Ta’lim tarixida va pedagogik nazariyalarda antik davrdan boshlab, u yoki bu alloma, pedagog nomi va ijodi bilan bog‘liq bo‘lgan tarbiyaning umumiy konsepsiyalari shakllangan. Bularga: Platonning ijtimoiy pedagogik utopiyasi, Ya.A. Komenskiyning umumiy tarbiya to‘g‘risidagi ta’limoti, J.J.Russoning erkin tarbiya ta’limoti, I. Gerbart, K.D. Ushinskiy, Dj. Dyui, A.S. Makarenkolarning pedagogik tizimlari misol bo‘la oladi. Nemis mutaxassisi F. V. Kron tarbiyaga bo‘lgan olti yondashuvni ko‘rsatib o‘tgan:

Tarbiya—o‘ziga xos majburlashdir (Platon).

Tarbiya – hayot davomida bolaga yordam berish (Pestalotsi).

Tarbiya – bolani erkin rivojlanishi uchun sharoit yaratish (Russo).

Tarbiya – bolani nazorat va boshqarish (Gerbart).

Tarbiya – bolani tajrabali va katta odamlar tomonidan rahbarlik qilish.

Tarbiya – belgilangan me’yorlarni ishlab chiqarish (bixeviorizm).

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, tarbiya konsepsiyasi turli darajalarda, ya’ni falsafiy, ijtimoiy va psixologik ta’limotdan boshlab, zamonaviy va o‘tmishdagi pedagoglarning mualliflik maktablarigacha. Mualliflik maktablari u yoki bu pedagogning yoki pedagoglar guruhining alohida g‘oyalari va maqsadli konsepsiyalari qo‘llaniladigan muassasalar hisoblanadi. Bugungi kunda tarbiyaning asosiy muammolaridan biri tarbiyada erkinlik va majburiylik munosabatidir. Boshqacha qilib aytganda, shakllanish jarayonini davlat, ta’limning maxsus tizimlari, maktab, odamni yoshligidan boshlab rivojlanishi, maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy ta’sirlarni samaradorlik imkoniyatlari bo‘yicha rivojlanishni nazoratga olishi kerak. Har bir inson o‘zining rivojlanishida, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishida va ehtiyojlarini qondirilishida jamiyatdan ozodmi yoki yo‘qmi degan savol ijtimoiy-falsafiy sohada mavjud.

Ushbu savolni hal etilishi turli darajalarda amalga oshiriladi. Bularga maxsus konsepsiya, mamlakatning ta'lim sohasidagi milliy dasturi, maktabni tarbiyaviy tizimi, mualliflik tarbiya tizimlari, o'qituvchining bolalar bilan individual muloqot stili kabilar kiradi.

Bunda har bir inson uchun individual ta'lim trayektoriyasi yaratish imkoniyatlarini nazarda tutadi. Shunday qilib, turli mamlakatlarning zamonaviy ta'lim tizimlarida va ta'lim tarixida ikki turdaga tarbiya konsepsiyalarini (avtoritar va gumanistik) ajratish mumkin. Demak, avtoritar tarbiya konsepsiyasida jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan maqsad va qadriyatlarga urg'u berilsa, gumanistik tarbiyada shaxsning individual, ya'ni qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlariga e'tibor beriladi.

XX asrning pedagogik konsepsiyalari orasida, ijtimoiy yo'nalganlik xarakteridagi bixeviorizm nazariyasini ko'rib chiqaylik. Bixeviorizm nazariyasi amerikalik pedagog va psixolog D.Dyui tomonidan XX asr boshlarida paydo bo'ldi. Bixevioristik pedagogika tarbiyaga texnologik yondashuvni stimullashtirdi.

Unga muvofiq o'qituvchi o'quvchi modelini, undagi shaxsiy sifatlar yig'indisini aniqlab, ta'sir etish metod va vositalarini loyihalashtiradi. Bu pedagogikadagi texnokratik tendensiyalar talablariga javob beradi. Ya'ni jamiyat nazorati ostida shaxs shakllanishini boshqarishni ilmiy-pedagogik tizimini ishlab chiqdi. Texnokratik yondashuv mohiyati o'quvchi va kattalarning ruhiyatiga ta'sir etish nazariyasi va amaliyotini ifodalaydi. Bixeviorizm inson hayoti biologik, mexanik reaksiyalardan iborat xolos, uning ongi, qadriyatlari, axloqiy prinsiplari, qarashlari motivlari shaxsning xulqini aniqlaydi deb hisoblaydi. XX asr boshlarida pedagogikada islohotlar davri, ya'ni yangi maktab, erkin tarbiya uchun harakatlar davri deb e'tirof etilgan. Yangi maktab tarafdorlarining fikricha, ta'lim va tarbiyani bolalarning qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish zarur. Tarbiya ularni imkoniyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerakligini ta'kidlaydilar. Shunday qilib, ta'lim-tarbiya tarixida tarbiya tizimining ikki turi mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Birinchisi – an'anaviy tarbiya, buning mohiyati tarbiyani ijtimoiy normalarni o'zlashtirishga yo'nalganligi, insonga ijtimoiy talablarni qo'yilishi bilan xarakterlanadi. Tarbiya tizimining insoniy yo'naltirilganligi shaxsni individual rivojlanishini, uning ichki ehtiyoj va

qiziqishlarini ifodalaydi. Bunda bolani erkin faoliyati alohida kasb etadi.

Mamlakatning tasdiqlangan, qabul qilingan tarbiya konsepsiyasi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, tarixiy-madaniy, psixologik va pedagogik omillar bilan aniqlanadi. Ma'lumki, mamlakatimizda barcha omillar o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab o'zgardi. Tarbiyaning yangi paradigmasiga burilishi o'tgan asrning 80-yillarida novator o'qituvchilar harakatlarida paydo bo'ldi.

Mamlakatimizda demokratik jamiyatni shakllanishi: inson huquqi, fuqarolik jamiyati, demokratiya, iqtisodning ijtimoiy yo'nalganligi, insonparvarlashtirish kabi me'yoriy normalar bilan bog'liq. Ushbu tayanch prinsiplar siyosatchilar, sotsiologlar va boshqa mutaxassislar bilan kelishilgan holda yer yuzidagi insonlar hayotining bugunini va istiqbolini belgilaydi. Insoniylik dunyoqarash, insonni asosiy qadriyat sifatida uning rivojlanish huquqini, baxtini, o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishini ifodalaydi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, insoniylik dunyo evolutsiyasining tabiiy natijasidir. Insoniylik ijtimoiy, ilmiy, madaniy, axloqiy fenomen hisoblanib, insonni tabiatga, jamiyatga, insonga nisbatan qarashlari yig'indisi hisoblanadi. Insoniylik g'oyalari qadim zamonlardan ma'lum bo'lib, ammo dunyoni gumanistik tushunish, Uyg'onish davridan boshlab paydo bo'ldi. Uyg'onish davri mutafakkirlari shaxs qadriyatini, insonni bilish va rivojlanish imkoniyatlarini, dunyoni o'zgartirish imkoniyatlarini chegarasi yo'qligini ko'rsatib o'tganlar. XX asrda insoniylik g'oyalari butun dunyo intellektual kuchlarini birlashtirib, milliy insoniy harakatlarni, tashkilotlarni, ilmiy anjumanlarni tashkil etilishiga, yaratilishiga turtki bo'lmoqda.

Shunday qilib, bugungi kunda mamlakatimizda tarbiya konsepsiyasini ishlab chiqish uchun qator sharoitlar va manbalar mavjud.

Bularga: mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoitlar; ta'lim va madaniyatning boy tarixi; gumanistik tarbiya nazariyalari va tizimi hamda chet el tajribasi. Adabiyotlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, insonparvar pedagogika, erkinlik va muhabbat ruhidagi tarbiya asoslanmoqda, muhokama qilinmoqda. Ikkinchi bir tomondan an'anaviy sobiq ittifoq tarbiya tizimi inqirozga uchrab keskin tanqid qilinmoqda. Tarbiyaga bo'lgan yangi yondashuvni mohiyati tarbiyaning yangi paradigmasida va tarbiyaning yangi konsepsiyasida qanday ifodalanmoqda degan savolga javob beramiz. Paradigma —

nazariya, tadqiqot vazifalarni hal etish uchun namuna sifatida qabul qilingan ilmiy yondashuv. Konsepsiya – tarbiyaning asosiy komponentlari, maqsad, mazmun, metod, shakl, vositalar to‘g‘risidagi tasavvurlar. Pedagogik adabiyotlarda bugungi kunda va kelajakda tarbiya maqsadlari tizimini asoslashga urinishlar kuzatilmoqda. Ko‘plab mutaxassislar tarbiya maqsadini aniqlashda aksiologik yondashuv (tarbiya maqsadi jamiyatda qabul qilingan qadriyatlarga asoslanishi) ga tayanmoqdalar (ushbu holatda qadriyatlar – biror bir inson, butun bir jamiyat uchun etalon sifatida qabul qilingan ijtimoiy ideallar, abstrakt g‘oyalar hisoblanadi). Tarbiya maqsadi jamiyat rivojlanishi ehtiyojlaridan, ishlab chiqarish taraqqiyotidan, ijtimoiy va ilmiy-texnik progres tezligidan, pedagogik nazariya va amaliyotining rivojlanganlik darajasidan, o‘quv muassasasining, o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamda jamiyat imkoniyatlaridan aniqlanadi. Tarbiya maqsadi – bu yosh avlodni hayotga tayyorlashdagi oldindan aniqlangan natija hisoblanadi. Tarbiya maqsadi to‘g‘risidagi bilimlarni bilish o‘qituvchidan qanday odamni shakllantirish kerakligi to‘g‘risidagi tasavvurni hosil qiladi. Mamlakatimiz ta’lim tizimining me’yoriy hujjatlarida tarbiya maqsadi O‘zbekiston uchun vatanparvar, ozodlik, demokratiya, insoniylik, adolat ideallarni yuqori qo‘yuvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qiluvchi, o‘z qiziqishlarini davlat, jamiyat, boshqa odamlar qiziqishlari bilan uyg‘unlashtiruvchi, o‘z milliy tarixini, tilini e’zozlovchi shaxsni shakllantirishdir deb belgilangan.

6.3. Jamoa tarbiya obyektini va subyekti sifatida.

Jamoa so‘zi lotincha “kollektivus” so‘zining tarjimasini bo‘lib, yio‘ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh ma’nolarini anglatadi. Aniqroq aytiladigan bo‘lsa, jamoa bu – kishilardan iborat guruh demakdir. Zamonaviy talqinda “Jamoa” tushunchasi ikki xil ma’noda ishlatiladi. Birinchidan, jamoa deganda kishilarning istalgan tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan, ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, xo‘jalik jamoasi va hokazo). Ikkinchidan, jamoa deganda yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi. Chunonchi, o‘quvchi (tarbiyalanuvchi) larning birlashmasi o‘ziga xos muhim belgilarga egadir. Quyida jamoa va uning xususiyatlari (belgilari) borasida so‘z

yuritimiz.

Jamoa va jamoa orqali tarbiyalash tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi ahamiyati to'g'risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada, uning a'zolari o'rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanishini ta'minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo'lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning yetarli darajada uyushgan har qanday guruhidan ajratib turadi.

Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me'yorlari o'z ifodasini topadi. Zero, jamoa jamiyatdagi mavjud munosabatlar tizimida namoyon bo'lar ekan, jamoa va ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishida o'zaro birlik, uzviy maqsadga muvofiq tashkil etadi.

Shu bois, jamoa hayotning bir (yagona) maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy-o'oyaviy yo'nalganligi uning yetakchi belgisi sanaladi.

Har bir jamoa boshqa bir jamoalar bilan uzviy boo'liq bo'ladi. Uning har bir a'zosi jamiyat ijtimoiy faoliyatini tashkil etish jarayonida o'z jamoasi bilan birgalikda ishtirok etadi. Jamoani tushunish, uni his etish hamda shaxsni shallantirishdagi o'rni va rolini to'g'ri baholay olish umumiy va xususiy (shaxsiy) maqsadning qiziqishi, ehtiyoj va faoliyatning birligini namoyon etadi, hamda bo'linishiga yo'l qo'ymaydi.

Har bir jamoa o'z-o'zini boshqarish organiga ega va umummilliy jamoaning uzviy qismi sanaladi. Shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliy jamoa bilan boo'lanadi. Ijtimoiy jamiyatning ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyatidir. Jamoa faoliyatining ijtimoiy-o'oyaviy yo'nalishi ham jamoaning faoliyati mazmunida o'z aksini topishi muhim ahamiyatga egadir.

Jamoa xususiyatini aniqlash kishilar guruhining yagona ijtimoiy tizimini o'rnatishdagi usuli, ya'ni jamoani tashkil qilish usuli ham muhim hisoblanadi. Pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etilgan jamoa faoliyati natijasida jamoa a'zolari o'rtasida ishchanlik, bir-biri uchun o'amxo'rlik, o'zaro yordam, jamoa manfaati uchun javobgarlik hissi qaror topadi. Birgalikdagi faoliyat umumjamiyat ishi uchun mas'uliyat hissini uyo'ota borib, jamoa a'zolarini bir-biriga

yaqinlashtiradi, jamoaga Hurmat hissini paydo bo'lishiga ko'maklashadi, jamoa bilan munosabatda bo'lish ehtiyojini oshiradi, jamoa a'zolari o'rtasida o'zaro ruhiy yaqinlik, hissiy birlik (bir-birini yoqtirish) yuzaga keladi. Ushbu munosabat ko'pincha o'z-o'zidan paydo bo'ladi hamda ular pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun qo'l keladi. Ruhiy va hissiy birlik jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyatini mazmuniga ular orasidagi hosil bo'lgan ishchanlik faoliyatining xarakteriga bevosita bo'liqdir.

Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishini bir-biridan farqlash lozim. Jamoaning rasmiy tuzilishi deganda jamoa faoliyatining turli ko'rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy jihatlari ko'zda tutiladi. Mazkur tuzilma bir tomondan, jamoa a'zolari qo'yilgan ishchanlik munosabatlarini ifoda etsa, ikkinchi tomondan, rahbarlik vazifasini bajaruvchi tarbiyachilar hamda jamoa a'zolari o'rtasidagi mavjud boshqarish munosabatlari mazmunini ifoda etadi.

Norasmiy tuzilma jamoaning barcha a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy, psixologik munosabatlarning umumiy tizimi va mikrogruhni tashkil etuvchi ayrim a'zolar o'rtasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi. Jamoaning har bir a'zosi mavjud munosabatlar tizimida u yoki bu o'rinni egallaydi. Tarbiyalanuvchi shaxsning jamoadagi o'rni uning shakllanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Maktab yoki sinfdagi rasmiy va norasmiy tuzilmalar bir-biriga muvofiq bo'lganda, jamoaning rasmiy yetakchilari norasmiy munosabatlar tizimida ko'zga tashlangan o'rinni egallagan holdagina u chinakam jamoa bo'la oladi. Shuningdek, norasmiy guruhlar (mikrogruhlar) umumjamoaa ijtimoiy manfaatlari uchun kurashuvchi guruhlar bo'lgandagina jamoa o'zini chinakam jamoa tarzida namoyon etishi mumkin.

Yashash joylarida o'zaro birikkan bolalar guruhlari qanchalik ahil va inoq munosabat zaminida tashkil topgan bo'lmasin, haqiqiy jamoa bo'la olmaydi. Chinakam jamoa ijtimoiy ahamiyatga moyillik faoliyatini tashkil eta olishi, jamoa a'zolari o'rtasida ijtimoiy ahamiyatli faoliyat, maqsad, ishchanlik xarakteridagi aloqa va munosabatlarni o'rnatish lozim. Jamoaning majburiylik belgisi unga pedagogik rahbarlikning bo'lishidir.

Shunday qilib, jamoa-kishilarning shunday muayyan guruhi bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy maqsad hamda

mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi. Ushbu guruh a'zolari o'zaro birlik, a'zolarining munosabatlar jarayonidagi tengligi asosida unga rahbarlik qilish va bir-biriga bo'ysunishi, shuningdek, jamoa oldidagi javobgarligi asosida muayyan faoliyatni olib boradilar.

Jamoa va uni shakllantirish pedagogik faoliyatning maqsadi hisoblanadi. Namuna ko'rsatish uni shakllantirish vositasi bo'lib, uning yordamida jamoaning barcha yoki har bir a'zosini tarbiyalash yaxshi samara beradi.

Jamoaning yetakchi tarbiyaviy vazifasi shaxsni har tomonlama tarbiyalash, unda ijobiy sifatlarni hosil qilish, mustahkam hayotiy pozitsiyani qaror toptirishdan iboratdir.

Umumiy o'rta ta'lim hamda yangi turdagi ta'lim muassasalarida jamoani shakllantirish mas'uliyatli vazifa sanaladi.

Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo' o'in-sinflar jamoalari sanaladi. Sinf jamoasi doirasida o'quvchilar o'rtasida mustahkam shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Bu bilan sinf jamoasi o'z negizida maktab jamoasining shakllanishi uchun o'ziga xos poydevor vazifasini bajaradi. Maktab jamoasi tarkibida o'quvchilar jamoasi bu-ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni tashkil etish, shuningdek, umumiy saylov organlari va umumiy javobgarlik, barcha a'zolarining huquq va burchlari tengligi asosidagi o'zaro birlikka ega o'quvchilar guruhidir.

O'quvchilar jamoasi pedagog-tarbiyachilar hamda bolalardan iborat jamoaning murakkab birlashmasi, o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarish jarayonini tashkil etuvchi mustaqil tizim, shuningdek, o'zining psixologik muhitiga, an'analariga ega guruh hisoblanadi.

Bir so'z bilan aytganda, jamoa bolalarning bir guruhi emas, balki maxsus tashkil etilgan munosabatlar tizimidir.


Jamoa o'z-o'zini boshqarish va tartibga solish organlariga ega bo'lib, ular barcha bolalarning va jamiyatning manfaatlarini ifodalovchi vakillardir. Jamoa maktab o'quvchilarini umumiy maqsad, umumiy mehnat bilan hamda mehnatni umumiy tarzda tashkil etish bilan birlashtiradi.

Pedagog bolalar hayotini tashkil etishning shunday shaklini topishi kerakki, uning yordamida barcha bolalarga alohida olingan har bir shaxsga bir vaqtning o'zida va bir xilda kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsata oladigan bo'lsin, tashkil etilgan va muayyan an'analariga ega bo'lgan

jamo'a pedagogning tashkil etilgan jamo'a fikri yordamida barcha bolalarga va alohida olingan har bir bolaga ta'sir o'tkazishga imkon beribgina qolmasdan, shu bilan birga, tarbiyachi yo'q bo'lgan vaqtda ham katta o'quvchilarning kichik o'quvchilarni to'g'ri tarbiyalashga imkon beradi. Bolalar jamoasi metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilsa, u katta tarbiyaviy kuch bo'lib qoladi.

6.4. Bolalar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari. **Bolalar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari.**

Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayondir. Jamoaning vujudga kelishi uchun to'rt bosqich zarur. Jamoaning shakllanish bosqichlarida dastlab pedagog butun bir guruhga talab qo'yadi, so'ngra jamo'a faollari (aktivi) jamo'a a'zolariga talab qo'yadi, so'ngra butun jamo'a alohida shaxsdan muayyan tarzda faoliyat olib borishni talab qiladi va nihoyat, shaxs o'z-o'ziga talab qo'yadi. Ushbu jarayonni sxema tarzida quyidagicha bayon etish mumkin.



Qo'yilayotgan talablar mazmunidagi farq va jamo'a rivojlanishi bosqichini aniqlovchi yorqin tashqi ko'rsatkich sanaladi. Jamoaning amaliy faoliyat mazmuni, jamo'a a'zolarining jamo'a oldidagi javobgarligi, ijodiy hamkorligi a'zolarining xulq-atvori, axloqiy kamolot darajasini ko'rsatuvchi muhim belgilar sifatida namoyon bo'ladi. Jamoani shakllantirishda uning hayotini belgilovchi ichki jarayonning mohiyatini inobatga olish zarur.

Jamoaning shakllanish bosqichlarini belgilash shartli hisoblanadi, chunki jamoaning bosqichlari chegara yoki oraliqqa ega emas. Shunga qaramay pedagogik nuqtai nazardan jamoaning shakllanishini bosqichlarga ajratish juda muhimdir. Bolalar jamoasi rivojlanishning birinchi bosqichi. Mazkur bosqichda talab faqat pedagoglar tomonidan qo'yiladi. Bu jamo'a rivojlanishining boshlano'ich nuqtasidir. Ushbu

davrdagi jamoa hali tarbiyalovchi jamoa bo'lmay, balki tashkil etuvchi birlik (sinf, guruh) dir. Tarbiyalanuvchilar talablarning quyilishiga e'tiborsiz qaraydilar. Jamoa a'zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatini tashkil qilish va ularni muayyan (yagona) maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqaligina jamoa qaror topadi. Tarbiyalanuvchilarning jamoa faoliyatida ishtirok etishi tufayli asta-sekin boyib boradigan tajriba, faoliyat natijasini birgalikda muhokama qilish, qilinajak ishlarni rejalashtirish jamoa a'zolarida mas'uliyat, javobgarlik, faoliyat birligi, shuningdek, ishchanlik munosabatining paydo bo'lishiga tarbiyalanuvchilarda jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqishni paydo bo'lishiga olib keladi. Bolalarning jamoa faoliyatini tashkil etish borasidagi tajribalariga ega emasliklari bois, mazkur bosqichda pedagogning asosiy maqsadi jamoa a'zolarini oddiy tarzda uyushtirishdan iborat bo'ladi.

Ushbu bosqichda pedagogning talabchanligi, qat'iyiligi, izchilligi, murosasizligi va jamoaning barcha a'zolariga talabni birday qo'ya olishi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu vaziyatda o'qituvchining "Hukmdorlik" davri uzoq davom etishi mumkin emasligini, aks holda bir qarashda intizomning vujudga kelganligi ma'lum bo'lsa-da, guruh a'zolarining, faolliklarini rivojlantirish uchun sharoitning mavjud emasligini hisobga olish zarur.

Jamoa hayotining birinchi bosqichida jamoa faollarining paydo bo'lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir. Jamoa faoli (aktivi) muayyan guruhning shunday a'zolaridandirki ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qiladilar va pedagog faoliyati va talablariga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladilar. Faollar pedagogning yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar.

Jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi. Ushbu bosqich jamoa faollarining pedagog talablarini qo'llab-quvvatlashi hamda o'z navbatida uning o'zi bu talablarni jamoa a'zolari zimmasiga qo'yishi bilan tavsiflanadi. Endilikda pedagogik jamoada paydo bo'lgan va u bilan bo'liq bo'lgan muammo, masalalarni yolo'iz o'zlari hal qilmaydilar. Jamoa faollari bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali bu ishga ularni jalb etadilar. Jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya'ni jamoa o'z-o'zini boshqarishga o'tadi.

Tarbiyalanuvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi mazkur davrning muhim xususiyati sanaladi. Ikkinchi bosqichda jamoaning muhim ishlarini o'quvchilar tomonidan

mutassil rejalashtirishi, tadbirlarni o'tkazishga tayyorgarlik, uni o'tkazish hamda faoliyat natijalarini muhokama qilish jamoa faoliyatining ijodiy xususiyatining ko'rsatuvchi omillari sanaladi.

Jamoaning ijobiy rivojlanishi uning a'zolarida faoliyat motivlari (rao'batlari) ning paydo bo'lishi, ijodiy hamkorlik va o'zaro yordam munosabatlarining tez sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keladi.

Jamoada mustaqil faoliyatning yuzaga kelishida jamoa faollarining roli beqiyosdir. Ammo jamoa faolining jamoa a'zolari orasida hurmat qozona olishi namuna bo'lishi, o'z burchini aniq va puxta bajarishi hamda o'z mavqelarini suiste'mol qilmasliklari juda muhimdir. Bu o'rinda A.S.Makarenkoning jamoa faoliga nisbatan "jamoa vijdoni" deya bergan ta'rifini eslab o'tish joizdir. Jamoa faollari birmuncha imtiyozlar (huquqlar)ga ega bo'lsa-da, ayni paytda uning o'ziga ham oshirilgan talablarning qo'yilishi maqsadga muvofiqdir.

Jamoaning rivojlanishi bu bosqichda to'xtab qolishi mumkin emas, chunki faoliyat ko'rsatayotgan kuch jamoaning bir qismigina xolos. Bordi-yu, jamoaning rivojlanishi ushbu bosqichda to'xtatib qolinsa, jamoa faollarining guruhning boshqa a'zolari bilan qarama-qarshi qo'yish xavfi tuo'ilishi mumkin.

Mazkur bosqichda jamoa moddiy va ma'naviy imkoniyatlarni to'plab, mustahkamlanib va boyib borar ekan, shaxsning har tomonlama ulo'ayishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni sekin-asta yaratib beradi.

Bu esa ikkinchi bosqichni jamoa shaxsni har tomonlama kamolga yetkazishini ob'ektiv sharti asosida boshlashini taqozo etadi. Bunda boshlano'ich davr bekor ketmaydi, u faqat salbiy jo'shqinlikka emas, balki ijobiy jo'shqinlikka ham ega bo'ladi. Bir tomondan, u qiyinchiliklariga tayyorlash imkonini beradi, bolada o'z-o'zini anglash va o'zini idora qilishga intilishni tarbiyalaydi. Ikinchi tomondan, bu bosqichni amalga oshirish kishining har tomonlama ulo'ayishi uchun zarur bo'lgan amaliy va ma'naviy munosabatlar tizimi vujudga keladi.

Jamoarivojlanishining uchinchi bosqichi jamoa faoliyatida anchagina sermahsul hisoblanadi. A.S.Makarenkoning aniqlashicha, bu davrda butun jamoa "ayrim o'zini chetga olib qoluvchi, injiq shaxs" larga talab qo'ya boshlaydi.

Jamoaga endilikda faqat faollargina emas, balki uning butun a'zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich, ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. Pedagog mazkur yo'nalishdagi ishni

maqsadga muvofiq va izchil olib borgan sharoitdagina ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin. Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasini jamoaning birgalikdagi faoliyati yakuni, uning a'zolari tomonidan jamoa bo'lib muhokama qilinadi: turli mavzularda suhbatlar va ma'ruzalar uyushtiriladi, o'quvchilar o'rtasida samarali axborot vositalar yordamida ijtimoiy o'oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va hokazo bilimlar taro'iboti tashkil etiladi. Pedagog jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan, jamoa a'zolarini ijobiy tajribaga qo'shish imkonini beradigan, o'zaro munosabatlarni shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan shakl va metodlardan foydalanadi.

Jamoa o'zining har bir a'zosida ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda shakllantirib borish jamoa a'zolari orasida barqaror insoniy munosabatlarni tarkib toptirishga yordam beradi.

Jamoadagi barqaror insoniy munosabatlarning yuzaga kelishining sababi uning a'zolarini yuksak axloqiy mazmunga ega bo'lgan ishlarni tashkil etishda faol ishtirok etishlarining samarasidir.

Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichida ko'rsatib o'tilgan xususiyatlar shundan dalolat beradiki, ushbu bosqichda faqat jamoa faoliyatini emas, balki jamoaning har bir a'zosi bir-birlariga axloqiy mazmundagi talablarni qo'ya boshlaydilar.

Jamoa rivojlanishining to'rtinchi bosqichi. Bu bosqich uchinchi bosqichning bevosita davomi bo'lib, endi uning barcha a'zolari jamoa oldida turgan talablar asosida o'z-o'zlariga talablar qo'ya olishlari bilan tavsiflanadi. Shuni aytish mumkinki, har bir bosqich jamoa a'zolarining o'ziga muayyan talablar qo'yishi bilan tavsiflanadi, ammo qo'yilgan har bir talab o'ziga xos yo'nalishi (masalan, o'yinda umuminsoniyat baxti uchun kurashishga intilish o'rtasidagi farq) bilan ajralib turadi.

Xuddi shu jihatdan to'rtinchi bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a'zolarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga o'sib o'tadi. Biroq, bu ayrim shaxsning yanada rivojlanishida jamoaning tutgan o'rnini pasaytirmaydi. To'rtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldidagi istiqbolli, yuksak va murakkab talablar qo'yish uchun mutlaqo qulay sharoit yaratiladi.

√ *Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:*



- 1.«Tarbiya» atamasi qanday ma'noni bildiradi?
2. Tarbiya, ta'lim va ijtimoiylashuv orasidagi aloqadorlikni izohlang.
- 3.Insonparvar pedagogika mohiyati nimada?
4. O'zbekistonda tarbiyaning qanday zamonaviy konsepsiyasi mavjud?
- 5.Jamoa tarbiyasi muammosi nimani anglatadi?
6. Jamoa nazariyasini shakllanishining asosiy jihatlari qaysilar?
7. Bolalar jamoasining asosiy jihatlari tavsiflang.
8. Jamoani rivojlanish bosqichlarini va ushbu bosqichlarda tarbiyachining asosiy vazifalarini izohlang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: «O'zbekiston», 2016.-56 b
2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. - T.: «O'zbekiston», 2017.-488 b.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1999.
4. Toxtaxodjayeva M.X. va boshqalar. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta'lim sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik/ M.X. Toxtaxodjayeva, S. Nishonova, J. Hasanboyev, M.Usmonboyeva, S. Madiyarova, A. Koldibekova, N. Nishonova, N. Sayidahmedov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. - Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010. - 400 b.
5. Yo'ldoshev O'.J. tahriri ostida. Umumiy pedagogika. – T.: «Fan va texnologiya», 2017. - 376 b.
6. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Shirinov M.K., Hafizov S. Umumiy pedagogika. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018. –528 b.
7. Hashimov Komiljon. Pedagogika tarixi: Darslik. Q2/K.Hashimov, S.Nishonova. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2005. – 304 b.
8. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika (darslik). – T., «Fan va texnologiyalar», 2007. - 288 b.
9. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017. - 416 b.
10. Умарова, М.Х. Теория и истории педагогики: учебное пособие для направления бакалавриата область образования М. Умарова. Министерством высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан. – Т.: Чулпан. 2018. – 372 с.
11. Абдуллаева Ш.А., Зайнитдинова М.А., Халикова Г.И. История педагогики (Учебник). 2017, 258 стр.
12. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. –T.: Istiqlol, 2003.
13. Окон В. Введение в общую дидактику. –М: Высшая школа, 1990, 382 с.
14. Ochilov M. Muallim – qalb me'mori: saylanma. –T.: O'qituvchi, 2000, 432 b.

15. Педагогика. – /под. ред. Пидкасистого П.И. Пед.общество России, Москва, 2002, 608 с.

16. Pedagogika /A.K.Munavvarov tahriri ostida –T.: O‘qituvchi, 1996.

17. Pedagogika (ekspres ma’lumotnoma) /Abdullayeva Sh., Axatova D., Sobirov B., Sayitov S. –T.: Fan, 2004, 264 b.

18. Подласый И. П. Педагогика. Новый курс.-М., 1999.

19. Радугин А. Педагогика -М.: Центр, 2002, 269.

20. Rajaboyev S. Xalq maorifi va pedagogika fanining buyuk allomalari –T.:O‘qituvchi, 1990.

21. Реан А.Н. Бордовская Н.В., Розум С.Н. Психология и педагогика СПб, 2000.

22. Roziqov O., Og‘ayev S., Adizov B. Didaktika. – Toshkent: Fan, 1997, 255 b.

23. Savin N.V. Pedagogika. –T.: O‘qituvchi, 1975, 306 b.

24. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –T., 2003, 68 b.

25. Ситаров В.А. Дидактика. –М.: Академия, 2002, 368 .

26. Современные методы преподавания в вузе. Под.ред. Б.Л.Фарбермана. –Т., 2001, 193 с.

27. Современная дидактика: Теория-практика /под.пед. И.Я.Лернера, И.К.Журовлева –М., 1994

28. Tohirova N. Fuqarolik madaniyati huquqiy madaniyat poydevori: G‘G‘J.Ta‘lim tizimida ijtimoiy gumanitar fanlar. – T.: 2003, 3-4 son, 87-91 b.

29. Xodjayev B.Q. Fuqarolik jamiyati va shaxs fuqarolik madaniyati G‘G‘J.Pedagogik mahorat, 2008 №1, 1-10 b.

30. Mahkamov U.I. O‘quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. –T.: fan, 1995-2000 b.

31. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2006

Internet saytlari

1.www.bilimdon.uz

2.www.tatu.uz

3.www.ziyonet.uz

4. www.ziyouz.com

5.www.kitobxon.com

6. www.edu.uz

MUNDARIJA

Kirish	3
I mavzu. Pedagogika nazariyasi fanining mazmuni, mohiyati va predmeti.	5
1.1. Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Pedagogikaning asosiy kategoriya va tushunchalari.	5
1.2. Pedagogik fanlarning tuzilishi. Pedagogik fanlar tizimi. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlariga tavsif.....	10
1.3. Shaxs kamoloti ijtimoiy-biologik hodisa, pedagogik jarayon obyekti va subyekti sifatida.	20
1.4. Yaxlit pedagogik jarayonning mohiyati. Pedagogik jarayon yaxlit hodisa sifatida.	23
II mavzu. Didaktika ta'lim nazariyasi sifatida	27
2.1. Ta'lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Didaktikaning maqsad va vazifalari.....	27
2.2. Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari. Ta'lim jarayoni mohiyati.	54
2.3. Sharq va G'arb mutafakkirlarining gnoseologik g'oyalari ta'lim jarayoni asosi sifatida.....	57
2.4. O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi.	58
III mavzu. Umumiy o'rta ta'limi mazmuni	77
3.1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartining maqsad va vazifalari.....	77
3.2. Davlat ta'lim standarti. Ta'lim mazmunini tashkil etish konsepsiyasi.	81
3.3. Ta'lim mazmunini aks ettiruvchi me'yoriy hujjatlar O'quv rejasi. O'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalari tavsifi.	84
IV mavzu: Ta'lim metodlari va vositalari. ta'limni tashkil etish shakllari va turlari.	87
4.1. Ta'lim metodlari va usullari tushunchalari.	87
4.2. Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar.	89
4.3. Dars – ta'lim tashkil etishning asosiy shakli.....	98
4.4. Ta'limni tashkil qilish shakllari haqida tushuncha.	102
4.5. Dars turlari va tuzilishi. Dars va dars mashg'ulotining bir-biridan farqli tomonlari.....	105

V mavzu: Ta'lim metodlari va vositalari. ta'limni tashkil etish shakllari va turlari.	110
5.1. Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati.....	110
5.2. Xalqaro baholash dasturlari.	119
5.3. O'quv faoliyati natijalarini baholash va qayd etish.....	121
VI mavzu: Tarbiya jarayoning mohiyati va mazmuni.....	123
6.1. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari	123
6.2. Tarbiya jarayonining mohiyati va ahamiyati.	131
6.3. Jamoa tarbiya obyekti va subyekti sifatida.	137
6.4. Bolalar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari. Bolalar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari.	141
Foydalanilgan adabiyotlar.....	146

D.K. HOTAMOVA

UMUMIY PEDAGOGIKA

o'quv qo'llanma

Muharrir: A. Qalandarov
Texnik muharrir: G. Samiyeva
Musahhih: Sh. Qahhorov
Sahifalovchi: M. Bafoyeva

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 28.03.2024. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog`ozi. Bosma tobog`i 9,5. Adadi 100. Buyurtma №137.

“Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45